

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY ISH VA IJTIMOIY  
TA'MINOTGA KIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining  
100 yilligiga bag'ishlanadi**

**TOSHKENT  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2018**

**UO'K: 36(075.8)**

**KBK: 38.621**

i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida

*Taqrizchilar: i.f. d., prof. X.P.Abulqosimov;  
i.f.n., dots. Xoshimov P.Z.*

**Sh. 91 Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik /**  
A.V. Vaxabov, SH.SH. Zaxidova, B.B. Baxtiyorov, D.SH. Odinayev,  
J.N. Fayzullayev; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 168 b.

O‘zbekiston Milliy Universitetining 100 yilligiga bag‘ishlangan darslikda ijtimoiy ta’minot tizimini shakllanishi, tarkibi va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy ish kasbiga bo‘lgan ehtiyojning vujudga kelish omillari, ijtimoiy ish kasbining maqsadi, vazifalari va uslublari, ijtimoiy ta’minot tizimi konsepsiyalari, omillari, tarkibiy qismlari, darajalari, vazifalari va amal qilish tamoyillari tahlil qilingan. Aholini ayrim qatlamlari, jumladan, keksalar, shaxslar, oilalar, ijtimoiy guruqlar bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari, uslublari, tamoyillari, rivojlangan mamlakatlarda davlatning maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari vazifalari va amalga oshirish mexanizmini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Ijtimoiy ta’minot tizimini tarkibi hisoblangan sog‘liqni saqlash sohasini vazifalari, tibbiy xizmat turlari va rivojlanish indikatorlari, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish amaliyoti, isloh etishni milliy dasturlari mazmuni va ustuvor yo‘nalishlari bayon etilgan.

Ushbu darslik oliy o‘quv yurtlarining ijtimoiy ish (pensiya ta’minoti) yo‘nalishida o‘qiyotgan bakalavr, magistrantlarga mazkur fanni o‘qitadigan professor-o‘qituvchilar, ijtimoiy ta’minot sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan doktorant, mustaqil tadqiqotchilarga, ijtimoiy siyosat bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

5520100 – Ijtimoiy ish (pensiya ta’minoti) yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

Ushbu darslik AQShning Texas Universitetida nashr etilgan “Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition Rosalie Ambrosino and others © 2008” darsligining oltinchi nashrini tarjima materiallaridan foydalangan holda yozilgan.

**UO'K: 36(075.8)**

**KBK: 38.621**

**ISBN 978-9943-13-737-0**

**© A.V. Vaxabov va boshqalar, 2018**

**© “IQTISOD-MOLIYA”, 2018**

# MUNDARIJA

## KIRISH.....5

### I BOB. IJTIMOIY TA'MINOT: SHAKLLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

1.1. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy ish tushunchalari.....	9
1.2. Ijtimoiy ta'minotni huquqiy – institutsional asoslarini takomillashuvi (Buyuk Britaniya, AQSh tajribasi).....	14
1.3. Ijtimoiy ta'minotning tarkibi.....	19
1.4. Ijtimoiy ta'minot tizimini isloh etish bosqichlari.....	21

### II BOB. IJTIMOIY ISH KASBINING VAZIFALARI VA USLUBLARI

2.1. Ijtimoiy muammolarni vujudga kelish sabablari va omillari.....	28
2.2. Ijtimoiy ishning vazifalari va tamoyillari.....	30
2.3. Ijtimoiy ish kasbining maqsadi va uslublari.....	33
2.4. Aholining turli guruh va qatlamlari bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari.....	35
2.5. Ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlash (bakalavr, magistr, fan doktorlari bosqichlari) .....	37
2.6. Ijtimoiy ish bilan bog'liq bo'lgan kasblar .....	39

### III BOB. IJTIMOIY TA'MINOT TIZIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

3.1. Ijtimoiy ta'minot tizimi konsepsiyalari, omillari va tarkibiy qismlari.....	44
3.2. Ijtimoiy ta'minot tizimi darajalari, vazifalari va amal qilish tamoyillari.....	48
3.3. Ijtimoiy ta'minot tizimida ijtimoiy-iqtisodiy adolat va ijtimoiy adolatsizlikni namoyon bo'lishi xususiyatlari.....	51
3.4. Ijtimoiy ish va fuqarolar huquqlarini ta'minlanishi .....	55

### IV BOB. AYRIM SHAXSLAR, OILALAR, GURUHLAR VA TASHKILOTLAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH AMALIYOTI

4.1. Ayrim shaxslar, oilalar, guruhlар bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari va uslublari .....	60
4.2. Aholini ayrim qatlamlari, oila, guruhlар bilan ishslash tamoyillari.....	66
4.3. Davlat tashkilotlari va jamoatchilik bilan ishslash nazariyasi, jarayoni va uslublari .....	69

### V BOB. KAMBAG'ALLIK VA UNI KAMAYTIRISH

5.1. Kambag'allikni aniqlashdagi yondashuvlar va usullar .....	76
5.2. Kambag'allik sabablari, omillari va konsepsiyalari.....	85
5.3. Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi va maqsadli ijtimoiy dasturlar .....	90
5.4. Ijtimoiy ishlovchilarni kambag'allikka qarshi kurashdagi o'rni.....	91

## **VI BOB. SOG‘LIQNI SAQLASH**

6.1. Sog‘liqni saqlash tizimining vazifalari, tibbiy xizmat turlari va rivojlanish indikatorlari .....	98
6.2. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish amaliyoti va rivojlanish tendensiyalari.....	104
6.3. Sog‘liqni saqlash tizimini isloh etishning milliy dasturlarini amalga oshirish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlari .....	108
6.4. Ijtimoiy ishlovchilarni tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi o‘rni va vazifalari .....	114

## **VII BOB. QARIYA YOSHIDAGI KISHILAR: EHTIYOJLARI VA IJTIMOIY XIZMATLAR**

7.1. Qarish nazariyalari va ularni evolyutsiyasi .....	121
7.2. “Aholi qarishi” global muammosi va uni hal etish yo‘llari .....	124
7.3. Qariyalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish.....	132

## **VIII BOB. IJTIMOIY ISHNING GLOBALLASHUVI**

8.1. Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish va globallashuv.....	142
8.2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi maqsadi va tarkibi.....	144
8.3. Global ijtimoiy muammolarni vujudga kelish sabablari, turlari va ularni guruhlanishi.....	145
8.4. BMTning global ming yillik rivojlanish maqsadlari.....	151
8.5. Ijtimoiy ishlovchilarning global muammolarni hal etishdagi o‘rni .....	152
8.6. Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi maqsadi va tarkibi .....	154

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ..... 159**

---

## KIRISH

O‘zbekistonda bozor munosabatlarini shakllanishi, iqtisodiyotni barqaror sur’atlarda rivojlanishi, iqtisodiyotni ijtimoiy yo‘naltirilganligi, aholini yoppasiga ijtimoiy huquqlarini kafolatlashdan uning manzillilagini kuchaytirish mexanizmini joriy etishni taqozo etmoqda. Milliy iqtisodiyotni aholini o‘sib va o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilishi ijtimoiy xizmatchilarni tayyorlashni taqozo etmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasini 4.1. bandi aholini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish deb nomlanadi. Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari himoyasini kafolatlash mamlakatimiz oldida o‘rtal istiqbolda turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, tamoyillari, nazariy va amaliy jihatlari, amal qilish mexanizmi borasida to‘plangan boy va ilg‘or tajribalari asosida yozilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish va O‘zbekiston materiallari bilan uyg‘unlashtirish asosida darsliklar yozish, nashr etish ijtimoiy soha uchun kadrlar tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy, uslubiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘zbekistonda Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Makroiqtisodiyot” kafedrasi yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan AQShda olti marta qayta nashr etilgan Texas universiteti iqtisodchi olimlari tomonidan yozilgan “Social Work and Social Welfare: An Introduction” darsligi ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga oid materiallar bilan to‘ldirildi.

Darslik maqsadi talabalarni jahon amaliyotida ijtimoiy ta’minot tizimini shakllanishining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari, holati va rivojlanish tendensiyalari, muammolari va ularni hal etish yo‘llari to‘g‘risida yaxlit bilim berishdan iborat. Ushbu darslik mantiqiy jihatdan o‘zaro bog‘langan. Kirish, to‘qqiz bob va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Darslikning har bir

bobida mavzu matni bilan birgalikda, tayanch atamalar, nazorat uchun savollar va olingan bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun test savollari berilgan. Darslikni kirish qismida darslik mavzusini dolzarbli, ilmiy-amaliy ahamiyati, tarkibi, maqsadi va vazifalari bayon etilgan.

“Ijtimoiy ta’minot: shakllanishi va hozirgi holati” deb nomlangan birinchi bobda ijtimoiy ta’minot bilan bog‘liq iqtisodiy tushuncha, kategoriyalarni mohiyati ochib berilgan, ijtimoiy ta’minotni tarkibi, AQSh, Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta’minotni rivojlanishining huquqiy-institutsional asoslarini takomillashuvi va isloh etish bosqichlari tahlil qilingan.

Darslikning “Ijtimoiy ish kasbining vazifalari va uslublari” deb nomlangan ikkinchi bobda ijtimoiy ish kasbining vujudga kelish sabablari, omillari, vazifalari, tamoyillari, maqsadi va uslublari bayon etilgan. Aholining turli guruh va qatlamlari bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari, ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlash holati baholangan.

“Ijtimoiy ta’minot tizimi nazariyasi va amaliyoti” deb nomlangan uchinchi bobda ijtimoiy ta’minot tizimi rivojlanishining ilmiy konsepsiyalari mohiyati ochib berilgan, omillari, tarkibi, ijtimoiy ta’minot tizimi darajalari, vazifalari va tamoyillari o‘rganilgan.

Darslikning “Ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti” deb atalgan to‘rtinchi bobda aholini ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlari hisoblangan ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va tashkilotlar bilan ishslash xususiyatlari, uslublari, tamoyillari bayon etilgan.

“Kambag‘allik va uni kamaytirish” deb nomlangan beshinchi bobda jamiyatning muhim, global muammolaridan biri hisoblangan kambag‘allikni kelib chiqish sabablari, omillari, ilmiy qarashlar tahlil qilingan, guruhlangan, kambag‘allikni aniqlashning yondashuvlari va usullari, ijtimoiy ishlovchilarni davlatning ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishdagi o‘rni qiyosiy tahlil qilingan.

Darslikning “Sog‘liqni saqlash”ga bag‘ishlangan oltinchi bobo sog‘liqni saqlash tizimini vazifalari, rivojlanish indikatorlari, tibbiy xizmatlar bozorini amal qilish mexanizmi, ijtimoiy ishlovchilarni tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdagi o‘rni va

vazifalarini o‘rganish, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning nazariy-amaliy jihatlari, mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini isloh etishning dasturini amalga oshirishning bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlari bayon qilingan.

Darslikning “Qariya yoshdagi kishilar: ehtiyojlari va ijtimoiy xizmatlar” deb nomlangan yettinchi bobida aholini qarishi deb nomlangan global muammoni kelib chiqish sabablari, omillari, aniqlash uslubiyotlari tahlil qilingan, ushbu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy nazariyalar evolyutsiyasi, “aholi qarishi” global muammosini hal etish borasida amalga oshirilayotgan xalqaro va milliy maqsadli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish holati baholangan, qariyalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tartibi, amaliyoti va xususiyatlari bayon etilgan.

“Ijtimoiy ishning globallashuvi” deb atalgan sakkizinch bobda jahonda iqtisodiy tashkilotlar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilishni XXI asr boshlaridagi amalga oshirilayotgan xalqaro dasturlari holati baholangan, ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Global ijtimoiy muammolarni vujudga kelish sabablari, turlari aniqlangan va guruhlangan. Global ijtimoiy muammolarni hal etishda xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi, ijtimoiy ishlovchilarning o‘rni baholangan va ushbu sohada uzoq istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar mohiyati ochib berilgan.

“Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish” darsligi Ijtimoiy ish (pensiya ta’minati) yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalarga taqdim etilayotgan ilk darslik bo‘lib, tanlangan kasbni jamiyatdagi o‘rni, maqsadi, vazifalarini bilib olish imkonini beradi. Talabalarga jahonda va mamlakatimizda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini kelib chiqish sabablari, rivojlanish omillari, tarkibi, huquqiy-institutsonal asoslari, tamoyillari va amal qilish mexanizmi to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish va uni amaliyotda qo‘llash borasida ko‘nikmalarni shakllanishiga imkon beradi. Juhon va O‘zbekistonda ijtimoiy sohada, jumladan, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini isloh etish borasida olib borilayotgan islohotlarni, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasini, maqsadli ijtimoiy dasturlarni maqsadi va amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida talabalar iqtisodiy dunyoqarashining

kengayishi, rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mualliflar darslikda materiallarni zamonaviy pedagogik texnologiya va o'qitishni interfaol usullaridan samarali foydalangan holda sodda, ravon tilda, aniq va mantiqiy bog'langan holda bayon etishga harakat qilishgan. Darslikni tayyorlash jarayonida taraqqiy etgan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllanishi, rivojlanishi, davlatning ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish tajribasidan, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi materiallari, xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy monografiya, ilmiy jurnallardagi maqolalardan unumli foydalanildi.

Mualliflar guruhi ushbu darslik "Ijtimoiy ish (pensiya ta'minoti) yo'nalishi talabalariga tavsiya etilayotgan birinchi darslik bo'lgani uchun darslik mazmuni, tarkibi, materiallarni uzatish uslublari va unda ko'tarilgan masalalar yuzasidan o'quvchilardan o'z fikr va mulohazalarini bildirishlarini so'raydilar.

Ushbu darslik i.f.d., prof. A.V. Vaxabov rahbarligidagi quyidagi mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan: II, III, VIII boblar i.f.d., prof. A.V. Vaxabov; I, VII boblar i.f.n., dots. Sh.Sh. Zaxidova; IV bob o'qit. B.B. Baxtiyorov; V bob kat. o'qit. D.Sh. Odinaev; VI bob o'qit. J.N. Fayzullaev.

---

## I BOB. IJTIMOIY TA'MINOT: SHAKLLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

### 1.1. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy ish tushunchalari

Ijtimoiy ta'minot nima? Kim ijtimoiy ta'minotning oluvchilari hisoblanadi? Kim ushbu ta'minotga mablag' ajratadi? Ushbu savollarga javob topish uchun ijtimoiy ta'minotning mohiyatini anglash zarur.

Ijtimoiy ta'minot aholining farovonligini ta'minlash uchun ko'rila digan chora – tadbirlar yig'indisi bo'lib, uning tarkibiga ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat layoqatini tiklash, bolalar va kattalar uchun ijtimoiy xizmatlar, davlatning yordami, ijtimoiy sug'urta, jismoniy va aqliy zaif odamlarga ijtimoiy ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi.

Ijtimoiy ish ensiklopediyasida P. Nelson Reyd ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif beradi:

**"Ijtimoiy ta'minot"** eng yaxshi g'oya, eng yaxshi g'oya esa, fuqarolarning farovonligi uchun ish bilan ta'minlash, muhtojlik va ijtimoiy risklarni oldini olish va shaxsiy xizmatlarga baho berishda iqtisodiy barqarorlikga erishishdir.<sup>1</sup>

Ijtimoiy ta'minot g'oyasi insoniylik jamiyatiga asoslangan holda ishlab chiqilib va taqdim etish orqali boshqarilib borilishi va oxiriga yetkazilishi lozim.<sup>2</sup>

**Ijtimoiy ta'minot termini** deganda – jamoaviy ijtimoiy muammolarni oldini olish va ularni hal etish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar tushuniladi.<sup>3</sup>

Ba'zilar ijtimoiy ta'minot tashkilotlariga parklar va ambulatoriyalarni kiritishsa, boshqalar esa o'zida "jamoaviy farovonlik" yoki "investitsiyalar" kiritish orqali insonlarga yordam beradigan kiradi degan yondashuvga asoslanadilar.

---

<sup>1</sup> SocialWelfare, Past and Present. 5 p.

<sup>2</sup> SocialWelfare, Past and Present. 5 p.

<sup>3</sup> SocialWelfare, Past and Present. 6 p.

AQShda aholini turmush farovonligini oshirish maqsadida biznesni rivojlantirish uchun investitsiyalar kiritishadi.<sup>4</sup>

**Ijtimoiy ish** – bu muhim kasb bo‘lib, ijtimoiy ta’milot doirasida faoliyat yuritadi va ushbu tizim ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadi.<sup>5</sup>

Ijtimoiy ishning qonuniyatlarini ochib berishda ikki yondashuvga asoslanganlik amaliyoti mavjud. Qonun (ijtimoiy qonuniyat) ijtimoiy hodisa, jarayon va tizimlarning tashkil etuvchilari va barcha taraflarining muhim, barqaror, takrorlanuvchi aloqalarini, insonlarning hayotiy faoliyati namoyon bo‘lishining barcha shakllaridagi yaxlitligini namoyon etadi. Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy ishning quyidagi qonuniyatlari sanab o‘tiladi:

- jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik;
- ijtimoiy ishning mazmuni, shakl va usullari turli guruh, birliklar, individlar hayotiy faoliyatining aniq shart-sharoitlari bilan belgilandi;
- ijtimoiy muammolarni mijozlarning shaxsiy ehtiyoj va manfaatlari orqali hal etish;
- ijtimoiy ishning samaradorligi va natijaviyligi mutaxassislarning malakasi, ma’naviy xususiyatlari, jamiyat va davlatning ijtimoiy tizimi imkoniyatlariga bog‘liqligi.

Bu yerda ijtimoiy ishning subyekti va obyektlari o‘rtasidagi o‘zaro harakat, aloqalari tufayli vujudga keluvchi barqaror, takrorlanuvchi aniq ijtimoiy hodisa, jarayon va munosabatlarning rivojlanishiga ta’sirining xarakteri va yo‘nalishini belgilaydigan qonuniyatlarga umumiy ta’rif berildi.

Ijtimoiy faoliyat ijtimoiy borliqning mavjudligi va rivojlanishi omili, tashqi olamning maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgarishini aks etishidir. Uning belgilari: onglilik, samaralilik, ijtimoiylik. Ijtimoiy ish faoliyatning quyidagi uch shakllarda: ilmiy, ta’limiy va amaliy ko‘rishlarda namoyon bo‘ladi.

---

<sup>4</sup> SocialWelfare, Past and Present. 6 p.

<sup>5</sup> SocialWelfare, Past and Present. 6 p.

Ijtimoiy ish amaliy faoliyat turi sifatida o‘z faoliyati yo‘naltirilgan obyektning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tor ma’noda ijtimoiy ish – insonlar, tashkilotlarga muammo, qiyinchiliklarni (shaxsiy, ijtimoiy va holatiy) anglashga, ularni himoyalash, qo‘llab- quvvatlash, to‘g‘ri yo‘naltirish va qayta tiklash orqali yengib o‘tishga yordam beruvchi faoliyat hisoblanadi. Keng ma’noda esa ijtimoiy ish alohida shaxslar, aholi ijtimoiy qatlam va guruhlarning ijtimoiy muammolarini yechishga, insonlarni ijtimoiy vazifalarini bajarishiga bo‘lgan qobiliyatlarini qayta tiklash va yaxshilashga samarali ta’sir etuvchi shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

Umuman olganda, ijtimoiy ishning maqsadi aholini jumladan, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarining ijtimoiy kafolatlangan guruhiy, shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan umumlashgan, universal faoliyat turidir.

Ijtimoiy ish amaliy faoliyat sifatida quyidagi tashkiliy qismlardan: obyekt, subyekt, vazifalar, vositalar, maqsadlar va boshqaruvdan iborat.

Ijtimoiy ishning obyektiga (keng ma’noda) yordamga muhtoj barcha insonlar hisoblanadi: qariyalar; nafaqaxo‘rlar; nogironlar; yetim-yesirlar; baxtsiz hodisaga duchor bo‘lganlar; kuchli stress holatini boshidan kechirayotganlar; farzandlarini yakka o‘zi tarbiyalovchi onalar va otalar; deviant xulq-atvorli shaxs va guruhlari (ichkilikbozlar, giyohvandlar, jinoyatchilar va b.); qamoqxonalarda o‘tirganlar va ozodlikka chiqqanlar; ishsizlar; qochoqlar va boshqa ijtimoiy zaif, qaltis guruhlari.

Ijtimoiy ishning subyektlari:

–qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, davlat, ijtimoiy ta’milot vazirligi, turli darajadagi ijro etuvchi va boshqaruv organlari;

– turli ijtimoiy ish olib boruvchi tashkilotlar; oila va bolalar bilan ijtimoiy ish olib boruvchi hududiy markazlar; ota-onasiz qolgan bolalar bilan ishslash markazlari; imkoniyatlari cheklangan bolalar va o‘smirlar bilan ishlaydigan reabilitatsion markazlar; aholiga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatuvchi markazlar va h.k.

- ijtimoiy, xayriya tashkilotlari, kasaba uyushmalari, fondlar, mahalliy boshqaruv organlari (mahalla), xususiy ijtimoiy xizmatlar, nodavlat xayriya tashkilotlari.

Ijtimoiy ishning asosiy subyekti amaliy faoliyat olib boruvchi professional insonlardir.

Ijtimoiy ishning predmeti – mijozning ijtimoiy holati, ya’ni ijtimoiy ishchining faoliyati yo‘naltirilgan holati. Uning faoliyati maqsadi – mijozning ijtimoiy holatini yaxshilash va uning muammolarini hal etishda yordam berish, ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijtimoiy maqomini tiklash, jamiyatga ijtimoiy moslashishini ta’minlash, moddiy mustaqillikka erishishiga yordam berish.

Professional faoliyat sifatida ijtimoiy ish quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- shaxsiy va oilaviy darajadagi ijtimoiy terapiya;
- turli tasnidagi guruhlar (yosh bo‘yicha, jins, qiziqishlar) bilan ishlash;
- yashash joyidagi ijtimoiy ish.

*Ijtimoiy ishning funksiyalari:*

- obyekt haqida ma’lumot yig‘ish, yosh va jins xarakteristikalarini aniqlash, mijozning sog‘lig‘i, yashash sharoiti, moddiy ahvoli, yashash uchun zarur bo‘lgan ne’matlar bilan o‘zini ta’minlay olish darajasini, qo‘ni-qo‘shnilarni, ruhiy holatining, xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- tashxis qo‘yish; olingan ma’lumotlardan foydalanilgan holda «ijtimoiy» tashxis qo‘yish, alohida inson yoki guruhnинг xususiyatlari va mikromuhit ta’siri darajasini aniqlash;
- prognostik; bashorat – jamiyatdagi barcha sotsial institutlarning ijtimoiy ish obyektlariga ta’sirini bashorat qilish va ushbu obyektlarning ijtimoiy xulq-atvori modellarini ishlab chiqish;
- tashkiliy; ishlab chiqarish korxonalari va muassasalarda, jumladan, yashash joylarida ijtimoiy ishni tashkil qilishga yordam berish, aholiga turli yordam va ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishga jamoatchilikni yo‘naltirish;

- psixo-pedagogik; barcha yordamga, ijtimoiy moslashish va ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj insonlarga maslahatlar berish, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga solish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash;
- profilaktik; yordamga muhtoj, kam himoyalangan qatlamlarga, adashgan insonlarga yordam berish va qo‘llab quvvatlash, jumladan ularning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarning oldini olish;
- boshqaruv: qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, nazorat va moddiy ta’minot, kadrlar tayyorlash;
- amaliy: aholining turli toifadagi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish.

Ijtimoiy ishning tamoyillari:

- ijtimoiy-siyosiy tamoyil – hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, demokratizm prinsiplari asosida, guruh yoki insonning yashashi, faoliyatining shart-sharoitlari, ijtimoiy ishchining faoliyatini qonuniy va vijdoniyligini nazorat qilish;
- tashkiliy tamoyil – kadrlarning ijtimoiy-texnologik kompetentligi, faoliyatini nazorat qilish, huquq va majburiyatlar, vakolat va javobgarlik birligi tamoyili;
- psixologo-pedagogik tamoyillar - ijtimoiy ish mijozlariga psixo-pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalarini tanlashga bo‘lgan talabni aks ettiradi, ijtimoiy-texnologik muolajani amalga oshirishda individual xususiyatlarni inobatga olish lozimligini anglatadi.

Ijtimoiy ish tamoyillari madaniyatning umuminsoniy xususiyatlari, insoniy qadriyatlar ustunligi, gumanizm, falsafasi asosida quriladi.

*Ular quyidagilardan iborat:*

- kam ta’minlanganlarning muammolarini o‘z omadsizligi deb qarash va uni hal etish uchun ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish;
- ish bilan ta’minlanganlik farovon yashash uchun yagona vosita hisoblanadi;
- ijtimoiy mas’uliyat.<sup>6</sup>

---

<sup>6</sup> SocialWelfare, Past and Present. 7 p.

Ular aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning muhim qoidalarini aniqlaydi.

Har bir inson, fuqaro yoki shaxs jamiyatning bir qismi bo‘lib ijtimoiy ta’minotga, ijtimoiy yordam ko‘rsatishga mas’uldir.

AQShda ba’zi etnik guruhlar quyidagi ijtimoiy muammolarga duch keladilar: ta’lim olish, kam ish haqi to‘lanadigan ishlar, yaroqsiz bosh pana, sog‘liqni saqlash xizmatlarining yetishmasligi.<sup>7</sup>

Ushbu muammolarni tahlil etishda liberal, konservativ qarashlar mavjud.<sup>8</sup>

## **1.2. Ijtimoiy ta’minotni huquqiy – institutsional asoslarini takomillashuvi (Buyuk Britaniya, AQSh tajribasi)**

Buyuk Britaniyada merkantilizmdan avvalgi davrlarda aholining kam ta’minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish cherkovlarning vazifasi hisoblangan. Feodal tizim davlatning ijtimoiy sohadagi yagona qonuni doirasida aholining ijtimoiy ta’minoti faoliyat yuritgan. Bu qonun “Qora o‘lim vabosi” vaqtida 1348 yilda aholi sog‘lig‘ini saqlash jarayonida qabul qilingan. Ikki yil muddatda ushbu kasaldan inglizlarning uchdan ikki qismi vafot etgan.<sup>9</sup>

1349-yilda qirol Eduard III tomonidan “Ishchilar” to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Londonda 1375-yili tashkil etilgan Muqaddas Djeyms gil’diyasi hujjatlarida quyidagicha fikrlar mavjud: “Agar kimda kim qardoshlikda bo‘la turib qarilik chog‘ida jamg‘armaga ega bo‘lmasa va o‘zini ijtimoiy himoya qila olmasa, qardoshlikda 8 yil davomida bo‘lib, o‘z xizmatini yaxshi ado etgan bo‘lsa, ushbu shaxs har haftada umrining oxirigacha yoki sharoiti yaxshilangunga qadar umumiy kassadan 13 pensiya olishga haqlı”.<sup>10</sup>

1601-yilda qirolicha Elizavetta tomonidan “Kambag‘allik to‘g‘risida” qonun qabul qilinib, unga ko‘ra:

---

<sup>7</sup> SocialWelfare, Past and Present. 7 p.

<sup>8</sup> Kaprep & Stoesz, 2004.

<sup>9</sup> SocialWelfare, Past and Present. 7 p.

<sup>10</sup> M. Pilch and V. Wood pension Schemes. A guide to principles and practice. Gower Press, 1979. P.3.

Jismoniy shaxslar ijtimoiy yordamga “munosib” hisoblangan, agar ular ijtimoiy ta’minotga muhtoj shaxslar aholi, keksa yoshdagi kishilar, nogironlar va yetim bolalarga yordam berilganda.

1. Ishga layoqatli kam ta’minlanganlar tarkibiga: qamoqdagilar, og‘ir sharoitda ishlovchilar, qullar kirgan.

Ushbu qonun Angliyada 1834-yilgacha o‘z kuchini yo‘qotmagan va 1935-yilda AQShda qabul qilingan “Ijtimoiy ta’minot to‘g‘risida”gi qonunda ham o‘z aksini topgan.<sup>11</sup> 1908-yilda Buyuk Britaniyada davlat baza pensiyalari joriy qilinib, uning hajmi haftasiga 2-5 shilling bo‘lgan va 70 yoshdan boshlab berilgan, 1925-yilda esa 65 yoshdan, 1960-yilda esa ayollar uchun pensiya 60 yoshdan berilgan. 1925-yilda 65 yoshlik pensiya yoshidagi aholi uchun qayta taqsimlash pensiya tizimi qo‘llanila boshlanib, uning moliyaviy holati to‘langan sug‘urta badaliga tayangan, bunda 70 yoshdan katta bo‘lgan aholi qatlamiga baza pensiyalari to‘lovi davom etgan. 1946-yilda Milliy sug‘urta dasturida boshlang‘ich pensiya hajmi yolg‘iz fuqarolar uchun haftasiga 26 shilling va oilalilar uchun 42 shillingdan iborat bo‘lgan.

1918 – 1921-yillarda badallar kiritish jarayonidagi soliq imtiyozlari ilk jamg‘arish tizimiga turtki bo‘ldi. Buyuk Britaniyadagi birinchi jamg‘arish tizimi 1928 yilda Metropoliten Life of New York Amerika kompaniyasi tufayli vujudga keldi. 1947-yildagi qo‘srimcha soliq imtiyozlari kompaniyalar uchun ma’muriy va asosiy ishchilarning pensiyalariga katta hajmdagi mablag‘larni qo‘yishga imkon berdi. Katta oylik maoshga ega bo‘lgan ishchilar oyligining bir qismini to‘g‘ridan to‘g‘ri chegirilishi va kelajakdagi oylik maoshi ko‘tarilishi holatidan ko‘ra ish beruvchilarning pensiya ta’minotidagi barcha xarajatlarini to‘lashlaridan manfaatdor bo‘lib qoldilar. Buyuk Britaniyadagi pensiya tizimini rivojlantirish asosida quyidagi qonunlar yotadi:

- 1952-yil: sug‘urta kompaniyalarining investitsiya daromadiga soliq solinishining bekor qilinishi;

---

<sup>11</sup> SocialWelfare, Past and Present. 8 p.

- 1956-yil: annuitetning asosiy summasiga soliq solinishining bekor qilinishi, qo'shimcha daromadni soliqqa tortilishi;
- 1970-yil: barcha turdag'i sxemalar kodirovkasining amalga oshirilishi.

AQShda ijtimoiy ta'minot tizimi. Yangi irq rivojlana borgan sari ijtimoiy yordamga va ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj orta bordi. 1814-yilda kambag'allikni aniqlash maqsadida Tomas Chalmers tomonidan ijtimoiy tashkilot ochildi. 1843 yilda Nyu Yorkda ishsizlarga yordam berish maqsadida kambag'allarni sharoitlarini yaxshilash bo'yicha assotsiatsiya tashkil etildi.<sup>12</sup> Kam ta'minlanganlarni eng samarali himoya qiluvchi tashkilot (COS) Buffalo, Nyu Yorkda tashkil etildi. 1800-yillarda yetim bolalar, kar, ko'r va ruhiy kasallarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ta'minlash asosan davlat yoki mahalliy organlar tomonidan ko'rsatilgan.<sup>13</sup>

Doroteya Diks, AQShning barcha shtatlariga sayohatga chiqib, joylardagi aholini ijtimoiy holatdan o'zini yo'qotib qo'yan va prezident Frankling Pirsning federal grantlar hisobidan kam ta'minlanganlar, ruhiy kasallar va boshqalarni ijtimoiy ta'minoti uchun mablag'lar ajratishga ko'ndirgan.<sup>14</sup>

AQShdagi ilk pensiyalar xronologiyasi 1789-yilga borib taqaladi. Ushbu yilda Federal hukumat tomonidan fuqarolar urushi qatnashchilariga pensiya belgilangan. 1795-yilda Tomas Peyn o'zining "Agrar adolatlilik" tezislarida Yevropa millatiga va hali yosh Amerika respublikasiga ijtimoiy sug'urta dasturini taklif etadi. U meros olgan mulk sohiblarining holatidan kelib chiqib 10 foiz miqdorini soliq tariqasida to'lashni va ushbu summa maxsus fondni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi zaruriyatini ko'zda tutadi. Ushbu fond hisobidan 21 yoshga to'lgan aholi qatlamlariga 15 funt sterling miqdorida va 50 yoshdan katta aholi qatlamlariga esa 10 funt sterling kambag'allik bo'yicha to'lovlarini amalga oshirishni ko'zda tutgan.

---

<sup>12</sup> SocialWelfare, Past and Present. 9 p.

<sup>13</sup> SocialWelfare, Past and Present. 9 p.

<sup>14</sup> SocialWelfare, Past and Present. 8 p.

AQShdagagi pensiya tizimining rivojlanishi evolyutsion yo‘l bilan, tarmoqlar, shtatlar, umum davlat (federal darajada) xususiy sektorga jamg‘arish tizimini tajriba sifatida qo‘llash orqali rivojlna borgan. 1857-yilda ilk marotaba Nyu York politsiya xodimlari uchun hayotlarini va nogironlikni sug‘urtalash uchun munitsipal pensiya fondi tashkil etilgan. 1857-yilda “American Express” kompaniyasi tomonidan ilk marotaba xususiy pensiya rejasi tuziladi. Unga ko‘ra kompaniyada 20 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan, 60 yoshli ishchilarga ish faoliyatini to‘xtatganlik yuzasidan to‘lovlar to‘lanilishi ma’lum qilinadi. Birinchi o‘qituvchilar uchun pensiya sxemasi Nyu York shahri (1894-yil)da va Nyu Djersi shtati (1896-yil)da joriy etilgan. 1898-yilda Ogayo shtatida AQSh tarixidagi ilk bora ko‘rlarni pensiya bilan ta’minalash qonun loyihasi qabul qilinadi. 1911-yilda Massachusettsda, 1914-yilda Arizonada shtatlar doirasida badal to‘lovlariga asoslangan, barcha davlat idoralari ishchilarini qamrab olgan birinchi pensiya tizimi joriy qilindi. 1920-yilda federal ishchilar uchun grajdani ishchilarini va nogironlarni pensiya bilan ta’minalovchi Fond tashkil etildi. 1934-yilda prezident Ruzvelt tomonidan temir yo‘l ishchilar uchun pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi.

1930-yildagi moliyaviy inqiroz 1935-yilda prezident F.D.Ruzvelt tomonidan imzolangan “Ijtimoiy sug‘urta ta’minoti to‘g‘risida”gi Farmon qabulini tezlashtirdi. Joriy etilishining asosiy vazifasi sifatida pensiya to‘lovlarini to‘lash yo‘lga qo‘yilgan. Farmonning muhim jihatini quyidagi dasturlarning qabul qilinishi bo‘ldi:

- ijtimoiy himoya dasturlarini saqlash uchun shtatlarga dotatsiyalar ajratish;
- pensiya yoshidagi aholi qatlami uchun to‘lovlarini amalga oshirishni federal dasturi.

Ikkinci dastur hozirda AQShdagagi ijtimoiy sug‘urta dasturiga asos bo‘ldi. 1937-yildan AQShdagagi ijtimoiy sug‘urta dasturi moliyalashtirishning qayta taqsimlash prinsipiiga o‘tdi va ishchilar uchun oylik ish haqidani ushlab qolish 1 foizga teng bo‘lgan. Ish beruvchilar uchun esa (“ishsizlik bo‘yicha soliq”) ishchilar soni 8 nafardan oshgan taqdirda 2 foizga teng bo‘lgan. Hozirgi kunda umumiyligi

ushlab qolish holati 15,3 foizi mehnatga haq to‘lash fondini tashkil etib, uning og‘irlik yuki ish beruvchi va ishchilar o‘rtasida teng taqsimlangan. 1940-yildan boshlab qarilik, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha oylik pensiya to‘lovlar joriy etildi.

1977-yilda dastur inqirozga yuz tutadi, shu sababli ish haqidan ushlab qolish stavkasi 6 foizdan hozirgi 7.65foizga (ish beruvchi va yollanma ishchi uchun alohida) yetdi. 1983-yildan boshlab pensiya yoshining uzaytirilishi kuzatildi va u erkak va ayollar uchun 67 yoshga teng bo‘ldi.

1937-yilda AQShda ilk byudjetdan tashqari “Qariyalar va ular qaramog‘idagilar uchun Trast fondi” tashkil etildi. Trast fondlarida kiritilgan to‘lovlar hisobi, ularning indeksatsiyasi va to‘lov jarayonlari amalga oshiriladi. Trast fondlari davlat o‘z ijtimoiy siyosatini olib boruvchi mexanizm hisoblanadi. 2000-yilga qadar G‘aznachilikda to‘rtta maxsus hisoblar mavjud bo‘lgan: qarilik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha Sug‘urta fondi (SPKS), nogironlarni sug‘urtalash (IS), umumiylar tibbiy sug‘urtalash (MedS) va nogironlarni tibbiy sug‘urtalash (MedIS).

Ko‘plab pensiya dasturlari ilk marotaba Buyuk Britaniya va AQShda tashkil etilganiga qaramasdan, umum davlat ijtimoiy sug‘urta dasturi birinchi marta Germaniyada vujudga kelgan.<sup>15</sup> Germaniyada “Kasallik va baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash to‘g‘risida Qonun” qabul qilindi va majburiy sug‘urta prinsipi amalga oshirila boshlandi. 1881-yil 17-noyabrda imperator Vilhelm I Kansler Bismark taklifi bilan band aholiga majburiy ijtimoiy ta’minotni joriy etdi. 1889-yildagi “Qarilarni pensiya bilan ta’minalash to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi bilan Germaniya pensiya ta’minotining milliy dasturiga ega bo‘lgan dunyodagi birinchi mamlakatga aylandi.

XIX asr oxirida Yevropa mamlakatlari va Amerikada shakllangan muhtojlarga davlat yordami tizimi ikki element: qonunchilikni rivojlantirish va maxsus idora, muassasalar yaratishni o‘z ichiga oladi.

---

<sup>15</sup> Old Age Pension Schemes. OECD 1977. Paris, France, P.22.

Ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi dastlabki o‘quv muassasalari xayriya tashkilotlari tomonidan tuzilgan. 1896-yilda deyarli bir vaqtida Angliya va Germaniyada kurslar ochildi. 1898-yilda AQShda Nyu York filantropiya maktabida ijtimoiy xodimlar tayyorlana boshladi. Keyinchalik u Kolumbiya universitetining ijtimoiy ish maktabiga aylanib, muhtojlarga yordam berish bilan shug‘ullanuvchilar uchun bir yillik ta’lim dasturini taklif etdi. G‘arb mamlakatlari jamoatchiligi ongida muhtojlarga professional yordam ko‘rsatish g‘oyasi yanada aniqlashdi. Bu g‘oya XIX asr oxirlaridayoq amalga oshirila boshlandi. 1899-yilda Ijtimoiy xodimlar tayyorlash institutiga asos solgan Amsterdamdagi ijtimoiy islohotchilar guruhi ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo‘yicha jahonda birinchi institutga asos solish sharafiga erishdilar. Institut dasturida o‘zlarini ijtimoiy ishga bag‘ishlashni istagan erkak va ayollar uchun ikki yillik kunduzgi nazariy ta’lim va amaliy tayyorgarlikning to‘liq kursi ko‘zda tutilgan.

XX asrning birinchi yarmi davlatning o‘rnii kuchayishi va «umumiyy mehrmuruvvat jamiyat» nazariyasi va amaliyoti rivojlanishi bilan izohlanuvchi ijtimoiy ishning institutsionallashuvi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy xodimlar professional faoliyati natijasida ularning asosiy huquq va majburiyatları shakllanishi, mehnatga rasmiy haq to‘lash, o‘quv muassasalari, professional tashkilotlar yaratilishi hisoblanadi. Garchi professional ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni boshlagan dastlabki ixtisoslashgan o‘quv muassasalari Niderlandiya, so‘ngra AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada yaratilgan bo‘lsada, «ijtimoiy xodim» kasbi dastlab AQShda, so‘ngra G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy nufuzga ega bo‘ldi.

### **1.3. Ijtimoiy ta’midotning tarkibi**

Ijtimoiy ta’midot tarkibiga ijtimoiy sug‘urta, davlat yordami va sog‘liqni saqlash kiradi

**Ijtimoiy sug‘urta** – aholini turli xavf-xatarlardan jumladan, ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo‘qotish kabi xavf-xatarlar yig‘indisidan ijtimoiy himoyalash hisoblanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning muhim jihat shundaki, u ish beruvchi va ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus byudjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug‘urta miqdori tengsizlik qoidasi asosida tuzilgan bo‘lib, sug‘urta to‘lovi, mehnat ulushi va sug‘urta muddati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiyy sug‘urta fondlarining muhim jihat ish beruvchi va ishchilarning birdamlik qoidasi ularni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatini belgilab beradi. Ushbu fondlar o‘zini-o‘zi boshqarish va notijorat xo‘jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

Ijtimoiy sug‘urta tizimining moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi. Ijtimoiy sug‘urta fondlari ishchilarning sug‘urta badali, ish beruvchining badallari va davlat subsidiyalari kabi manbalardan shakllanadi.

Majburiy ijtimoiy sug‘urta fuqarolarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, daromadidan qat’iy nazar ijtimoiy sug‘urta kafolatlarini (pensiya, nafaqa va xizmat) ma’lum miqdorini olishni ta’minalashga qaratilgan.

Majburiy ijtimoiy sug‘urtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollari, ish qobiliyatini yo‘qotganda, onalik va bolalikni muhofaza qilishda moddiy ta’minlovchi davlatga kafolat tizimi sifatida qaraladi. Majburiy ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yollanma ishchining maqsadli soliqlari yakka tadbirkorlarning badallari va davlat subsidiyalari hisobidan shakllantiriladi. Insoniyat va tabiatning ajralmas birlik ekanligi bilan bir qatorda, ular o‘rtasida shunday qarama-qarshilik mavjudki, u inson bilan tabiat o‘rtasidagi tinimsiz kurashlarda namoyon bo‘ladi. Favquloddalik va xavf-xatar insoniyat mavjudligining me’yori hisoblanadi.

Agar dastlabki sug‘urta moddiy ehtiyojlarni ta’minalashga qaratilgan bo‘lsa, XIX asrning oxiriga kelib ijtimoiy risklarni boshqarish davlat tamoyilining tarkibi qismiga aylandi.

**Davlat yordami** - asosan davlat yoki mahalliy byudjet mablag‘laridan aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. U quyidagi komponentlardan tashkil topgan:<sup>16</sup>

- keksalar uchun yordam;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam;
- ko‘rlar uchun yordam.

**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’mnot** - bu asosan onalarga bolalarni parvarish qilishga, mehnat qobiliyatini tiklashga, sog‘liqni saqlash va jismonan zaif bolalarga yo‘naltirilgan ijtimoiy yordamdir.<sup>17</sup>

Yillar o‘tishi bilan AQShning ijtimoiy ta’mnot qonunlariga o‘zgartirishlar kiritish orqali ijtimoiy ta’mnot tizimi ijtimoiy yordamga muhtoj aholini ko‘proq qamrab olmoqda. Jumladan, ijtimoiy sug‘urta, keyinchalik tibbiy sug‘urta (Medicare) va tibbiy yordam dasturlari (Medicaid) davlat yordamiga muhtoj aholiga taqdim etilgan.<sup>18</sup>

#### **1.4. Ijtimoiy ta’mnot tizimini isloh etish bosqichlari**

AQSh tarixida ijtimoiy ta’mnot tizimining isloh etish bosqichma – bosqich amalga oshirilgan.

Hukumat fuqarolarning ijtimoiy - iqtisodiy huquqlarini himoya qilish maqsadida Lindon Djonson (1963–1968yy) tomonidan ijtimoiy islohotlar doirasida “Ulkan jamiyat qonuni” deb nomlangan ijtimoiy dasturlar ishlab chiqildi. Unda aholini ijtimoiy ta’mnotga muhtoj qatlamlari uchun maksimal imkoniyatlar va mavjud dasturlar, xizmatlar yanada takomillashtirilgan.<sup>19</sup> Muhim ahamiyatga ega qonun 1964-yilda qabul qilingan “Kambag‘allikka urush” deb nomlangan.<sup>20</sup> Maqsadi umuman kambag‘allikni yo‘qotish hisoblangan.

---

<sup>16</sup> SocialWelfare, Past and Present. 14 p.

<sup>17</sup> SocialWelfare, Past and Present. 14 p.

<sup>18</sup> SocialWelfare, Past and Present. 15 p.

<sup>19</sup> SocialWelfare, Past and Present. 16 p.

<sup>20</sup> SocialWelfare, Past and Present. 16 p.

**1970-yillardagi ijtimoiy ta'minot tizimidagi islohotlar.** 1970-yillarning o'rtalarida ijtimoiy siyosat ijtimoiy ta'minot tizimining salbiy jihatlarini meros qilib oldi. Ijtimoiy yordam oluvchilar, ishchilar, davlat xizmatchilari amal qilayotgan ijtimoiy ta'minot tizimini samarasiz ekanligiga ishonch hosil qildilar. Ushbu holat mamlakatda ijtimoiy siyosatni qayta ko'rib chiqish kerakligini anglatdi.<sup>21</sup> 1980-yillarda mamlakat iqtisodiyoti barqaror sur'atlarda rivojlanmayotganligi tufayli davlat ijtimoiy dasturlarini qisqartirilishiga olib keldi. 1982-yilda Prezident Reygan tomonidan ijtimoiy ta'minot tizimining "Yangi feodalizm"<sup>22</sup> islohotlari amalga oshira boshlandi, unga ko'ra markaziy o'rinni davlat savdo talonlarini moliyalashtirish egalladi. Federal hukumat esa tibbiy dasturni (Medicaid) moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladigan bo'ldi.

1988-yilda AQSh kongressi "Oilani qo'llab - quvvatlash" to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Qonun quyidagilarni ko'zda tutar edi: 12 oy tibbiy sug'urta (Medicaid) doirasida, bola parvarishi uchun olinadigan nafaqa ota-onasi ishga joylashguniga qadar ta'minlashni ko'zda tutadi. Ushbu qonun oilani uy-joy bilan ma'lum muddat ta'minlaydi. AFDC-UP, ota-onalar alimentlarni to'lashni yanada ko'proq nazoratga olishni ta'minladi.<sup>23</sup>

1992-yilda AQSh prezidentligiga nomzod Bill Clinton o'z ijtimoiy ta'minot islohotlarini taklif etdi. U "Oila to'g'risida"gi qonunni yanada takomillashtirish, ijtimoiy ta'minot tizimi dasturida davlatning ishtirokini yanada faol bo'lishini ta'kidladi. "Islohotning maqsadi aholi farovonligiga hayot tarzi sifatida emas, balki ikkinchi imkoniyatdek qarash lozim" degan g'oya olg'a surilgan.<sup>24</sup>

2000-yilda AQSh prezidenti Djordj Bush ijtimoiy ta'minot tizimi siyosatining yangi bosqichini ochdi va unda hukumat insonlarga yakka o'zi yordam bera olmaydi, u insonlarning bir-biriga, jamiyatlarni yordam berishga ko'maklashishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi.<sup>25</sup> Kimga ijtimoiy yordam kerak, ijtimoiy muhtoj bo'lsa faqat shunga ijtimoiy yordam ko'rsatish kerakligi ta'kidlanadi.

---

<sup>21</sup> SocialWelfare, Past and Present. 17 p.

<sup>22</sup> SocialWelfare, Past and Present. 18 p.

<sup>23</sup> SocialWelfare, Past and Present. 18 p.

<sup>24</sup> SocialWelfare, Past and Present. 19 p.

<sup>25</sup> SocialWelfare, Past and Present. 19 p.

Shunday qilib AQSh ijtimoiy ta'minot tizimini isloh etilishi ko‘p bosqichlarni bosib o‘tdi va hozirga kelib aholini barqaror turmush farovonligini ta’minlab bermoqda.

### **Tayanch atamalar (glossariy)**

**Ijtimoiyadolat** – jamiyatni moddiy va ma’naviy rivojlanish darajasida kelib chiqqan holda aholi, kishilar, sinflar va ijtimoiy qatlamlarni turmush darajasidagi tenglik mezoni.

**Ijtimoiy yordam nafaqalari** – odatda umumiylar soliq tushumlaridan moliyalashtiriladi va yordamga muhtoj kishilarga ularning daromadini yoki moddiy holatini baholash asosida kam ta’minlangan shaxslarga to‘lanadigan nafaqa shaklida to‘lanadi.

**Ijtimoiy yordam tizimi** – tor ma’noda kambag‘allikka qarshi kurash maqsadida to‘lanadigan pulli nafaqalar tizimidir. Keng ma’noda esa, kam ta’minlanganlarga yo‘naltirilgan barcha turdagiligi ijtimoiy harajatlarni qamrab oladi.

**Ijtimoiy javobgarlik** – shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlardan kelib chiqadigan, ularni o‘zaro anglangan majburiyatlarini bajarishiga bo‘lgan munosabati.

**Ijtimoiy ish** – o‘zini-o‘zi parvarish qila olmaydigan insonlar va oilalarni, jumladan, jismoniy zaif qariyalarni, nogironlarni va ruhiy kasallanganlarni o‘ziga xos ravishda parvarish qilishdir.

**Ijtimoiy sug‘urta** – pensiyaga chiqish va ishsizlik bilan bog‘liq ish haqini yo‘qotishlarni vaqtinchalik qoplash. Majburiy badallar asosida davlat tomonidan tashkil etiladigan pulli nafaqalar tizimidir. Ushbu nafaqalarga quyidagilar kiradi: ishsizlik nafaqasi, mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi, homiladorlik va tug‘ganlik uchun nafaqalar, yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiyalar.

**Ijtimoiy ta’minot** – vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik, ishsizlik uchun, ayollar va bolalarga, keksalarga nafaqalar to‘lashning davlat tizimi

**Ijtimoiy xizmatlar** – inson kapitalini investitsiyalash, jumladan shaxsning takror ishlab chiqarish, ma’naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish.

**Ijtimoiy himoya** – keng ma’noda, aholining barcha qatlamlariga nisbatan qo’llaniladigan ijtimoiy xatar (risk) yuz berganda ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisidan iborat. Tor ma’noda aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni ko‘zda tutadi.

**Ijtimoiy himoya tizimi** – mehnat qobiliyatini yo‘qotib o‘zi ishlab topa olmaydigan yoki qaramog‘ida bolalari, boqimandalariga ega bo‘lgan shaxslarga nafaqa berish tizimi.

**Ijtimoiy huquqlar** – insonning ijtimoiy ta’mnotin, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam olish va boshqa shu kabi ijtimoiy himoya olishga bo‘lgan konstitutsion huquqi

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ijtimoiy ta’mnotin tushunchasi qanday izohlaysiz?
2. Fuqarolarga qanday ijtimoiy nafaqalar beriladi?
3. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’mnotinni moliyalashtirishning manbalarini sharhlang?
4. Ishsizlik nafaqasi bilan ta’minlanish zaruriyati nimadan iborat?
5. Ishsiz fuqarolar deb kimlar hisoblanadi?
6. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’mnotinning rivojlanish konsepsiysi maqsadi va ustuvor yo‘nalishlarini izohlab bering?
7. O‘zbekistonda qanday ijtimoiy xayriya jamg‘armalarini bilasiz va ularni guruhlang?
8. Ijtimoiy jamg‘armalarni faoliyati qanday maqsadlar uchun yo‘naltirilgan?
9. Ijtimoiy yordam, ijtimoiy himoya va ijtimoiy sug‘urta tushunchalarini umumiyligi va farqli jihatlarini aniqlang?
10. Ijtimoiy muammolarni kelib chiqish sabablari va hal etish yo‘llarini sharhlang?

## **Testlar**

### **1. Ijtimoiy himoya tushunchasini keng ma'nodagi ta'rifini izohlang?**

- a) mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui
- b) mamlakat aholisini moddiy jihatdan rag'batlantirish va himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui
- c) mamlakat aholisini moddiy jihatdan rag'batlantirishni qaror toptirishdan iborat
- d) mamlakat aholisini oylik maoshlarini oshirishdan iborat bo'lgan tadbirlar majmui

### **2. Ijtimoiy himoyaning maqsadi bu?**

- a) aholi farovonligini, qatlamlarini ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tavofutlariga barham berish, insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berish
- b) mamlakat aholisini oylik maoshlarini oshirishdan iborat bo'lgan tadbirlar
- c) mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishi
- d) mamlakat aholisini har xil xavf-xatardan himoyalash

### **3. “Ijtimoiy himoya” tushunchasi mazmuni birinchi marta qaysi rivojlangan davlatning “Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun”da qo'llanilgan?**

- a) 1935-yilda Yaponiyada
- b) 1945-yilda Shvetsariyada
- c) 1935-yilda AQSh
- d) 1945-yilda Germaniyada

### **4. Ijtimoiy sug'urta tizimini dastlabki shartlari nimalardan iborat?**

- a) ijtimoiy haqqoniylikni ta'minlash, siyosiy birdamlilikni yaratish va uni saqlab qolish
- b) ijtimoiy himoyalash
- c) ijtimoiy xavf-xatarlarni oldini olish
- d) ijtimoiy va siyosiy shakl sifatida

**5. Nodavlat byudjetdan tashqari fondlar tarkibiga qaysi jamg‘armalar kiradi?**

- a) “Navro‘z”, “Mahalla”, “Ekosan”, “Orol”
- b) “Oltin meros”, “Amir Temur”
- d) “Sog‘lom avlod uchun”, “Iste’dod”, “Mehr nuri”
- e) Hamma javoblar noto‘g‘ri

**6. Pensiya fondining moliyalashtirish manbalari?**

- a) sug‘urta badallari, o‘z mablag‘lari hisobidan tushgan daromadlar
- b) ish haqi fondidan ajratma, ijtimoiy sug‘urta badallari, pensiyalar, jarimalar
- d) homiylik pullari, o‘z mablag‘lari hisobidan olingan daromadlar va boshqa to‘lovlar
- e) b, c, d javoblar to‘g‘ri

**7. Pensiya fondi hisobidan to‘lanadigan nafaqa turlari?**

- a) turli ko‘rinishdagi nafaqlar va mukofotlar
- b) qarilik, nogironlik, homilador onalarga, boquvchisini yo‘qotgan oilalarga
- d) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganda;
- e) b, c javoblar to‘g‘ri

**8. AQSh va Kanadada fuqarolarni ijtimoiy himoyalashda pensiya tizimining .... foydalilanildi.**

- a) taqsimot tortiluvchan modeli va xususiy sektorning ixtiyoriy mablag‘laridan
- b) majburiy pensiya tizimidan
- d) taqsimot pensiya modeli va individul daromadlardan
- e) ixtiyoriy.

**9. Bismark boshqarayotgan Germaniya hukumati ... qonun bilan sanoatda ishlovchilar uchun majburiy ijtimoiy sugurta tizimini nogironlik va qarilik bo‘yicha ta’minotlarni o‘z ichiga oldi**

- a) 1889-yilgi
- b) 1888-yilgi
- d) 1883-yilgi

e) 1884-yilgi

**10. Aholini turmush darajasini belgilovchi omillar:**

- a) ish bilan band bo'lish, mehnat sharoitini yaratish, ijtimoiy himoyalash
- b) tibbiy xizmat olish, jamoat ishlarida qatnashish, ta'lim olish
- d) mahallalardan nafaqalar berish, ta'lim olish, ijtimoiy ta'minot
- e) barchasi to'g'ri

**11. Ijtimoiy himoyalash obyektlari:**

- a) pensiya yoshiga yetganlar, nogironlar, ishsizlar
- b) homilador ayollar, o'quvchi yoshlar, chet elga ishga ketganlar
- d) kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar, ayollar, ta'lim olayotganlar
- e) to'g'ri javob yo'q

---

## **II BOB. IJTIMOIY ISH KASBINING VAZIFALARI VA USLUBLARI**

### **2.1. Ijtimoiy muammolarni vujudga kelish sabablari va omillari**

Jahon amaliyotida ijtimoiy soha xizmatchilari mahalliy, davlat va federal tashkilotlarda turli xil jabhalarda keng qamrovli faoliyat ko'rsatib, kishilar o'rtasida shakllanuvchi turli ijtimoiy muammolarning yechimini topishga va ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga kasbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Ijtimoiy muammolar qanday paydo bo'ladi?

Ijtimoiy kasb egalari alohida shaxslar, oilalar, aholi guruhlari, tashkilotlar va birlashmalarni optimal faoliyat yuritishlari uchun to'sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish bo'yicha faoliyat olib boradilar. Kasbiy ijtimoiy xizmatchilar tomonidan aholiga manzilli yordam ko'rsatiladi. Aksariyat hollarda ijtimoiy muammolar qatoriga kambag'allik, oilaviy nizolar, ota-onalardan va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, jinoyatchilik, zo'ravonlik, alkogol yoki narkotik moddalarga ruju qo'yish, ruhiy zo'riqish bilan bog'liq holatlar kiritiladi.

Nima uchun kishilarda ijtimoiy muammolar kuchayib, chetdan alohida mutaxassis yordami kerak bo'lib qoladi? Inson ongli ravishda o'zini zaiflashtiruvchi muammolarni rivojlantirib borishni rejashtirmaydi. Hech bir bola qashshoqlikda umr kechirishni, yoki o'smir ruhiy kasallikka chalingan holatda yashashni rejashtirmaydi. Mehr-muhabbat bilan yorqin kelajakka intilib oila qurgan ikki yosh turmushlarini o'zaro haqoratlanishlar yoxud ajrim bilan tugashini xohlamaydi. Nima uchun bunday muammolar paydo bo'ladi? Nima uchun ayrim juftliklar baxtli nikohda bo'lgani holda ba'zilar o'z turmushlaridan qoniqish hosil qila olmay boshqa nikohga kiradilar? Nima uchun ayrim odamlarning o'z kasbi bo'yicha martabasi va unga mos ravishda daromadlari darajasiga tushib qoladi. Ijtimoiy muammolarning vujudga kelishiga ko'plab omillarning qo'shilib ketishi ta'sir etadi.<sup>26</sup> Quyida ushbu omillarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

---

<sup>26</sup> Social work and social welfare. P. 25.

**Irsiyat va nasl-nasab** biologik nuqtai nazardan insonlar avlodlarining fiziologik xususiyatlari bilan dunyoga keladilar. Masalan ayrimlar baland bo‘yli, qaddi-qomati kelishgan bo‘lsa, boshqalari past bo‘yli; ayrimlari og‘ir vaznli bo‘lsa, ba’zilar ixcham ko‘rinishli bo‘ladi. Ayrim kishilar boshqalarga nisbatan o‘ta yuqori aqliy qobiliyat egasi bo‘lsa, ba’zilar ko‘proq moslashuvchan bo‘ladilar. Ushbu sifatlar kishining hayot tarziga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, xohish va imkoniyati yuqori bo‘lishiga qaramasdan, bo‘yi 154 sm kishining basketbolchi kasbini egallashi va muvaffaqiyatga erishishi katta qiyinchilikka ega bo‘ladi. Xohish va qobiliyatga bog‘liq bo‘lmagan holda imkoniyatlar jismoniy tavsiflar bilan cheklanadi. Yoki irsiy kasalliklar, jumladan, shizofreniya, boshqa ruhiy kasalliklar kishilarning jamiyatga moslashuvida qarama-qarshilik, ziddiyatli holatlarni keltirib chiqaradi.

**Ijtimoiylashuv** jarayonida kishilar nasl-nasabidagi cheklashlarga qaramasdan ijtimoiy voqelik sifatida rivojlanib boradilar. Ijtimoiy xulq-atvor kishilarning boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ota-onalar ijtimoiylashuvining dastlabki bosqichida farzandlar uchun asosiy tajriba manbasi hisoblanadi va oilaviy madaniyat qadriyatlar, an'analar shakllanishi, rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kambag‘al ota-onsa bilan boy ota-otaning farzandiga bo‘lgan munosabati, talablari bir-biridan keskin farq qiladi. Lekin oilalar ijtimoiy rivojlanishning yagona manbasi emas. Qo‘ni-qo‘shnilar, tanish-bilishlar, do‘sbirodarlar va boshqa ijtimoiy institutlar shaxsning ijtimoiylashuvida muayyan vazifani bajaradi.

**Madaniy tafovutlar** an'analar va qadriyatlar ayrim aholi qatlamlarida boshqalariga qaraganda kuchliroq yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin. Jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari butun dunyodan immigrantlarni jalb qilgani va madaniy jihatdan boyligi bilan g‘ururlanadilar. O‘z navbatida immigrantlar uchun til borasidagi to‘silqlar va madaniy jihatlardagi farqlar ularni jamiyatga moslashib, kirishib ketishlariga xalal beradi.<sup>27</sup>

---

<sup>27</sup> Social work and social welfare. P. 26.

**Atrof-muhit omillari** geografik joylashuv, iqlim va tabiiy resurslarning barchasi aholining turmush darajasi va imkoniyatlariga, ehtiyojlarining qondirilish ko‘lami va darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar tarkibi va mavqeい jahon mamlakatlarida turlichadir.

Irsiyat va nasl-nasab, ijtimoiylashuv, madaniy tafovutlar, atrof-muhit omillarining barchasi nima uchun kishilarda ijtimoiy muammolarning vujudga kelishini tushuntirib beradi. Ushbu omillarning barchasi birgalikda shaxsning imkoniyatlar tuzilmasini tashkil etadi.

## **2.2. Ijtimoiy ishning vazifalari va tamoyillari**

Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, davlatning yordam dasturlarida ishtirok etuvchi ijtimoiy xizmatchilar farovonlik xizmatchilari deya e’tirof etiladi. Bu biroz tor ma’noda ifodalangan tavsif bo‘lib, ijtimoiy xizmatchilar amaliyatda turli xil ishlarni bajarib, keng qamrovli faoliyat doirasiga egadirlar. Ijtimoiy ta’minotning lug‘aviy ma’nosи “ijtimoiy farovonlik” tushunchasini anglatadi.<sup>28</sup>

Ijtimoiy xizmatchilarning milliy assotsiatsiyasi (IXMA) mutaxassislari fikricha, **ijtimoiy ishning asosiy vazifasi** insonlarning farovonligini oshirish va kishilarning hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, bunda e’tibor ijtimoiy adolat mezonlarini ta’minalash, kishilarning ehtiyojlarini to’laroq qondirilishi, ijtimoiy yordamga muhtoj va qashshoqlikda kun kechiruvchilarning imkoniyat va huquqiy erkinliklarini kengaytirishga qaratiladi.<sup>29</sup>

Ijtimoiy xizmatchining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

**Tashxislash funksiyasini** amalga oshirish ijtimoiy xizmatchining aholini alohida qatlamlari, darajalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularga mikromuhitning yo‘naltirilganligi hamda “ijtimoiy tashxis” qo‘yishida o‘z ifodasini topadi.

---

<sup>28</sup> Social work and social welfare. P. 27.

<sup>29</sup> Social work and social welfare. P. 27.

**Istiqlolni belgilash funksiyasi** jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar ijtimoiy ish obyektlariga muayyan ijtimoiy xulq-atvor modelini ishlab chiqishning ta'sirini dasturlash va prognozlash orqali amalga oshadi.

**Ogohlantiruvchi-profilaktik funksiya** salbiy voqeliklarda ijtimoiy-huquqiy, yuridik, psixologik, ijtimoiy-tibbiy, pedagogik va boshqa mexanizmlar orqali ularni oldini olish yoki ogohlantirishga imkon yaratadi.

**Huquqni muhofaza qilish funksiyasi** aholini himoya qilish, yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun va huquqiy normalardan kompleks ravishda foydalanishni ko'zda tutadi.

**Ijtimoiy-pedagogik funksiya** yordamida ijtimoiy xizmatchi kishilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularni turli xil tashkilot va birlashmalarda ishslashga jalg qiladi.

**Psixologik funksiya** shaxsning ijtimoiy moslashuvida, shaxslararo munosabatlarda maslahatlar berish va to‘g‘rilashni amalga oshiradi.

**Ijtimoiy-tibbiy funksiyani** amalga oshirish orqali ijtimoiy xizmatchi birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, to‘g‘ri ovqatlanish, gigiena qoidalarining asoslarini amalga oshiradi.

**Ijtimoiy-maishiy funksiyani** amalga oshirishda ijtimoiy xizmatchi aholining turli qatlamlariga yashash sharoitini yaxshilash, to‘la qonli maishiy turmush sharoitini ta’minalashga kerakli bo‘lgan yordamni ko‘rsatishi zarur.

**Kommunikativ funksiya** aholining yordamga muhtoj bo‘lgan qatlami bilan turli xil ijtimoiy institutlar o‘rtasida axborot almashinuvini va o‘zaro aloqani ta’minalashga qaratilgan.

**Reklama-targ‘ibot funksiyasi** Ijtimoiy ishda insonning ijtimoiy himoya qilish g‘oyasini targ‘ibotida ijtimoiy xizmatlarni reklama qilishdan iborat.

**Ahloqiy-insoniy funksiya** ijtimoiy ishga yuqori insoniy maqsadlarga erishish, jamiyatda aholining turli qatlamlari va guruhlarini munosib hayot kechirishini ta’minalash vazifasini yuklaydi.

**Tashkiliy funksiyani** amalga oshirish ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning faoliyatida, jumladan, yashash joyiga ko'ra ishga jalb etishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy xizmatchilar bajaradigan vazifalariga qarab mediator, kordinator, umumi menejer, o'qituvchi, tahlilchi, broker, mobilizator, advokat kabilarga ajratiladi. Ular o'z faoliyatida turlicha boshqaruv qoidalariga amal qiladilar. Masalan, mediator atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyat olib boradi, umumi menejer maxsus loyiha, dastur yoki agentlikning ma'muriy boshqaruviga javob beradi, advokat yordamga muhtoj kishiga uning huquqlarini himoya qilish uchun ish olib boradi va h.k.

Demak, ijtimoiy ish insoniy muammolarni yengillashtiruvchi faoliyat bo'lib, u aholining alohida guruhlari, oilalar, tashkilotlar va jamiyat a'zolari o'rtasida vujudga keladi.<sup>30</sup>

Ijtimoiy ishning tamoyillari ilmiy nazariyaning muhim mantiqiy tarkibiy unsurlari hisoblanadi. Ijtimoiy ish tamoyillari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- umumfalsafiy tamoyillar jamiyat va inson, ularning o'zaro munosabati haqidagi barcha fanlar asosida shakllangan (determinizm, aks ettirish, rivojlanish tamoyillari va boshqalar);
- ijtimoiy-siyosiy tamoyillar davlatning ijtimoiy siyosatidan kelib chiqadi (ijtimoiy ishning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olib davlat yondashuvining yagonaligi tamoyili, demokratiya tamoyili va sh.k);
- tashkiliy tamoyillar (xodimlarning ijtimoiy-texnologik layoqatliligi, ijroni tekshirish va nazorat qilish, funksional aniqlik tamoyillari va boshqalar);
- ruhiy – pedagogik tamoyillar (ijtimoiy xizmat mijozlariga ruhiy – pedagogik ta'sir etish vositalarini tanlash, ishtimoiy ishning maqsadliligi va manzilliligi tamoyillari).

---

<sup>30</sup> Social work and social welfare. P. 28.

### **2.3. Ijtimoiy ish kasbining maqsadi va uslublari**

Ijtimoiy xizmatchi aholining himoyasiz va ijtimoiy yordamga muhtoj muayyan qatlamini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bunday aholi qatlamiga pensionerlar, yolg'iz keksalar, nogironlar, qochoqlar, sharoiti og'ir oilalardan chiqqan bolalar, yetim bolalar, farzandlikka asrab olingan va ota-onaligidan voz kechilgan bolalar, ishga joylashishda qiyinchilikka uchraganlar, ishlab chiqarishda jarohat olganlar va boshqalar kiradi. Ijtimoiy ish kasbi egasining maqsadi o'zi shug'ullanayotgan fuqarolarning moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy ish kasbi egasi aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlashi, maishiy sharoitlarini kuzatishi, maslahat berishi, suhbatlar o'tkazishi, ijtimoiy muammoga aralashuv darajasi va xarakterini aniqlashi, ijtimoiy tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirishi, oziq-ovqat, dori-darmon, kundalik talab etiladigan tovarlar xaridini ishlab chiqishi, zarur hollarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi, imtiyozlarni belgilanishi va qo'llanilishiga erishishi kerak.

Ijtimoiy ish kasbining egasi ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ta'minot markazlarida, ijtimoiy himoya qo'mitalarida, ta'lif muassasalarida, qariyalar va bolalar uylarida, vasiylik va homiylik tashkilotlarida, koloniyalarda, pensiya jamg'armasi filiallarida, ruhiy ko'mak ko'rsatuvchi muassasalarda faoliyat olib borishi mumkin.

Ijtimoiy xizmatchi quyidagi kasbiy ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi:

- ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni, me'yor va nizomlarni bilishi;
- fanlar (psixologiya, tibbiyot, ijtimoiy ish, iqtisodiyot va boshqa fanlar) majmuasini bilishi;
- ijtimoiy-gumanitar sohadagi mavjud muammolar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;

- kasbga yo‘naltirish va ishga joylashtirish masalalarida yordam ko‘rsata olish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- hujjatlar bilan ishlay olishi.

Ijtimoiy xizmatchi yuksak darajadagi insoniylik, rivojlangan ichki hissiyotga ega bo‘lish, boshqaning dardiga hamdard bo‘la olish, har bir yuz bergen muammoli holatga kirishib keta olish, ijtimoiy yordamning zarur turi bilan shug‘ullana olish kabi shaxsiy xislatlarga ega bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy ish kasbining uslublari – ijtimoiy ishni amalga oshiruvchi texnologik, tadqiqot va davolash jarayonlarida foydalilanidigan usullarning yig‘indisidir. Ijtimoiy ishda fanlararo uslublar: kuzatish, intervyu, suhbat, bahs-munozara, ishontirish, rag‘batlantirish, tarbiyalash, xulq-atvor odatlarini shakllantirish kabilardan keng foydalaniadi.

Ijtimoiy xizmatchilar mijozlar yoki mijozlar tizimining funksional vazifalarini amalga oshirishga salbiy ta’sir etuvchi shart-sharoitlarni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.<sup>31</sup>

*Ijtimoiy fanlarning uslublariga quyidagilar kiradi:*

- empirik metodlar (ma’lumot jamlash uslubi);
- kuzatish;
- so‘rov o‘tkazish: anketa, test, intervyu;
- ekspertli baholash uslubi;
- sotsiometriya;
- tashxislash;
- ma’lumotlarni qayta ishslash uslubi;
- biografik va avtobiografik uslub;
- tahlil (qiyosiy tahlil etish);
- nazariy tahlil uslubi;
- tizimli yondashuv.

---

<sup>31</sup> Social work and social welfare. P. 34.

Yuqoridagi uslublar shaxsning rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, turmush shartsharoitlariga moslashishi, bir vaqtning o‘zida shaxsning o‘zini anglashi, faoliyati va xulq-atvoriga qaratilgan hamda ular amaliyotida ma’lum bir moslikda qo‘llaniladi. Ushbu uslublarning samaradorligi aksariyat hollarda ishtimoiy xizmatchining kasbiy pedagogik bilimlari va ko‘nikmalari darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy xizmatchining ishi bevosita alohida shaxslar yoki oilalarga qaratilgan bo‘lsa, u holda bu jarayon individual uslubiga ega bo‘lib, amaliy ish hisoblanadi.

Guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish (ishchi guruh) uslublariga o‘xshash muammolari bo‘lgan yoki bajaradigan vazifalari va natijalari bir xil bo‘lgan oilalar guruhlarida qo‘llaniladi. Masalan, nogiron yoki tarbiyasi og‘ir farzandi bo‘lgan oilalar guruhi, ishsizlar, qochoqlar va boshqalar guruhlarga birikadi.

Jamiyat miqyosida amaliyot olib boruvchi ijtimoiy xizmatchilar umumiylashkilotchilik texnikasi uslublaridan foydalanadilar.<sup>32</sup> Umumjamiyat miqyosida ijtimoiy ish olib borish uslublariga ijtimoiy tashxislash, ijtimoiy prognozlash, mikroiijtimoiy muhitni ijtimoiy rejalashtirish, hududiy o‘z-o‘zini boshqarish tizimini rivojlantirish, jamiyatdagi amaliy faoliyat kabilar kiradi.

## **2.4. Aholining turli guruh va qatlamlari bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari**

Aholining turli guruh va qatlamlari deganda ijtimoiy ta’minotdan foydalanuvchilar, bolalar, o‘smirlar va ularning oilalari, nogironlar, nogiron bolalar, spirtli ichimlik va narkotik moddalarga ruju qo‘yanlar nazarda tutiladi. Ijtimoiy xizmatchi yangi inson qiyofasini yaratishga harakat qiladi. Masalan, oilada farzandni urish holatini olaylik. Tabiiyki, bunda ijtimoiy xizmatchining xatti-harakatini birovning oilaviy hayotiga qo‘pol ravishda aralashuv sifatida qaraladi va turli noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy xizmatchi faqatgina mijozning roziligi bilan faoliyat olib borishi lozim. Lekin amaliyotda

---

<sup>32</sup> Social work and social welfare. P. 34.

shunday holatlar uchraydiki, kishining ijtimoiy xizmatga muhtoj ekanligi yaqqol ko‘rinib turadi. Masalan, aqliy rivojlanishdan ortda qolgan bola suhbat davomida o‘zini noto‘g‘ri tutishi, yetim bola ijtimoiy xizmatchining shaxsiy sumkasidan pulni o‘g‘irlab qo‘yishi, faxriy – pensioner xizmatchini qo‘pol so‘zlar bilan so‘kishi yuz bersa, aholining bu qatlamiga yordam ko‘rsatish shart emasligini anglatmaydi. Ijtimoiy ish kasbi egasini ishontira bilishi, hurmat ko‘rsata olishi, his qila olishi, qo‘llab-quvvatlashi va eng muhimi munosabatlarda samimiy bo‘lishi kerak. Ijtimoiy ish maktabini tashkil etgan Meri Richmond fikriga ko‘ra, ijtimoiy xizmatchi javobgarlik va mas’uliyatni his qilib turishi kerak.<sup>33</sup>

Nazariya va amaliyotda ijtimoiy kasb egasining aholining alohida qatlamlari va guruhlari bilan ishlashidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi umumiy model ishlab chiqilgan. *Ushbu modelga ko‘ra, quyidagi xususiyatlar ajratiladi:*

1. Mijozning o‘zgarishlarga nisbatan ehtiyoji va birlamchi aloqaning o‘rnatalishi. Bunda ijtimoiy xizmatchi yordamga muhtoj kishi o‘z muammosini nimada ekanligini anglab yetmaganligi bilan to‘qnash keladi. Ijtimoiy xizmatchi mijozning e’tiborini nima sababdan u muammoning mavjudligini inkor etayotganiga qaratib suhbat jarayonida taktik ravishda muammoning aynan borligini ko‘rsatib berishi mumkin bo‘ladi. Mijoz ayni haqiqat qarshisida qolishi kerak. Shunda ham mijoz o‘z muammosini anglab yetmasa, ijtimoiy xizmatchi kelajakda yana shu muammoga qaytish imkoniyatini qoldiradi.

2. Muammoni tadqiq etish va tushuntirish. Bu jarayon mijoz yuzaga kelgan vaziyatda chindan ijtimoiy xizmatchi unga yordam bera olishini tushungan vaqtdan boshlanadi.

3. Rag‘batlantirish. Ijtimoiy xizmatchi mijoz bilan birgalikda uning holatini baholab, ijtimoiy tashxis qo‘yadi.

4. Muammoning konseptual asoslash. Bunda ijtimoiy xizmatchi va mijoz maqsadlarni aniq belgilab olishlari, unga erishish uslublari va amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlab olinadi. Ular birgalikda muammoni hal etishning turli

---

<sup>33</sup> Social work and social welfare. P. 30.

variantlari, zarur o‘zgarish va aralashuvlar borasida bir to‘xtamga kelib olishlari kerak.

5. Muammoni hal etish strategiyasini tadqiq etish. Bunda ijtimoiy xizmatchi va mijoz o‘rtasida muammoni hal etishning hamkorlikdagi strategiyasi ishlab chiqiladi. Bir mijozga to‘g‘ri kelgan yechimni boshqasiga shundayligicha qo‘llab bo‘lmaydi. Oxirgi bosqichda strategiya tanlanadi va amalga oshiriladi.

Har qanday ijtimoiy yordam shaxsiy, oilaviy yoki guruhiy maslahat berishni talab etadi. Uning maqsadi malakali maslahat berish, vaziyatning yechimini topish uslublarini ko‘rsatishdan iborat.

XXI asr boshlarida ijtimoiy ish kasbi egalari uchun dunyoning 56 ta mamlakatlaridan 150000 taga yaqin a’zoga ega bo‘lgan Ijtimoiy xizmatchilar milliy assotsiatsiyasi asosiy kasbiy mahorat tashkiloti sifatida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoqda.<sup>34</sup>

## **2.5. Ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlash (bakalavr, magistr, fan doktorlari bosqichlari)**

XX asrda iqtisodiy va texnologik jarayonlarni shiddat bilan o‘zgarishi insoniy munosabatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Juhon amaliyotida ijtimoiy ish ta’limi bo‘yicha uch darajali kadrlar tayyorlash amalga oshirilmoqda. AQShda bakalavriat uchun 450 ta va magistratura uchun 170 ta akkreditatsiya qilingan dasturlar mavjud.<sup>35</sup>

Ijtimoiy ishning kasbiy amaliyoti uchun boshlang‘ich bosqichda bakalavr (BSW) tayyorlanadi. Bu bosqichda tayyorlanayotgan kadrlar ijtimoiy ishning bakalavriatura uchun akkreditatsiya qilingan dasturlari asosida ta’lim oladilar. Bunda ijtimoiy xizmatchi insoniy xulq-atvor, ijtimoiy ta’midot, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy va iqtisodiyadolat, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy ish odobi sohasida tayanch ma’lumotga ega bo‘lib, 400 soat atrofida darslarni o‘zlashtiradilar va

---

<sup>34</sup> Social work and social welfare. P. 30.

<sup>35</sup> Social work and social welfare. P. 36.

namunaviy joylarda amaliyat o‘taydilar. Ular fuqarolik institutlari, mehribonlik va sahovat uylarida, vasiylik va homiylik kengashlarida, maktab, shifoxona, ruhiy sog‘liqni saqlash muassasalarida amaliyat o‘tashlari mumkin.

*Bakalavr darajasidagi ijtimoiy ish amaliy xizmatchilari quyidagilarni bilishi kerak:*

1. Ijtimoiy ishning kasbiy amaliyotida yuzaga keladigan holatlar bo‘yicha tanqidiy fikrlay olish;
2. Ijtimoiy ishning odobi va tamoyillarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
3. Kishilarning ijtimoiy kelib chiqishidan, dinidan, irqidan, jinsidan, yoshidan, oilasining tuzilishidan qat’iy nazar hurmat bilan teng huquqli asosda munosabat bildirishni o‘rganish;
4. Ijtimoiy va iqtisodiyadolat mezonlariga to‘g‘ri keluvchi ijtimoiy o‘zgarishlar va targ‘ibot strategiyasi shakllari, mexanizmini tushunib olish;
5. Ijtimoiy ish kasbining tarixi, tuzilishi va masalalarini anglab yetish;
6. Olingan bilim va ko‘nikmalarni ijtimoiy ishning turli ko‘lamlarida amaliyotda qo‘llay olish;
7. Aholining alohida qatlamlari va guruhlari o‘rtasidagi shakllanayotgan munosabatlarda shaxsiy-insoniy omillarni tushunish uchun o‘tkazilgan empirik tadqiqot ma’lumotlaridan foydalana olish;
8. Ijtimoiy siyosatni tahlil etish, qayta ishlash va unga ta’sir ko‘rsatish;
9. Ijtimoiy ish sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni baholash, ilmiy tadqiqotlarning natijalaridan amaliyotda foydalana olish;
10. Jamiyat a’zolari, hamkasblar va mijozlar o‘rtasida tabaqalashgan ko‘nikmalarni qo‘llash;
11. Ijtimoiy ish amaliyotida mos ravishdagi maslahatlarni berish va kuzatuvlar olib borish;

12. Ijtimoiy ish sohasidagi tashkilotlar va xizmat ko‘rsatish tizimida zarur tashkiliy o‘zgarishlarni amalga oshirish.<sup>36</sup>

Ijtimoiy ish sohasidagi magistrler bakalavr darajasiga nisbatan ko‘proq ixtisoslashgan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim oladilar. O‘quv dasturining tuzilishi va mazmuniga qarab magistrler turli ijtimoiy xizmatlar (masalan, tibbiy-ijtimoiy xizmat, bolalar va oilalar bilan ishslash, pensionerlar bilan ishslash kabi)ni ko‘rsatishga ixtisoslashdilar.

Ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlashning uchinchi darajasi ijtimoiy ish fan doktorlarini (DSs yoki PhD) tayyorlash hisoblanadi. Bunda ular ijtimoiy ishning muayyan sohasi bo‘yicha aniq mavzu ustida ilmiy-tadqiqotlar olib boradilar va tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy etadilar.

## **2.6. Ijtimoiy ish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar**

Ijtimoiy xizmatchilar yordamga muhtoj aholining hojatini chiqarishda yolg‘iz emaslar. Ijtimoiy ish turli xil gumanitar, tabiiy kasblar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular qatoriga psixiatrlar, psixologlar, sotsiologlar, maktab yetakchilari, amaliyot shifokorlari va hamshiralari, ishga joylashtirish bo‘yicha maslahatchilar, advokat-yuristlarni kiritish mumkin.<sup>37</sup>

Psixiatriya tibbiyotning ruhiy va aqliy buzilishlarga ixtisoslashgan sohasi hisoblanadi. Psixiatr shifokorlar ruhiy va aqliy kasalliklarga uchragan bemorlarni davolaydi. Psixologlar esa ko‘pchilik hollarda ijtimoiy xizmatchilar bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Psixiatrlardan farqli o‘laroq psixologlar shifokor ma’lumotiga ega bo‘lmaydi. Sotsiologlar jamiyat hayotini o‘rganishda qatnashib, aholining turli guruhlari o‘rtasida shakllanadigan munosabatlarni tadqiq etadilar. Maktabdagagi yetakchilar ijtimoiy xizmatchilarning asosiy hamkorlari hisoblanadi. Ular maktab yoshidagi bolalar va ularning oilalariga taalluqli bo‘lgan holatlar bilan yaxshi tanish bo‘lib, ijtimoiy xizmatchilarga muammolarni aniqlash va ularni hal

---

<sup>36</sup> Social work and social welfare. P. 37.

<sup>37</sup> Social work and social welfare. P. 40.

etishda samarali ko‘mak bera oladilar. Amaliyot hamshiralari jumladan, tibbiy muassasalarda ruhiy holatlar bo‘yicha faoliyat olib boruvchi ijtimoiy xizmatchilarga ko‘p hollarda hamkor bo‘ladilar. Narkotik moddalarga va spirtli ichimliklarga ruju qo‘ygan ijtimoiy ish mijozlari bilan ishlashda hamshiralar xizmatiga tayaniadi. Jinoiy va fuqarolik holatlari ro‘y berganda ijtimoiy xizmatchilar yuristlar va advokatlar bilan birgalikda ishlaydi.<sup>38</sup> Advokatlar fuqarolarning qonun bilan kafolatlangan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik va jinoiy ishlari bilan shug‘ullanadilar. Ijtimoiy xizmatchilar turli xil shifokorlar, dietologlar, sudlar, pedagoglar va boshqa kasb egalari bilan uzviy aloqada bo‘ladilar.

### **Tayanch atamalar (glossariy)**

**Ijtimoiy muammolar** – insonga va jamiyatga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi va keng jamoatchilik doirasida hal qilinish lozim bo‘lgan muammolar

**Ijtimoiylashuv** – inson tomonidan jamiyatda mukammal hayotga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borish jarayoni

**Madaniy tafovutlar** – an’analar va qadriyatlarning bir-biridan farqlanishi, ayrim aholi qatlamlarida boshqalariga qaraganda kuchliroq yoki aksincha bo‘lishi

**Ijtimoiy ishning asosiy vazifasi** – insonlarning farovonligini oshirish va kishilarning asosiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, bunda e’tibor ijtimoiy adolat mezonlarini ta’minalash, kishilarning ehtiyojlarini to‘laroq qondirilishi, jumladan, ijtimoiy yordamga muhtoj va qashshoqlikda kun kechiruvchilarning imkoniyat va huquqiy erkinliklarini kengaytirishga qaratiladi

**Tashxislash funksiya** – ishtimoiy xizmatchining aholining alohida qatlamlari, darajalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularga mikromuhitning yo‘naltirilganligi hamda “ijtimoiy tashxis” qo‘yishida o‘z ifodasini topadi.

---

<sup>38</sup> Social work and social welfare. P. 42.

**Istiqlolni belgilash funksiyasi** – jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar ijtimoiy ish obyektlariga muayyan ijtimoiy xulq-atvor modelini ishlab chiqishning ta'sirini dasturlash va prognozlash orqali amalga oshadi.

**Huquqni muhofaza qilish funksiyasi** – aholini himoya qilish, yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun va huquqiy normalardan kompleks ravishda foydalanishni ko'zda tutadi.

**Ijtimoiy-pedagogik funksiya** – ijtimoiy xizmatchining kishilar ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularni turli xil tashkilot va birlashmalarda ishlashga jalb qilishi.

**Psiyologik funksiya** – shaxsning ijtimoiy moslashuvida, shaxslararo munosabatlarda maslahatlar berish va to'g'rilashni amalga oshirish.

**Kommunikativ funksiya** – aholining yordamga muhtoj bo'lган qatlami bilan turli xil ijtimoiy institutlar o'rtaida axborot almashinuvini va o'zaro aloqani ta'minlashga qaratilgan.

**Ahloqiy-insoniy funksiya** – ijtimoiy ishga yuqori insoniy maqsadlarga erishish, jamiyatda aholining turli qatlamlari va guruhlarini munosib hayot kechirishini ta'minlash vazifasini yuklaydi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ijtimoiy muammolarni vujudga kelish sabablarini ayting
2. Qanday omillar ta'sirida ijtimoiy muammolar vujudga keladi?
3. Ijtimoiy ishning vazifalari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy ish qanday tamoyillarga tayanadi?
5. Ijtimoiy ish kasbining maqsadi nima?
6. Ijtimoiy ish kasbining qanday uslublarini bilasiz?
7. Aholining turli guruh va qatlamlari bilan ijtimoiy ish olib borishning qanday xususiyatlari mavjud?
8. Ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlash nechta bosqichlarda amalga oshiriladi?

9. Ijtimoiy ishda bakalavr, magistr, fan doktorlari bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

10. Ijtimoiy ish bilan bog‘liq bo‘lgan qanday kasblarni bilasiz?

### **Testlar**

**1. Ijtimoiy muammolarning vujudga kelishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?**

- a) irsiyat va nasl-nasab
- b) ijtimoiylashuv va madaniy tafovutlar
- d) atrof-muhit omillari
- e) barcha javoblar to‘g‘ri

**2. Ijtimoiy muammolarning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi fiziologik omilni ko‘rsating?**

- a) irsiyat va nasl-nasab
- b) ijtimoiylashuv va madaniy tafovutlar
- d) atrof-muhit omillari
- e) barcha javoblar to‘g‘ri

**3. Ijtimoiy ta’mintonning lug‘aviy ma’nosi nimani anglatadi?**

- a) baxt-saodatga erishishni
- b) ijtimoiy farovonlikni
- d) ijtimoiy birdamlikni
- e) ijtimoiy aloqadorlikni

**3. Shaxsning ijtimoiy moslashuvida, shaxslararo munosabatlarda maslahatlar berish ijtimoiy ishning qaysi funksiyasiga taalluqli?**

- a) tashxislash funksiyasi
- b) ogohlantiruvchi-profilaktik funksiya
- d) psixologik funksiya
- e) ijtimoiy-tibbiy funksiya

**4. Xodimlarning ijtimoiy-texnologik layoqatliligi ijtimoiy ish tamoyillarining qaysi guruhiga kiradi?**

- a) ijtimoiy-siyosiy tamoyillar
- b) ruhiy-pedagogik tamoyillar

- d) umumfalsafiy tamoyillar
- e) tashkiliy tamoyillar

**5. Ijtimoiy ish kasbi egasining maqsadi nima?**

- a) fuqarolar turmushining moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash
- b) shaxslarni qayta tarbiyalash
- c) ruhiy va aqliy zo'riqishga uchragan bemorlarni davolash
- d) fuqarolar ishonchiga kirib, o'zlarining g'oyalarini muttasil singdirib borish

**6. Aqliy qobiliyatni sust bo'lgan bola bilan ishlashda ijtimoiy ishning qanday uslublari qo'laniladi?**

- a) kuzatish
- b) so'rov o'tkazish
- c) tahlil
- d) barcha javoblar to'g'ri

**7. Ijtimoiy xizmatchining shaxsiy sumkasidan uning pulini o'g'irlab qo'ygan 10 yosh bolaga qanday chora qo'llash kerak?**

- a) ijtimoiy yordam ko'rsatish
- b) do'q-po'pisa bilan pulni qaytarib olish
- c) ota-onasiga xabar berish
- d) militsiyaga xabar berish

**8. Ijtimoiy ish sohasi uchun kadrlar nechta bosqichda tayyorlanadi?**

- a) 2 ta
- b) 3 ta
- c) 4 ta
- d) 1 ta

**9. Qaysi kasblar ijtimoiy xizmatchiga aloqador emas?**

- a) psixiatr, psixolog
- b) advokat, yurist
- c) yetakchi, hamshira
- d) agronom, quruvchi

---

### **III BOB. IJTIMOIY TA'MINOT TIZIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

#### **3.1. Ijtimoiy ta'minot tizimi konsepsiyalari, omillari va tarkibiy qismlari**

Ushbu mavzuda biz ijtimoiy ta'minot xodimi ijtimoiy muammo deganda nimani tushunishini, jahonda alohida oilalar va shaxslar duch keladigan muammolarni ko'rib chiqamiz.

Sohada va yo'nalishlardagi malakali mutaxassislar, shaxslar o'z hayoti va jahonda sodir bo'layotgan holatlarni turlicha qabul qiladi. Masalan oilada ota-onan va farzand o'rtasida sodir bo'ladigan tortishuvlarni har bir tomon turlicha tushunadilar.

**Dunyoqarash – (largely)** ikki sababga ko'ra ijtimoiy ishlovlar uchun muhim tushuncha hisoblanadi. Ijtimoiy ishlovlar o'z dunyo qarashlari va odamlarga yordam ko'rsatishlari, ularning qarorlari qanday ta'sir etishi haqida va ular boshqalarni dunyo qarashlaridan doimo xabardor bo'lishi kerak. Jamiyat rivojlanishining barcha pog'onalarida jahonda dunyoqarashlar milliy, davlat va mahalliy siyosatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Samarali ijtimoiy ishlovchi bo'lish uchun ular hozirgi siyosat, tizimlarni tushunishi va aholi qatlamiga qanday ta'sir o'tkazishini bilishi kerak. Jo Shriverning fikricha ijtimoiy ishlovchi dunyoqarashini, fikrlash uslublarini tahlil qilish uchun mezon sifatida quyidagi savollarga javob olishni taklif qilgan:

1. Ushbu istiqbol inson qadr-qimmatini saqlash va tiklashga shart-sharoitlar yaratadimi?
2. Ushbu istiqbol afzallikkarni tan oladimi va insonning xilma-xilligini anglatadimi?
3. Bu istiqbol jamiyatni o'zgartirishda bizga shunday yordam berishi kerakki, bizga insonlar ovozlarini, o'z kuchimizni bilish yo'llarini tushunishda yordam beradimi?

4. Ushbu istiqbol har bir shaxsni inson salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun bizga yordam beradimi?

5. Erkak va ayollarni, iqtisodiy boy va kambag‘allar, keksalar va yoshlar, nogiron, vaqtincha mehnatga layoqatli insonlar ishtirok etishlarini ifodalash istiqboli bormi?

Bizning jamiyatda, ko‘plab shaxslar bugungi kunda qashshoqlik va sog‘liqni saqlash kabi muhim ijtimoiy masalalarni bartaraf etish yo‘llarini qaytadan ko‘rib chiqmoqdalar. Ijtimoiy ish kasbi egalari qarashlari jamiyatni rivojlanish jarayonida qanday ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligini tushunishi kerak bo‘ladi.

**Ijtimoiy ta’midot muammolarini tushunish uchun konseptual asoslar.** Ijtimoiy ta’midot muammolarini ma’nosini tushunish uchun unga ta’sir etuvchi omillar, ilmiy nazariyalar va ular tarkibini o‘rganib chiqishimiz zarur. Birinchidan ilmiy nazariyani aniqlab, muhokama qilib, ushbu nazariyalar nima uchun muhim ekanligini tushunib olish kerak. Nazariya-bu aniq va mantiqiy ketma-ketlikdagi g‘oyalar va faktlarni tashkil etishdir. Biz har kuni amaliyotda nazariyadan keng foydalanamiz. Atrof muhit va uning o‘zgartirishda nazariyaning ahamiyati katta hisoblanadi. Agar nazariya amaliyotda keng foydalanilsa u uchta omildan iborat bo‘lishi kerak:

1. Yaxshi nazariya amal qilayotgan bo‘lsa, ushbu voqeani tushunarli tarzda yoki izchil tushuntirib berishi kerak. Voqeа sodir bo‘lganda har safar ushbu holatni aynan bir xil tarzda yanada yaxshiroq tushuntirishi mumkin.

2. Yaxshi nazariya yana umumlashgan bo‘lishi kerak, bir xil vaziyatda bir biriga o‘xshash holat sodir bo‘lganda boshqalarga tushuntirish imkonи bo‘lishi kerak.

3. Yaxshi nazariyani to‘g‘riligini tekshirish imkoniyati bo‘lishi kerak, ya’ni ushbu nazariya aniq va haqiqatda mavjud ekanligini bilish uchun uni o‘lchash yoki qiyosiy taqqoslash imkoniyati bo‘lishi zarur.

Inson xatti-harakatlarini chuqurroq bilish uchun yoki uni atrof-muhitga ta’sirini bilishda biz doimo qiyinchiliklarga duch kelamiz.

Ijtimoiy ishda ko‘p nazariyalar qo‘llanilishi mumkin, chunki ijtimoiy ish ko‘p fanlardan bazaviy bilimlarni bo‘lishini talab etadi. Ular qatorida psixologik, iqtisodiy va siyosiy nazariyalar, psixotahlil va uni kelib chiqishi to‘g‘risidagi Freyd nazariyasi, E.Dyurkgeymaning o‘z joniga qasd qilish haqidagi nazariya va Jan Piajning rivojlanishi bilan bog‘liq nazariyalaridan keng foydalanish mumkin. Ushbu qayd etilgan nazariyalar istiqbolda ijtimoiy ishga tegishli va ijtimoiy ta’midot muammolarini tushunish, muammolarni qay darajada ekanligini aniqlash va aralashuvi miqyosini tushunish mumkin.

Ijtimoiy tizim istiqbolida ijtimoiy ishlovchilar uchun ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlar zarur bo‘ladi. Ko‘pincha ijtimoiy ishlovchilar ota-onasi ajralgan oilalar farzandlariga ruhiy masalahatlar berishi, kam ta’minlangan shaxslarni iqtisodiy mustaqilligini oshirish va ish bilan ta’minalash, aholini bola tarbiyasiga ko‘maklashish, bolalar bilan qo‘pol muomalada bo‘lmagan holda, mijozlar va shaxslarga tegishli konsultatsiyalar berishlari lozim.

Ijtimoiy muammolar va vaziyatlarni hal etishda qaysi nazariya foydali ekanligini aniqlab olish zarur. Ijtimoiy ish vakili Gitterman Meyer fikriga ko‘ra istiqbolli tizim nazariyalarini bilan ekologik qarashlarni alohida nuqtai nazardan tahlil etish zarur.

Tizim nazariyasi istiqboli. Tizim nazariyasi dastlab inson tanasini faoliyatini tushuntirish uchun ishlatilgan, jumladan skelet tizimi, mushak tizimi, endokrin tizim, qon aylanish tizimlarini faoliyatini tushuntirish uchun ishlatilgan. Inson tanasi tizimlar nazariyasi kichik tizimlarni o‘z ichiga olgan yirik tizim sifatida o‘rganilgan. Tibbiyotchilar qadimgi Yunonistonda inson tanasining bir qismi samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun inson tanasi doirasidagi tizimlar funksiyasi ham faoliyat yuritishi kerak, agar tananing biron bir qismi o‘z funksiyasini bajarmasligi inson tanasiga o‘z ta’sirini bevosita o‘tkazadi deb tushunishgan. Ushbu holat tirik organizmlar o‘rasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Tizimlar nazariyasiga ijtimoiy ishda yanada jiddiyroq e’tibor qaratildi. Bugungi kunda dunyo aholisining ko‘payishi, ekologik tizimlar o‘rtasidagi muvozanatni buzilishlari, iqlimning o‘zgarishi insonlarni yanada tashvishga solib qo‘ymoqda.

Tizim nazariyasining birinchi namoyondalarilari Lyudving Von Bertalanffii (1968) tizimni “Birliklar va ular o‘rtasidagi munosabatlar majmui” deb tushungan. Tizim, yaxlit alohida yuridik shaxs, o‘zaro bog‘liq qismlardan iborat shaxs sifatida belgilanishi mumkin. Tizimlar nazariyasida biologiyaning ulushi yetakchi o‘rin egallab uning qismlari yig‘indisidan kattaroqdir. Jumladan organizmdagi mustaqil ishlaydigan kichik tizimlar, tarkibidagi tizimlar birgalikda faoliyat ko‘rsatishi natijasida yaxlit yirik tizimni tashkil etib, kichik tizimlar mustaqil kombinatsiyasidan ham kuchliroq bo‘ladi. Tizim qanchalik katta bo‘lsa, u samarali faoliyat olib borsagina sinergetik natijaga erishishi, agar mayda qismlardan tashkil topgan energiyalarni katta qismga birlashtirib faoliyat olib borishi, alohida faoliyat yuritishdan ko‘ra ko‘proq provard natijani beradi.

Har qanday tizimning muhim jihatni chegara tushunchasi hisoblanadi. Ushbu tizim turlicha bo‘lishi mumkin, lekin har bir tizimning chegaraviy nuqtasi bo‘lib yaxlit tizim bilan tugaydi va ikkinchi tizim boshlanadi.

Ekologik tizim ijtimoiy ishlovchilar va uning mijozlariga oila tizimida oila muhitini yaxshilash uchun kimlar kirishi kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Ayrim tizimlarga tashqaridan tizim ichiga kirish imkoniyati bo‘ladi va ushbu tizimlarni ochiq tizim deb ataladi. Jumladan ayrim oilalar misol bo‘lishi mumkin. Agar bir oila tushlik qilib o‘tirganida eshikdan mehmon kirib kelsa uni ham dasturxonga taklif qilishi mumkin. Ushbu tizimning qarama qarshi holati yopiq tizimlar hisoblanadi. Jumladan, ayrim oilalarda aniq chegaralangan me’yorlar mavjud bo‘ladi. Oil a’zolari qatnashishi mumkin bo‘lgan oilaviy tadbirlar bo‘lishi mumkin, yoki oilada ayol kishi oila boshlig‘isiz hech qayerga borishi mumkin emasligi holati shular jumlasidandir.

Chegara, ochiq va yopiq tizimlar tiziminining tarkibiy omili bo‘ladi. Tizimning qo‘sishimcha xususiyatlarida esa asosiy e’tibor o‘zaro harakat va o‘zaro munosabat hisoblanadi. Iqtisodiy tizimlarning o‘zgarishi boshqa tizimlarni o‘zgarishiga olib keladi.

### **3.2. Ijtimoiy ta'minot tizimi darajalari, vazifalari va amal qilish tamoyillari**

Turli tizimlarda ekologik yondashuvga bag'ishlangan Uri Bronfenbrenner, Jeyms Garbarino, Aleks Gitterman, Allen Pincus va Anne Minahan ilmiy ishlari mavjud. Ularda sinovdan o'tkazilgan yoki o'rganib chiqilgan ilmiy nazariyalar o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Ijtimoiy ishning boshqa namoyondalari Gitterman va Meerning ilmiy ishlarida esa tizim va ekologik istiqbollar ikkiga bo'lib o'rganilgan. Ushbu nazariyotchi olimlarni ishlarida ekologik istiqbol inson va atrof-muhit munosabatlariga qaratilgan bo'lib, uning tuzilishi o'zaro bog'liqlik va bitimlarda namoyon bo'lgan. Uri Bronfenbrenner (1979) va Jeyms Garbarinolarning (1992) fikriga ko'ra ekologik daraja har bir insonga imkoniyat beradi va xavf-xatarga ega bo'ladi. Uri Bronfenbrenner (1979) va Jeyms Garbarino (1992) xavf-xatarlar va imkoniyatlar atrof-muhitning barcha darajalarida uchrashi mumkin deb ta'kidlashgan. Ular ushbu jarayonlarni Rossiyaning matryoshkalariga qiyoslashgan, masalan katta matryoshka ichidan kichikroq matryoshka chiqadi, uning ichidan esa yanada kichikroq matryoshka chiqishiga o'xshatishgan.

*Ular ushbu tizimni quyidagi to'rt darajaga bo'lishgan:*

- birinchi eng kichik daraja mikrotizim – shaxs va shaxslar guruhini kundalik faoliyatini o'z ichiga olgan;
- ikkinchi daraja mezotizim deb nomlanib – inson yoki shaxs mikrotizimining ikkala tizim o'rtasidagi munosabatlarini ichiga oladi;
- uchinchi tizim ekotizim (jamoa) darajasi - shaxsning bevosita hamjamiyat darajasidagi omillarni o'z ichiga olib individual vazifalarga ta'sir ko'rsatmaydi. Jumladan, inson sog'lig'i yomonligi tufayli ta'til olishini tushunish mumkin;
- to'rtinchi daraja bu makro (ijtimoiy) daraja. Bu jamiyatning rivojlanish omillarining madaniy munosabatlari va qadriyatlari yig'indisidan iborat. Jumladan, ular qatoriga ayollarga munosabat, irqiy, diniy, qashshoqlik va kamsitishlarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy ish namoyondalari Garel Germain va Aleks Gitterman (1996) larning fikriga ko‘ra “hayot muammolari” quyidagilarga bo‘linadi va ijtimoiy ish xodimlari aralashuvini taqozo etadi:

- hayot o‘zgarishlari tufayli vujudga keladigan muammolar;
- atrof muhit elementlari faoliyati va ta’siri bilan bog‘liq muammolar;
- oilaning, guruhlarning ehtiyojidan kelib chiqadigan muammolar.

Ekologik asosdan atrof muhitni har bir darajasi va darajalari o‘rtasidagi muammolarni tushunishga yordam berish uchun foydalanishi mumkin. Atrof - muhitni barcha darajalaridagi murakkab masalalarni vujudga kelishini tushunish uchun ekologik bazadan kelajakda foydalanish mumkin.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tabiiy o‘zgarishlar sharoitida Ming yillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy ishning umumiyligi modeli ijtimoiy darajada individual mijozlar, oilalar, guruhlar, jamiyat bilan ishlashda yordam beradi.

*Ijtimoiy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:*

- oila tizimi asosiy shaxsiy gigiena, ota-onasi va farzand o‘rtasida o‘zaro bir-biriga yordam, kattalar bilan keksalar o‘rtasidagi, davlat ijtimoiy maqsadlari va qadriyatlarini taqsimlash;
- iqtisodiy raqobat qiluvchi xo‘jalik subyektlari o‘rtasida resurslarni taqsimlash va tahlil etish;
- ikkilamchi tizimning vazifalari tarkibi shaxsiy tanlovga bog‘liq holda kelib chiqadi.

Oila tizimi yosh bolalarni jismoniy va emotsiyalni extiyojlarini qondirishga asoslanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi iqtisodiy tizim va ijtimoliy muammolar o‘rtasida o‘zaro bog‘langanishga misol bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillarda davlat qonun chiqaruvchilari, deputatlar sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish, soliqlarni oshirish o‘rniga, kam ta’minlanganlar sonini ko‘payishi bilan sog‘liqni saqlash xarajatlarini ortib borayotganidan xavotirga tushmoqdalar.

Hamma insonlarda kuchli va nozik tomonlar mavjud, agar insonni kuchli tomonlarini aytib o‘tilsa inson o‘sib, o‘zgarib boradi, zaif tomoni aytilsa teskarisi sodir bo‘ladi. Kanzas Universiteti ijtimoiy ish professori Dennis Sallibining (2005) “Ijtimoiy ishning kuchli tomonlari amaliyatga” deb nomlangan asarida quyidagi tamoyillarni keltirib o‘tgan:

- mijozlarning kuchli tomonlari – ijtimoiy ish amaliyotida mijozlarning kuchli tomonlarini, qobiliyatlarini, intilishlarini, imkoniyatlarini hurmat qilish lozim;
- mijozlar ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladilar – individual shaxslar va guruhlar odatda ishlatilmagan, jismonan baholanmagan, emotsional, kognitiv, ijtimoiy, ruhiy energiyaga, resurslarga va qobiliyatlarga ega bo‘ladilar;
- kuchli mijozlarni motivatsiyalash – shaxs va guruhlarni mustaqil rivojlanishini o‘z qobiliyatları, bilimlari va malakalari hisobidan moliyalashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi;
- ijtimoiy ish xodimi mijozlar o‘rtasida hakam bo‘ladi - “Ekspert” yoki “professional” mijozning kuchli tomonlarini yetarli darajada baholay ololmaydi yoki fikrini tushuna olmasligi mumkin;
- qurbon bo‘lganlarga yordam berish – “qurbon bo‘lganlarni ayplashni” oldini olish uchun kuchli mijozlar tomonidan yordam berilishi qurbon ta’sirini kamaytiradi;
- har qanday muhit resurslarga ega bo‘ladi – har bir muhitda shaxslar va tashkilotlar tomonidan bir narsa bera olishi mumkin.

Mijoz o‘z hayoti va ehtiyojlari eksperti hisoblanadi, ijtimoiy ishlovchi mijozlar kashf etishi, olishi mumkin bo‘lgan resurslari imkoniyatlarini aniqlashda yordam beradi. Jamiyatda mijozlardagi yangi ko‘nikmalar va resurslarni o‘rganish va ehtiyojlarni qondirish imkoniyati mavjud.

Ijtimoiy ishning maqsadi mijozlarda atrof muhit imkoniyatlaridan keng foydalanib, mijoz oldida turgan to‘siqlarni kamaytirish va imkoniyatlarini oshirishga yordam berish hisoblanadi. Mijozlarning kuchli tomonlari ijtimoiy ishlovchilarni barqaror rivojlanish konsepsiyasini qo‘llab quvvatlaydi, ularga muammoli vaziyatlarga moslashishi va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

### **3.3. Ijtimoiy ta'minot tizimida ijtimoiy-iqtisodiy adolat va ijtimoiy adolatsizlikni namoyon bo'lishi xususiyatlari**

D.S. Mill tomonidan 1861-yilda bayon etilgan g'oyaga asosan barcha resurslar jamiyatda yashayotgan hamma foydalanuvchilar o'rtasida adolat tamoyillariga muvofiq taqsimlanishi kerak, degan fikrni ilgari surdi.<sup>39</sup> Uning asarlarida Yevropada zodagonlarga ish izlab shaharlarga ko'chib kelgan dehqonlarning ehtiyojlarini qondirish yo'naliishlari asoslab berilgan. D.S. Mill qaror qabul qiluvchilarni "umumiylar farovonlik"ni oshirish yo'lida tuziladigan dasturlarni va jamiyatni qurish uchun fuqarolar hamjihatlikda "yaxshi" hissa qo'shishlarini taklif qilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy adolat tushunchasi siyosiy va falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Ushbu tushuncha yahudiy-nasroniy ta'limotiga belgilangan tamoyillar, jumladan, diniy ta'limotlarda o'r ganilgan. Ijtimoiy adolatning maqsadi ishtirok etayotgan jamiyatning barcha guruhlari a'zolari o'zaro ehtiyojlarini qondirish uchun barchalarini psixologik xavfsiz (Adams, Bell, & Griffin, 1997) bo'lishini ta'minlashdan iboratdir. Ijtimoiy adolat jamiyat a'zolarining individual huquqlarini himoyalash va bosqichma-bosqich o'zgarib borishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.<sup>40</sup>

Umuman insonni muomala huquqi, erkin fikrlash va boshqa umumiy tamoyillar asosida iqtisodiy adolatlilik tushunchasi resurslarini adolatli taqsimlash bilan yanada murakkablashadi.

Ijtimoiy adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik odatda ziyon yetkazish va kamsitish mahsulotlari hisoblanadi. Taxminlarga asoslangan mulohaza - bu ijtimoiylashish jarayonida shakllanadigan fikrlash shakli hisoblanadi.

Stereotipler muayyan guruh a'zolarini o'zlarini tutishida o'ziga xos xarakterga ega ekanligini anglatadi. Taxminlarga asoslangan mulohaza guruh a'zolarini psixologik tuzilishini kamsitishga olib kelishi mumkin.

<sup>39</sup> Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth, <http://www.thomsonrights.com>

<sup>40</sup> Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth, <http://www.thomsonrights.com>

**Kamsitish** – bu ziyon yetkazishga undovchi va ziyon yetkazishni qo‘llab-quvvatlaydigan harakat hisoblanadi.<sup>41</sup> Kamsitish o‘z e’tiqodidan kelib chiqib tanlangan shaxslar yoki guruhlarga zarar yetkazadigan harakatlarni o‘z ichiga oladi.

**Institutsional kamsitish** – unda qabul qilingan e’tiqod va xulq natijasida jamiyat tutgan mavqeい va siyosatidan olingan kamsitish hisoblanadi.<sup>42</sup> Institutsional kamsitish, dominant-guruh a’zolarining ijtimoiy amaliyotida qilgan xatti-harakatlari ta’sirida kuchayib ketishi mumkin.

Institutsional kamsitishga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: muayyan geografik joylarda uy-joy qurib yashash huquqining yo‘qligi, uzoq vaqtdan buyon etnik guruhlarni turib qolganligi natijasida aholi bandligi, ta’lim olish, odamlarning irqiga qarab bir xil bajarilgan ish uchun ish haqlarini tabaqlashganligini keltirish mumkin.

Dominant guruhlar tomonidan kichik guruh a’zolarini kamsitilishi xavfli guruhlar hisoblanadi. Ushbu guruh a’zolari o‘z hayotida jiddiy muammolarga duch keladi, sog‘lig‘iga va ruhiyatiga zararli ta’sir ko‘rsatadi, kamroq yashashi mumkin, nafrat yoki boshqa jinoyatlar qurbaniga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy islohotlar: feministik harakat yo‘nalishida. AQSh davlatining tashkil etilganidan buyon, ayollar haq-huquqlarini himoya qilish borasida islohotlar amalga oshirildi. Feministik harakatning birinchi rahbarlari quyidagilar hisoblanadi:

- Nyu-Yorkda (1845) ayollarning mulkiy huquqlarini qonuniy himoya qilish uchun ariza bergen ayol Elizabet Stenton (1815-1902);
- Nyu-Yorkda birinchi bo‘lib ayolni huquqlarini konvensiya qilgan ayol bu Lukretsiya Mott (1793-1880) hisoblanadi;
- 1869-yilda Amerika milliy ayollar saylov huquqi assotsiatsiyasini tashkil etilishiga yordam bergen Syuzan B. Entoni hisoblanadi;

---

<sup>41</sup> Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth, <http://www.thomsonrights.com>

<sup>42</sup> Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth, <http://www.thomsonrights.com>

- Milliy Amerika xotin-qizlar saylov huquqi assotsiatsiyasini tashkil etgan ayol Lyusi Stoun (1818–1893) hisoblanadi va boshqalar.

Insoniyat rivojlanish jarayonida, ayollar ijtimoiy tengsizlik va kamsitishining turli shakllariga duch kelganlar. Hech qanday asossiz doimiy tengsizlik va kamsitish erkaklarning biolik ustunligidan kelib chiqqan.

AQShda ayollarni gender-kamsitish ijtimoiy sohalarga nisbatan mehnat bozori va iqtisodiy sohalarda ko‘proq uchraydi. Erkaklar haligacha, birinchi navbatda uchuvchi, harbiy xizmati va qurilish nazoratchisi bo‘lib o‘z mavqeini ushlab turishibdi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining 1890-yildan 2004-yilgacha bo‘lgan davrda jami ishchi kuchi sonida ayollar ulushi 14,9 %dan 60 %ga o‘sdi. Mehnat bozorida ayollar ishtirokini faollashuvi tufayli ayollar bilan bog‘liq mojarolar va qator masalalar ko‘tarila boshlandi.

Jahonda 876 million katta yoshdagi savodsiz aholi mavjud bo‘lib, uning 75 foizini ayollar tashkil etadi. Ayollarning bandlik darajasi erkaklar bandlik darajasining uchdan ikki qismiga to‘g‘ri keladi. 2005-yilda ayollar jahon mamlakatlari parlamentlarida 15 foiz o‘rinni egallahsgan. O‘ta qashshoqlikda yashayotgan 1,3 milliard kishining 70 foizini ayollar tashkil qiladi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarda o‘g‘il farzandlar qiz farzandlarga nisbatan ko‘proq qadrlanadi. Maktabga qatnamaydigan bolalarning taxminan 60 foizini qizlar tashkil etadi. Ayollar va qizlarning kamsitilishini bartaraf etish masalasi barqaror rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurashishning muhim masalasidir. Ayollar erkaklar bilan teng bo‘lgan mamlakatlar, odatda, boy va farovon bo‘ladi.<sup>43</sup>

2006-yil noyabrda o‘tkazilgan saylovlardan so‘ng, AQSh Kongressi a’zolarining ko‘pchiligi hali ham erkaklar tashkil etadi, lekin ayollarni Vakillik palatasida, Senat va gubernatorlik lovozimlardagi ulushi ko‘payishiga erishildi. AQShning vakillar palatasi a’zolarining 435 dan 70 tasi ayollarni tashkil etdi,

---

<sup>43</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммитининг Мингийиллик ривожланиш максадларига бағишиланган ялпи мажлисидаги нуткини ўрганиш бўйича: Ўқув-услубий мажмуя. Т.: Иктисодиёт, 2010. 55 б.

ushbu ko‘rsatkich 2002-yilga nisbatan 10 taga ko‘paygan, 100 ta senatorlardan 16 tasini ayollar tashkil etdi, 2006-yilda 50 ta gubernatorlar ichida 9 tasi ayol kishilarni tashkil etgan, ushbu ko‘rsatkich 2002-yilga nisbatan 3 taga ortgan.<sup>44</sup>

Ijtimoiy iqtisodiyadolatsizlikni kelib chiqishi aksariyat hollarda insonlarning irqiy va etnik kelib chiqishiga bog‘liq bo‘lmoqda. Insonlarning jismoniy va madaniy xususiyatlari jamiyat a’zolari tomonidan bir xil muomalada bo‘lmasligi va kansitilishiga sabab bo‘ladi. Amerika Qo‘shma shtatlarida eng katta millat rangli odamlar – afro amerikaliklar, lotin amerikaliklar, kelib chiqishi osiyolik amerikaliklar, eronlilar, tub amerikaliklar, v’etnamliklar va boshqalar mavjud.

Rangli odamlar politsiya tomonidan oq tanli odamlarga qaraganda ko‘proq to‘xtatilib, hibsga olinadi va tez-tez ozodlikdan mahrum etilib turiladi.

### **Ishchi ayollar va gender tengligi haqida faktlar:<sup>45</sup>**

- 2004-yilda ish kuchi tarkibida ayollar ulushi 59,2 %ni tashkil etadi.
- 2004-yilda to‘liq stavkada ishlagan ayollarning ulushi 74 %ga etdi.
- etnik jihatdan 2004-yilda ish kuchi tarkibida ishtirok etgan ayollarning ulushi: qora tanlilar 61,5 %; oq tanlilar 58,9 % va lotin amerikaliklar 56,1 %ni tashkil etgan.
  - 2004-yilda etnik kelib chiqishiga qarab erkaklar va ayollar uchun o‘rtacha haftalik ish haqi farqlanadi: Osiyo erkaklari va ayollari boshqa guruhlar a’zolariga nisbatan eng yuqori ish haqi olgan va lotin amerikaliklar esa eng kam ish haqiga ega bo‘lganlar.
  - AQShda ishlovchi oilalar o‘rtasida ish haqining farqlanishi natijasida har yili ular 200 mlrd AQSh dollar yo‘qotadi.
    - o‘rtacha 25 yoshli ishchi ayol ish hayoti davomida teng haq olishda yo‘qotadigan daromad miqdori: 455,000 AQSh dollar.

---

<sup>44</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth, <http://www.thomsonrights.com>

<sup>45</sup> Манба: [www.aflcio.org](http://www.aflcio.org).

- Soatbay ish haqi - oliv ma'lumotli ayol kishi oliv ma'lumotli erkak kishiga nisbatan kam ish haqi oladi: ayollar uchun soatbay ish haqi 21,3 AQSh dollari, erkaklar uchun esa 28,1 AQSh dollari deb belgilangan.

Juda ko‘p odamlar, rangidan qat’iy nazar irqiy profil Amerika Qo‘shma Shtatlarida bir insonni hibsga olishda keng namoyon bo‘lgan. 2001-yilda Gallup tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra irqiy profil keng tarqalgan deb oq tanlilarni 55 % va qora tanlilarni 83 % ovoz bergenlar. 2001-yilda AQSh Kongressi huquq-tartibot organlari tomonidan irqiy kamsitishni bartaraf etishga qaratilgan. “Irqiy profilni tugatish” to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Ushbu qonun irqi, dini yoki milliy kelib chiqishidan qat’iy nazar kamsitishni ta’qiqlaydi.

### **3.4. Ijtimoiy ish va fuqarolar huquqlarini ta’milanishi**

Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlarining o‘ziga xosligi teng huquqli va to‘liq ayollar kamsitilishini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy harakatlar kambag‘al va rangli xalqlar vakillarini - professional ijtimoiy ish amaliyoti va ijtimoiy ish ta’limi bilan qamrab olindi. Ijtimoiy ish amaliyoti xodimlari muammolarni hal qilishda o‘z mijozlarining irqiy va madaniy kelib chiqishi bilan tanish bo‘lishi, ularni muammolarini muvaffaqiyatli hal etishiga ko‘maklashadi.

Ijtimoiy harakatlar tufayli ijtimoiy ish xodimlari yuqori xavf-xatarda bo‘lgan guruh a’zolariga nisbatan jamiyat a’zolarini munosabatlarini o‘zgartirishga, siyosat va amaliyotni o‘zgartirishga harakat qilishadi.

Demokratik jarayonlarni rivojlantirishda ijtimoiy ish xodimlari yuqori xatardagi guruh boshliqlari bilan hamkorlikda ish olib borish orqali jamiyatdagi tengsizlikka qarshi kurashni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilishadi.

Ijtimoiy ish xodimlari jamiyatda ijtimoiy iqtisodiyadolatsizliklarni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash yo‘lida amalga oshiriladiga chora-tadbirlarga mas’ul hisoblanadilar.

Ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiyadolatlilik konsepsiyasiga oddiy holat sifatida emas, balki yanada kengroq va e’tiborliroq qarashlari lozim bo‘ladi.

Jamiyatda ijtimoiy adolatlilikka erishildi deganda insonlarni jismoniy imkoniyati, jinsi, millatga mansubligi, yoshi, aqliy imkoniyatlardan qat'iy nazar ular jamiyatdagi mavjud imkoniyatlar va holatlardan teng foydalana olish huquqi mavjudligi tushuniladi.

### **Tayanch atamalar (glossariy)**

**Dunyoqarash** – dunyoqarash ijtimoiy ishlovlar uchun muhim tushuncha hisoblanadi. Ijtimoiy ishlovlar o‘z dunyo qarashlarini va odamlarga yordam ko‘rsatishlari, ularning qarorlari qanday ta’sir etishi va ular boshqalarni dunyo qarashlaridan xabardor bo‘lishi kerak. Jamiyat rivojlanishining barcha pog‘onalarida jahonda dunyoqarashlar milliy, davlat va mahalliy siyosatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

**Nazariya** – bu aniq va mantiqiy ketma-ketlikdagi g‘oyalar va faktlardan iborat.

**Taxminlarga asoslangan mulohaza** – bu ijtimoiylashish jarayonida shakllanadigan fikrlash shakli hisoblanadi. Taxminlarga asoslangan mulohaza guruh a’zolarini psixologik tuzilishini kamsitishga olib kelishi mumkin.

**Stereotiplar** – muayyan guruh a’zolarini o‘zlarini tutishida o‘ziga xos xarakterga ega ekanligini anglatadi.

**Kamsitish** – bu ziyon yetkazishga undovchi va ziyon yetkazishni qo‘llab-quvvatlaydigan harakat hisoblanadi. Kamsitish o‘z e’tiqodidan kelib chiqib tanlangan shaxslar yoki guruhlarga zarar yetkazadigan harakatlarni o‘z ichiga oladi.

**Institutsional kamsitish** – bu shunday kamsitishki unda qabul qilingan e’tiqod va xulq natijasida jamiyatda tutgan mavqeい va siyosatidan olingan kamsitish hisoblanadi. Institutsional kamsitish, dominant-guruh a’zolarining ijtimoiy amaliyotida qilgan xatti-harakatlari ta’sirida kuchayib ketishi mumkin.

**Ijtimoiy davlat** – davlatning konstitutsiyaviy – huquqiy maqomiga ko‘ra, ijtimoiy davlat inson va fuqaroning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari, davlatning tegishli majburiyatlarini Konstitutsiyaviy yo‘l bilan kafolatlaydi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Ijtimoiy ta'minot tizimining nazariy konsepsiyanini ta'riflab bering?
2. Ijtimoiy ta'minot tizimi omillari va tarkibiy qismlari nimalardan iborat bo'ladi?
  3. Ijtimoiy ta'minot tizimi darajalari mohiyatini yoritib bering?
  4. Ijtimoiy ta'minot tizimi vazifalari nimalardan iborat?
  5. Ijtimoiy ta'minot tizimi amal qilish tamoyillarini tushuntirib bering?
  6. Ijtimoiy ta'minot tizimida ijtimoiy-iqtisodiy adolat mohiyatini tushuntirib bering?
7. Ijtimoiy ta'minot tizimida ijtimoiy adolatsizlikni namoyon bo'lishi xususiyatlari (ayollar, kamsitish, femenistik harakat, irqiy kamsitish) nimalardan iborat bo'ladi?
8. Irqiy kamsitishga misollar keltirib bering?
9. AQShda femenistik harakat namoyondalarini sanab bering?
10. Ijtimoiy ish va fuqarolar huquqlarini ta'minlanishi mohiyatini tushuntirib bering.

## **Testlar**

- 1. U. Bronfenbrenner va J.Garbarino ijtimoiy ta'minot tizimini nechta darajaga bo'lishgan?**
  - a) 3
  - b) 4
  - c) 5
  - d) 6
- 2. Ijtimoiy ta'minotning birinchi darjasи mikro tizim – ...**
  - a) inson yoki shaxs mikrotizimi ikkala tizim o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi
  - b) shaxs va shaxslar guruhini har kunlik faoliyatini o'z ichiga olgan
  - c) shaxsning bevosita hamjamiyat darajasidagi omillarini o'z ichiga olib individual vazifalarga ta'sir ko'rsatmaydi

e) jamiyatning rivojlanishi omillari va jamiyatning madaniy munosabatlari va qadriyatlari yig‘indisidan iborat

**3. Ijtimoiy ta’mnotinning ikkinchi darjasи mezo tizim – ...**

a) shaxsning hamjamiyat darajasidagi omillarini o‘z ichiga olib individual vazifalarga ta’sir ko‘rsatmaydi

b) jamiyatning rivojlanishi omillari, madaniy munosabatlari va qadriyatlari yig‘indisidan iborat

d) inson yoki shaxs mikrotizimining ikkala tizim o‘rtasidagi munosabatlarini ichiga oladi

e) shaxs va shaxslar guruhini kundalik faoliyatini o‘z ichiga oladi

**4. Ijtimoiy ta’mnotinning uchinchi darjasи eko tizim – ...**

a) jamiyatning rivojlanishi omillari, madaniy munosabatlari va qadriyatlari yig‘indisidan iborat

b) inson yoki shaxs mikrotizimi ikkala tizim o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi

d) shaxs va shaxslar guruhini kundalik faoliyatini o‘z ichiga olgan

e) shaxsning bevosita hamjamiyat darajasidagi omillarini o‘z ichiga olib individual vazifalarga ta’sir ko‘rsatmaydi

**5. Ijtimoiy ta’mnotinning to‘rtinchi darjasи makro tizim – ...**

a) jamiyatning rivojlanishi omillari, madaniy munosabatlari va qadriyatlari yig‘indisidan iborat

b) inson yoki shaxs mikrotizimining ikkala tizim o‘rtasidagi munosabatlarini ichiga oladi

d) shaxs va shaxslar guruhini kundalik faoliyatini o‘z ichiga oladi

e) shaxsning bevosita hamjamiyat darajasidagi omillarni o‘z ichiga olib individual vazifalarga ta’sir ko‘rsatmaydi

**6. Insonga ziyon yetkazishga undovchi va qo‘llab-quvvatlovchi harakat – bu...**

a) kamsitish

b) zo‘ravonlik qilish

d) haqorat qilish

e) talon-taraj qilish

**7. Qabul qilingan e'tiqod va xulq-atvor doirasida insonning jamiyatda tutgan mavqeini kamsitish – bu ...**

a) Institutsional kamsitish

b) Ijtimoiy kamsitish

d) Ma'naviy kamsitish

e) Psixologik kamsitish

**8. Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari tengligiga erishishga qaratilgan harakat – bu ...**

a) feminizm

b) shovinizm

c) fabianizm

d) fetishizm

**9. Insonlarning jismoniy imkoniyati, jinsi, millatga mansubligi, yoshi, aqlilik imkoniyatlaridan qat'iy nazar ularda jamiyat imkoniyatlari va holatlaridan teng foydalana olish huquqining mavjudligi ...**

a) jamiyatda ijtimoiy adolatlilikka erishilganligini anglatadi

b) barcha fuqorolar teng huquqli ekanligini ifodalaydi

c) ijtimoiy siyosatning samarali olib borilganligini ko'rsatadi

d) mamlakatda qonun ustuvorligi o'rnatilganligidan dalolat beradi

**10. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi doimiy gender tengsizligining vujudga kelishiga nima sabab bo'lgan?**

a) milliy an'analar

b) diniy qadriyatlar

c) biologik ustunlik

d) aqliy ustunlik

---

---

## **IV BOB. AYRIM SHAXSLAR, OILALAR, GURUHLAR VA TASHKILOTLAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH AMALIYOTI**

### **4.1. Ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari va uslublari**

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, globalizatsiya kabi jarayonlar, o‘zgaruvchanlik va noaniqlilik xususiyati biz yashayotgan dunyo uchun xos bo‘lib qoldi. Iste’mol bozorida yangi tovarlar ishlab chiqarishning o‘ziga xos yo‘nalishlari aniqlanayotgan davrda, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talablar qatorida yangi bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan talab jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Insonlar jamiyatning asosi hisoblanadi. Jamiyat a’zolari farovonligini ta’minlash bevosita oila ehtiyojlarini qondirish orqali amalga oshiriladi. 1960-yilga kelib esa jamiyatdagi turli ijtimoiy o‘zgarishlarning vujudga kelishi va globalizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida insonlarning oila oldidagi majburiyatlari qisqara boshladi va insonlar o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini yuqori o‘ringa qo‘ya boshladilar. Oilalar hayotida ajrimlarning vujudga kelishi jamiyat hayotida odatiy holga aylandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan bunday salbiy o‘zgarishlar insonlar hayotida ijtimoiy muammolarni vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu holatlar jamiyat hayotida ijtimoiy jarayonlarni boshqarishni taqozo etmoqda.

Ijtimoiy boshqarish – jamiyatning muayyan sifat jihatlarini tartibga solish va rivojlantirish uchun unga muayyan maqsadda ta’sir etish hisoblanadi. Jamiyatning tizimli tabiatni, mehnatning ijtimoiy xususiyati, hayot faoliyatida kishilarning muloqotda bo‘lish zarurati, moddiy va ma’naviy faoliyati mahsulotlarini ayirboshlash jarayoni bilan bog‘liqdir. *Boshqarishning uch kichik tizimi farqlanadi:*

- jamiyat tuzilishini belgilovchi muayyan tizimda aloqalar va munosabatlarni tashkil qilish (jamiyat uchun mehnatni taqsimlash turi, kichik guruhrar uchun shaxslararo munosabatlar, shaxs uchun qadriyatlarga yo‘naltirish tizimlari);
- muayyan tizim faoliyatining belgilangan tartibini saqlash (ijtimoiy nazorat vazifasi, me’yorlar, ijtimoiy namunalar, sanksiyalar uning funksional unsurlari hisoblanadi);
- muayyan maqsadga erishish dasturini amalga oshirish.<sup>46</sup>

Ijtimoiy boshqaruvning universal yo‘naltirilgan va diffuziyali turlari farqlanadi. Murakkab ijtimoiy tizimda yo‘naltirilgan boshqarish ierarxiya asosida tashkillashtiriladi. Bunga sabab faqat boshqarishning yo‘naltirilgan jarayonigina “buyruq”ni yetkazishni ta’minlaydi, shu bilan bir vaqtda diffuziyali va universal kanallar boshqarishning simatik vositalari translatsiyasi uchun xizmat qiladi. Sanoatlashgan jamiyatda ijtimoiy boshqarishning “ko‘p qavatli” tizimi yuzaga kelgan va u quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

- an’anaviy shaxsiy munosabatlar (oila);
- kasbiy va madaniy guruhrar;
- korxona doirasida “menejerlik” amaliy-samarali munosabatlar;
- “bozorga oid” tartibga soluvchi boshqarish tizimi;
- jamiyat miqqosida qaror qabul qilish;
- mafkuraviy munosabatlar, ularga ta’sir etish, targ‘ibot va ommaviy kommunikatsiya tizimi orqali amalga oshiriladi.<sup>47</sup>

Jamiyat hayotida ijtimoiy boshqarishni amalga oshirishda ijtimoiy xodim faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy boshqaruvni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy xodim davlat bilan shaxs o‘rtasidagi vositachi hisoblanadi. U o‘z fuqarolarini himoya qilishga da’vat etilgan, davlat bilan fuqaro o‘rtasidagi barcha ijtimoiy vazifalarni amalga oshirilishida vositachi funksiyasini o‘taydi. Ijtimoiy xodim har bir shaxsni o‘zini-o‘zi himoya qilishi uchun unga huquqiy, psixologik, tibbiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yaratishga ko‘maklashadi.

---

<sup>46</sup> Social work and social welfare. P. 120-164.

<sup>47</sup> Social work and social welfare. P. 120-164.

Umuman olganda ijtimoiy xodimning faoliyatidan kutilgan natija jamiyat a'zolari hayotida ijtimoiy deprivatsiyaning<sup>48</sup> vujudga kelishini oldini olishdan iborat hisoblanadi. Ijtimoiy deprivatsiya – insonning o'z orzulari va haqiqiy (real) holati o'rtasidagi uzilishni sezishi, his etishi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy deprivatsiya ijtimoiy aloqalar bo'yicha ochlik, ijtimoiy yetishmovchilik holati deb tavsiflanadi va unga g'ayriodatiy yoki salbiy ruhiy kechinmalar xos bo'ladi. Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy deprivatsiyaga oid tadqiqotlar ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan aholi guruhi, axloqan buzilgan shaxslar, maxbuslar va shu kabilarni turmush tarzini tahlil qilish bilan bog'langan hisoblanadi.

Insonda ijtimoiy deprivatsiya vujudga kelgan sharoitda mehnat qobiliyati va ruhiy salomatlikni saqlash uchun mehnat va dam olishni oqilona tashkil etish, xayrli ijtimoiy maxsus tadbirlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda insonga xos turmush sharoitlarini yaratish zarur. Boshqacha qilib aytganda, insonning o'z mehnatiga yarasha iqtisodiy va ijtimoiy taqdirlanishi, mehnat va ijtimoiy munosabatlarning buzilmasligi talab etiladi.

Jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, ularni boshqarish, ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni o'zgarib borishi jarayonida ijtimoiy ishlarning vujudga keladi. Ijtimoiy ishlar xodimlarning kasbiy malakasini talab etmaydi va ijtimoiy foydali hisoblanadi.

Ijtimoiy ishning maqsadi – kasbiy faoliyat, kishilarga, ijtimoiy guruhlarga, shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoyalash, to'g'rakash va qayta moslashtirishga ko'maklashish hisoblanadi. Ijtimoiy ish atamasi bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning samaradorligini ortishi aholini ijtimoiy qatlamlarining yuzaga kelishi bilan birga sodir bo'ladi. Agar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i tuzilmagan bo'lsa, unda ijtimoiy sohadagi muammolar keskinlashadi, ijtimoiy beqarorlik vujudga keladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'nlab yillar mobaynida kishilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

---

<sup>48</sup> Deprivatsiya – lotincha so'zdan olingan bo'lib, yo'qotish, mahrum bo'lish degan ma'noni anglatadi.

institutlari tashkil etilgan va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ijtimoiy xodim kasbi keng tarqalgan kasblardan sanaladi, ijtimoiy tuzilmalar esa davlat va xususiy sektorda faoliyat yuritmoqda. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha ijtimoiy ish ikki bosqichli bo'lishi mumkin: turar joyi bo'yicha ijtimoiy riskni oldini olish va ixtisoslashtirilgan ijtimoiy yordam: oilaga xizmat ko'rsatish, aholi bandligi xizmati va boshqalar.<sup>49</sup>

Ijtimoiy ishning serqirraligini ijtimoiy xodim, ijtimoiy boshqaruvchi, tashkilotchi, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy tibbiy xodim, psixolog, huquqshunos, sotsiologlar faoliyatida ko'rish mumkin. *Quyidagilar ijtimoiy xodim faoliyatining obyektlari hisoblanadi:*<sup>50</sup>

- muayyan inson;
- oila;
- mahalla;
- ishlab chiqarish jamoasi;
- ixtisoslashtirilgan xizmat;
- kasaba uyushmalari;
- jamoatchilik va xayriya tashkilotlari;
- ta'lif, sog'liqni saqlash sohalari;
- harbiy xizmat (armiya);
- huquq-tartibotni saqlash muassasalari.

*Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy ishlarga quyidagi yondashuvlar mavjud:*<sup>51</sup>

- individual psixoterapiya;
- tashxisiy yondashuv;
- funksional yondashuv;
- ijtimoiy psixologik yondashuv.

Individual psixoterapiya XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Amerikadagi yirik tashkilotlar olib borgan ilk ijtimoiy ishlar yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu

---

<sup>49</sup> Social work and social welfare. P. 150-169.

<sup>50</sup> Social work and social welfare. P. 150-169.

<sup>51</sup> Social work and social welfare. P. 120-169.

yo‘nalishning rivoji Meri Richmond, Gordon Gamilton, Helen Xarris Perlmen, Florens Xollis kabi iqtisodchi olimlarning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda har qanday muayyan holatda baholashni o‘tkaza olish, ijtimoiy tashxis qo‘yish va unga ko‘rsatiladigan yordam usulini tanlash layoqatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda bilvosita va bevosita ijtimoiy tashxis mijozning shaxs sifatida va uning ijtimoiy mavqeini baholashni nazarda tutadi.<sup>52</sup>

Ijtimoiy tashxis usullari davolash usullari hisoblanadi. Bilvosita usulning mohiyati uning muhitga ta’sirida namoyon bo‘ladi. Bunda ijtimoiy muhit o‘zgartirilishi, mijozning turmush vaziyatiga unga maqbul bo‘lgan yo‘nalishda ta’sir etish mumkin bo‘ladi. Bevosita usul esa, M. Richmondning fikriga ko‘ra, “Aqlning aqlga” ta’siridan iborat.<sup>53</sup> Bunday usulda tavsiyalar, ko‘ndirishlar, maslahatlar, samarali suhbatlar yordamida mijozning bir qarorga kelishi va qaror qabul qilishiga olib kelinadi. Bunday ta’sir ko‘rsatish uchun ijtimoiy xodim va uning mijoji o‘rtasida o‘zaro qat’iy ishonchni o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Tashxisiy yondashuv – individual psixoterapiyadagi yo‘nalish bo‘lib, Chikago universiteti huzuridagi Smit kolleji ijtimoiy ishlar xizmatini boshqarish mактабида ishlab chiqilgan. Ushbu maktab uchun aniq tashxis belgilash va keyin davolash xosdir. Tabaqalashtirilgan davolash uchun mijoz va uning tushib qolgan vaziyati to‘g‘risida iloji boricha ko‘p obyektiv ma’lumotlarni yig‘ish talab etiladi. Tashxis maktabini shakllanishida psixotahlilchi olim Freydning xizmatlari katta bo‘ldi. Jumladan, uning ruhiy deatamaizm nazariyasi, ruhiy apparatdagi ongsiz jarayonlar va ilk bolalikdagi kechinmalarning ahamiyati katta bo‘ldi.<sup>54</sup> Tashxisiy yondashuvda vaziyatni baholashdan ko‘ra mijoz shaxsini baholash ko‘proq muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xodimlar va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlar natijasida avtoritar munosabatlar tizimi vujudga keladi. Bunda ijtimoiy xodim

---

<sup>52</sup> Social work and social welfare. P. 120-169.

<sup>53</sup> Social work and social welfare. P. 120-169.

<sup>54</sup> Social work and social welfare. P. 120-150.

tashqi ekspert vazifasini o‘taydi, mijozni davolaydi, mijoz shaxs sifatida gavdalanadi va atrof-muhitga moslashuvi o‘zgaradi.

Funksional yondashuv ijtimoiy ishlarning Pensilvaniya maktabi tomonidan individual psixoterapiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Ushbu maktab Otto Rank g‘oyasi asosida shakllantirilgan. U terapevtning mijozga munosabati davolash jarayonidagi muhim jihat deb hisoblaydi. Funksional maktab Rankning mijozdagi o‘zgarishni aniqlash va uning yordamini qabul qilishga layoqati, boshlang‘ich jarayonlar va davolash mobaynidagi funksiyalarning taqsimlanishi haqidagi takliflari asos qilib olindi. Funksional maktab o‘z individual psixoterapiyasi uslubiyotini yordam apparatining atrofida o‘rnatdi. Ijtimoiy ishni qanday tashkil qilinishi, yordam taklif etish va qabul qilish muammolari doirasida belgilanadi. Ijtimoiy xodimning vazifasi esa mijoz uchun ijtimoiy yordamni taklif etishdan iborat bo‘ldi. Keyinchalik funksional maktab gumanistik psixologiya yo‘nalishi vakillari Maslounning shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish va Karen Xornining tavsiyalariga tayana boshladi. Keyingi mutaxassis inson dilida hamisha ijobiy narsaga intiladi, doimiy o‘sish va rivojlanishda bo‘ladi deb ta’kidlaydi.

Ijtimoiy psixologik yondashuv G. Gamiltonning asarlarida rivojlantirildi. U tomonidan ijtimoiy fan aylanmasiga “vaziyatdagi shaxs” tushunchasi kiritildi. Uning fikricha vaziyatdagi shaxs uch obrazni anglatadi: shaxs, vaziyat, shaxs va vaziyat o‘rtasidagi interaksiya hisoblanadi. Ushbu obrazni o‘rganish va tushunish ijtimoiy-psixologik yondashish mazmunini tashkil etadi. *D. Xollis (1964 y.) ijtimoiy-psixologik ishlarni amalga oshirishning quyidagi tamoyillarini ishlab chiqadi:*<sup>55</sup>

- ijtimoiy hodim o‘z mijozini qiziqtirib, hurmat ko‘rsatib, qanday bo‘lsa shunday qabul qilishi lozim;
- mijozning ehtiyoji diqqat-e’tibor markazida bo‘lishi kerak;
- mijozni tushunish ilmiy asoslangan va obyektiv bo‘lishi lozim;

---

<sup>55</sup> Social work and social welfare. P. 140-164.

- ijtimoiy xodim o‘z qarorini qabul qilishda mijozning huquqlarini hurmat qilishi kerak;
- mijoz o‘ziga-o‘zi va boshqalarga zarar yetkazmasligi uchun ijtimoiy xodim mas’uliyatini zimmasiga olishga majbur bo‘ladigan vaziyatlarni shakllantiradi.

## **4.2. Aholini ayrim qatlamlari, oila, guruhlar bilan ishlash tamoyillari**

Ijtimoiy ishlar bo‘yicha mutaxassis keksalar va mehnatga yaroqsiz fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha alohida bilim va malakalarga ega bo‘lishi kerak. Xizmat ko‘rsatish hududida yashovchi, ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj yolg‘iz qariyalar va mehnatga yaroqsiz kishilarni aniqlash ijtimoiy ishlar bo‘yicha mutaxassisning vazifasiga kiradi. Aholini ijtimoiy himoya qilishning statsionar va nostatsionar muassasalariga xizmat ko‘rsatish uchun hujjatlarni qabul qilishga, rasmiylashtirishda yordam beradi. Shifoxonaga yotqizishga yordam beradi, pensioner, mehnat faxriysi ilgari ishlagan tashkilot bilan, jamoatchilik tashkilotlari, xayriya jamg‘armalari bilan qariyalarga yordam ko‘rsatish maqsadida aloqa qiladi. Ijtimoiy masalalar bo‘yicha zarur maslahatlar beradi, mijozlarga har taraflama ko‘maklashadi. Muammoli oilalar bilan ish olib boradi. Shaxs psixologiyasi asoslari sohasida bilimlarga ega bo‘lishi va pensioner, nogironlarga yordam ko‘rsatishning ijtimoiy-psixologik jihatlarining, fuqarolik va nafaqa, homiylik, murabbiylik, imtiyozlar va afzalliklarning nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun belgilangan tizimini, uy sharoitida nogironlar va keksa fuqarolarni parvarishlashni bilishi lozim.

*Ijtimoiy ish xizmati mavjud mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar ixtiyoridagi vositalar quyidagilardan iborat bo‘ladi:*<sup>56</sup>

- pullik yordam tizimi, bu mehnatga qobiliyatsiz kishilar, muhojirlar va qochoqlarga doimiy, vaqtinchalik, bir yo‘la va maqsadli moddiy yordamni o‘z ichiga oladi;
- natura shaklidagi yordam tizimi;

---

<sup>56</sup> Social work and social welfare. P. 140-164.

- ijtimoiy xizmat, jumladan, tibbiy xizmat shaklidagi yordam tizimi;
- ijtimoiy muassasalarini tashkillashtirish;
- psixologik maslahatlar va mashqlar;
- o‘qitish va qayta tayyorlash kurslari (asosan muhojirlar uchun).

Yuqorida keltirilgan mexanizmlardan samarali foydalanish tegishli tashkiliy tuzilma bo‘lishini taqozo etadi. *Ijtimoiy ishlar xizmatini loyihalashtirish jarayonida quyidagi modellardan foydalanish mumkin:*

- bevosita ijtimoiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi xizmat bo‘linmalari: “ijtimoiy homiylar” lavozim jadvali, ruhiy yordam xizmati xodimi, ishga joylashtirish bo‘yicha xodim va boshqalar;
- ijtimoiy yordamga muhtojlar haqida ma’lumot to‘plash xizmati va mazkur turdagи yordam samarasini baholash;
- umumiylar qarorlar qabul qilish, mutaxassislar moddiy resurslarini taqsimlash va shu turdagи vazifalarni bajaruvchi boshqaruv xizmati. Ijtimoiy yordam dasturi ijtimoiy ishlar tashkiliy vositalarining muhim unsuri hisoblanadi. Unda ijtimoiy ishlar obyekti, uning turli bosqichlardagi vazifasi, faoliyat vositalari va tarkibi belgilanadi. Dastur yo‘nalish (obyektlari va vazifalari batafsil belgilanishi), samaralilik, jihozlanganlik (masalani yechish vositasining sinfi ko‘rsatiladi), texnologik tashkillashtirilganlik (xizmat tuzilmalarini ko‘rsatish) va vakolatlilik (qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish tarixining mavjudligi) talablariga muvofiq bo‘lishi.

*Ijtimoiy ishlarning tamoyillari konstitutsiyalovchi, tartibga soluvchi va uyg‘unlashtiruvchi kabi vazifalarni bajaradi va ularga quyidagilar kiradi:*<sup>57</sup>

- insonparvarlik tamoyili;
- adolatlilik tamoyili (inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish);
- vakolatlilik tamoyili (ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotini chuqr bilish);

---

<sup>57</sup> Social work and social welfare. P. 120-164.

- altruizm tamoyili (o‘zganing manfaatini o‘zining manfaatidan yuqori deb bilish);
- shaxsiy yondashish tamoyili (har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini ko‘ra olish layoqati);
- mujassamlilik tamoyili;
- vositachilik tamoyili;
- jalb etishlik tamoyili;
- ishonch tamoyili.

Ijtimoiy ishlarning integral tavsifiga ko‘ra, unda iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma’muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik kabi usullardan foydalaniladi.

Ijtimoiy ish mutaxassisni ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida ijtimoiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanadi. Amaliyatda ijtimoiy ko‘rsatkichlarni asoslash va tanlashda turli xil ma’lumotlardan foydalaniladi. Ular tarkibida yetakchi hisoblangan statistik ma’lumotlar inobatga olinadi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida aksariyat ijtimoiy ko‘rsatkichlarni qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Ularni tanlash va tatbiq etish so‘nggi natijalarni baholash zarurati, ijtimoiy adolat haqida kishilar tasavvurini shakllantirish, ijtimoiy yordamni takomillashtirish va aholi ijtimoiy himoyasini mustahkamlash bilan bog‘liq. Ijtimoiy ko‘rsatkichlarni tanlash va uni asoslash ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy mezonlar, mo‘ljallarni tanlash va asoslash bilan bog‘liq hisoblanadi.

*Ijtimoiy ko‘rsatkichlar tizimi ijtimoiy axborotni uzatuvchi qism hisoblanadi.*  
*Ijtimoiy ko‘rsatkichlarning quyidagi turlari farqlanadi:*

- belgi (ramziy vosita);
- kuzatish va o‘lchash vositasi;
- ijtimoiy hodisalar va jarayonlar.<sup>58</sup>

---

<sup>58</sup> Social work and social welfare. P. 120-164.

### **4.3. Davlat tashkilotlari va jamoatchilik bilan ishlash nazariyasi, jarayoni va uslublari**

Jamiyat va aholi turli ijtimoiy guruhlarining demografik, iqtisodiy, ijtimoiytuzilmaviy, siyosiy, ahloqiy, ijtimoiy-madaniy, ma’naviy rivoji va turmush tarzidan iborat tizim ijtimoiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. *Ma’lum bir mamlakatda ijtimoiy hodisaning rivojlanish darajasini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:*

- ◆ umummamlakat – butun mamlakatga nisbatan tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
- ◆ me’yoriy – u bilan qiyosiy taqqoslab ilmiy asoslangan talablarga moslik belgilanadi.

Ijtimoiy xizmatlar – mijozga amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan yordamni ko‘rsatish bo‘yicha xatti-harakatni ifodalaydi. Turli mulkchilik shaklidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar, muassasalar, yuridik shaxs statusiga ega bo‘lmasdan aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar ijtimoiy xizmatlar bozorida faol qatnashadilar. Ayrim mamlakatlarda fuqarolarga alohida yuridik shaxs tashkil etmay ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun maxsus litsenziyalar beriladi va ular o‘z faoliyatini litsenziyaga ega bo‘lgan taqdirdagina amalga oshira oladi.

Ijtimoiy xizmatlar fuqarolarning qarovchisi, homysi, boshqa qonuniy vakilining davlat hokimiyyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari, jamoatchilik tashkilotlariga murojaati asosida amalga oshiriladi. *Ijtimoiy xizmatlarning tamoyillari quyidagilardan iborat:*<sup>59</sup>

- manzillilik;
- mumkinlilik;
- ixtiyoriylik;
- insonparvarlik;

---

<sup>59</sup> Social work and social welfare. P. 120-164.

- og‘ir hayotiy vaziyatda qolgan balog‘atga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ustuvorligi;
- oshkora emaslik;
- ijtimoiy xavfni oldini olishga yo‘naltirilganlik.

*Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:*<sup>60</sup>

- moddiy yordam ko‘rsatish;
- kundalik zarur tovarlar, yonilg‘i, maxsus transport vositalari, nogironlar, muhtoj shaxslarni qayta tiklash texnikaviy vositalari;
- o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish qobiliyatini qisman yoki to‘liq yo‘qotgan va doimiy qarovga muhtoj fuqarolarga statsionar muassasalarda maxsus xizmat ko‘rsatish, ularning yoshi va sog‘lig‘iga ko‘ra, hayot faoliyati uchun zarur sharoitlarini yaratish, tibbiy, ruhiy, ijtimoiy tavsifdagi tadbirlarni o‘tkazish, ovqatlantirish, parvarishlash;
- yetim bolalarga, ota-onalarga qarovisiz qolganlarga, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlarga ixtisoslashgan muassasalarda vaqtincha boshpana berish;
- ijtimoiy-maishiy, hayotiy faoliyatini ta’minalash uchun ijtimoiy-tibbiy masalalar, psixologik, pedagogik yordam va ijtimoiy huquqiy himoya bo‘yicha maslahat yordami berish;
- nogironlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga, balog‘atga yetmagan huquqbuzarlarga kasbiy, ijtimoiy, ruhiy qayta tiklanishda yordam ko‘rsatish. Bunda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish pulli va bepul tarzda amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. Quyidagi aholining ijtimoiy guruhlariga bepul ijtimoiy xizmat ko‘rsatiladi: keksaligi, kasalligi, nogironligi, qarindoshlari yo‘qligi tufayli o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsata olmaydigan fuqarolarga, agar shunday fuqarolarning daromadi yashash minimumidan past bo‘lsa; qiyin hayot vaziyatiga tushgan shaxslarga; ishsizlik, tabiiy ofat, halokatdan jabr ko‘rganlarga; og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan balog‘atga yetmagan bolalarga.

---

<sup>60</sup> Social work and social welfare. P. 120-164.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasasi faoliyati mamlakatdagi qonunchilik hujjalari asosida amalga oshiriladi va tartibga solinadi.

### **Tayanch atamalar (glossariy)**

**Ijtimoiy boshqarish** – jamiyatning muayyan sifat jihatlarini tartibga solish va rivojlantirish uchun unga muayyan maqsadda ta’sir etish

**Murakkab ijtimoiy tizim** – bunda boshqarish odatda ierarxiya asosida tashkillashtiriladi, boshqarishning yo‘naltirilgan jarayonigina “buyruq”ni yetkazishni ta’minlaydi, diffuziyali va universal kanallar boshqarishning simatik vositalari translatsiyasi uchun xizmat qiladi.

**Ko‘p qavatli ijtimoiy boshqarish** – sanoatlashgan jamiyatda ijtimoiy boshqarishning “ko‘p qavatli” tizimi yuzaga kelgan va u quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

- an’anaviy shaxsiy munosabatlar (oila);
- kasbiy va madaniy guruhlar;
- korxona doirasida “menejerlik” amaliy-samarali munosabatlar;
- “bozorga oid” tartibga soluvchi boshqarish tizimi;
- jamiyat miqyosida qaror qabul qilish;
- mafkuraviy munosabatlar, ularga ta’sir etish, targ‘ibot va ommaviy kommunikatsiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Ijtimoiy deprivatsiya** – insonning o‘z orzulari va haqiqiy holati o‘rtasidagi uzilishni sezishi, his etishi

**Globallahuv** – butunjahon miqyosida iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyalashuvi va unifikatsiyalashuvi.

**Absolyut kambag‘allik** – mamlakat aholisi tarkibidagi aholining belgilangan minimal turmush darajasidan past darajada iste’mol tovarlari va xizmatlar bilan ta’milangan aholi guruhi hisoblanadi.

**Nisbiy kambag‘allik (kam ta’milangan aholi)** – mamlakatdagi o‘rtacha turmush darjasini ko‘rsatkichidan past darajada iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan ta’milangan aholi guruhi hisoblanadi.

**Oila** – jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi, er-xotinlik munosabatiga asoslanadi va bir-birlari bilan qon-qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq kishilarning ixtiyoriy birlashgan guruhidan iborat bo‘ladi.

**Ijtimoiy ishlar bo‘yicha mutaxassis** – keksalar va mehnat qobiliyatiga ega bo‘limgan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha alohida bilim va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassis

**Ijtimoiy xizmatlar** – mijozga amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan yordamni ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni ifodalaydi. Turli mulkchilik shaklidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar, muassasalar, jumladan, yuridik shaxs tashkil qilmasdan aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar ijtimoiy xizmatlar bozorida faol qatnashadilar.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ayrim shaxslar, oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari va uslublarini sharhlab bering?
2. Ijtimoiy boshqarish deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy ishning maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering?
4. Aholini alohida guruhlari bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari va uslublari nimalardan iborat?
5. Aholini ayrim qatlamlari bilan ishlash tamoyillarini sharhlab bering?
6. Oila, guruhlar bilan ishlash tamoyillarini sanab bering?
7. Davlat tashkilotlari bilan ishlash nazariyasi, jarayoni va uslublari nimalardan iborat?
8. Jamoatchilik bilan ishlash nazariyasi, jarayoni va uslublarini tushuntirib bering?
9. Ijtimoiy xizmatlar mohiyatini tushuntirib bering va uning turlarini guruhlang?
10. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tamoyillarini qiyosiy tahlil qiling?

## Testlar

**1. Jamiyatning muayyan sifat jihatlarini tartibga solish va rivojlantirish uchun unga muayyan maqsadda ta'sir etish – bu ...**

- a) ijtimoiy boshqarish
- b) ijtimoiy himoya
- d) ijtimoiy ta'minot
- e) ijtimoiy siyosat

**2. Ijtimoiy deprivatsiya – bu ...**

- a) insonning o‘z orzulari va haqiqiy holati o‘rtasidagi uzilishni his qilishi
- b) insonning o‘z imkoniyatlari va erishgan natijalari o‘rtasidagi tafovutni yo‘qota olmasligini anglashi
- d) insonning qanchalik mehnat qilmasin, o‘zi istagan turmush darajasini ta’minlay olmasligiga ishonishi
- e) insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishiga ishonchinining yo‘qolishi

**3. Ijtimoiy ishlarning tamoyillari bo‘yicha quyida keltirilgan mulohazalardan qaysi biri to‘g‘ri?**

- a) altruizm tamoyili o‘zganing manfaatini o‘zining manfaatidan yuqori deb bilishni anglatadi
- b) shaxsiy yondashish tamoyili ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotini chuqr bilishni anglatadi
- d) mujassamlilik tamoyili ijtimoiy ishlarni davlat ijtimoiy siyosatining ifodasi ko‘rinishida tushunishni anglatadi
- e) ishonch tamoyili mijozning e’tiborini tortish ko‘nikmasini anglatadi

**4. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy hodim faoliyatining obyekti hisoblanmaydi?**

- a) oila
- b) muayyan inson
- d) mahalla
- e) davlat

**5. Ijtimoiy ishlarga qanday yondashuvlar mavjud?**

- a) individual psixoterapiya, tashxisiy yondashuv, funksional yondashuv
- b) individual psixoterapiya, tashxisiy yondashuv, institutsional
- d) individual psixoterapiya, funksional yondashuv, institutsional
- e) funksional yondashuv, institutsional, ijtimoiy psixologik

**6. Ijtimoiy ishlarning tamoyillari qanday vazifalarni bajaradi?**

- a) rejalashtiruvchi, boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi
- b) kuzatish, guruhlash va tahlil qilish
- d) taqsimlovchi, qayta taqsimlovchi va nazorat qiluvchi
- e) konstitutsiyalovchi, tartibga soluvchi va uyg‘unlashtiruvchi

**7. Ijtimoiy boshqaruvning qanday turlari mavjud?**

- a) yoppasiga va manzilli
- b) institutsional va huquqiy
- d) universal yo‘naltirilgan va diffuziyali
- e) bozor va rejali

**8. “Ijtimoiy xodim o‘z mijozini qiziqtirib va hurmat ko‘rsatib, qanday bo‘lsa shunday qabul qilishi lozim”. Ushbu tamoyil kim tomonidan ishlab chiqilgan.**

- a) D. Xollis
- b) G. Gamilton
- d) K. Xorni
- e) O. Rank

**9. Ijtimoiy ishlar xizmati mavjud bo‘lgan mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar ixtiyoridagi vositalarga quyidagilardan qaysi biri tegishli emas?**

- a) pul yordami tizimi
- b) natura shaklidagi yordam tizimi
- d) psixologik maslahatlar
- e) moliyaviy resurslar

**10. Ijtimoiy ishlarningadolatlilik tamoyili nimada aks etadi?**

- a) inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishda
- b) ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotini chuqur bilishda
- c) o‘zganing manfaatini o‘zining manfaatidan yuqori deb bilishda
- d) har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini ko‘ra olish layoqatiga ega bo‘lishda

---

## V BOB. KAMBAG‘ALLIK VA UNI KAMAYTIRISH

### 5.1. Kambag‘allikni aniqlashdagi yondashuvlar va usullar

Iqtisodiy adabiyotda aholi turmush darajasi tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida aholining qay darajada turmush kechirayotganini o‘zida mujassamlashtiradi. *Jahon amaliyotida aholi turmush darajasining quyidagi turlari farqlanadi:*

- to‘kin-sochinlik – insonning har taraflama rivojlanishini ta’minlab beruvchi ne’matlardan foydalanishni anglatadi;
- me’yoriy daraja – insonning jismoniy va intellektual qobiliyatlarini takror ishlab chiqarishni ta’minlovchi ilmiy asoslangan me’yorlar doirasidagi ratsional iste’molini bildiradi;
- kambag‘allik – moddiy ne’matlardan ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning quyi chegarasi doirasida foydalanishni ifodalaydi;
- qashshoqlik – bu moddiy ne’matlardan biologik mezonlar bo‘yicha minimal darajada foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarida qashshoqlikda turmush kechirayotgan aholi soni 1999-yilda 1,7 mlrd. kishini, 2000-2016 yillar mobaynida xalqaro miqyosda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samarasi o‘laroq, kunlik yashash xarajatlari 1,90 AQSh dollaridan oshmaydigan ish bilan band aholi soni o‘rta hisobda 28 foizdan 10 foizga qisqardi. Ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlarda 38 foizga teng bo‘ldi<sup>61</sup>. Keltirib o‘tilgan ma’lumotlar kambag‘allikning qay darajada dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammo ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Xalqaro miqyosda ijtimoiy yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Taraqqiyot dasturi ekspertlari tomonidan kambag‘allik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “*Kambag‘allik – bu ijtimoiy guruh yoki individning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan eng minimal*

---

<sup>61</sup> [www.undp.org](http://www.undp.org) ma’lumotlari asosida

*ehtiyojlarini qondira olmasligining iqtisodiy sharoitini aks ettiruvchi xususiyat hisoblanadi.”<sup>62</sup>*

BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Komissari boshqarmasi ekspertlari kambag‘allik tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “*Kambag‘allik –iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, jumladan, salomatlik, uy-joy, oziq-ovqat va toza ichimlik suviga ega bo‘lish va ta’lim olish huquqiga to‘sqinlik qiladi yoki uni to‘liq cheklaydi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar, jumladan odil sudlovdan foydalanish huquqi, jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish va shaxs xavfsizligi kabilarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.*”<sup>63</sup>

Jahon amaliyotida “kambag‘allik” tushunchasining mohiyatini to‘liq ochib bera oladigan, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlarini o‘zida mujassamlovchi yagona yondashuv mavjud emas. Kambag‘allikni aniqlash va uni baholash bo‘yicha qo‘llanilayotgan usul va uslublar bir-biridan tubdan farq qiladi. Kambag‘allikni daromadlar (absolyut miqdorda) yetishmasligi, pul va nomoddiy mezonlar orqali aniqlash mumkin. Natijada kambag‘allik miqyosi qaysi usul va uslubiyatdan foydalanilganligiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi.

Iqtisodiy adabiyotda keng tarqalgan kambag‘allikka berilgan ta’rif quyidagi ko‘rinishda beriladi: “Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda o‘rnatilgan va jamiyat tomonidan e’tirof etilgan yashash minimumi darajasidan past bo‘lgan daromad va mol-mulkka egalik qilayotgan kishilar kambag‘al hisoblanadi. Ular o‘zlarining kambag‘alliklari, past daromadga ega bo‘lganliklari yoki ishsizliklari kabi vaziyatlar tufayli sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat kabi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Natijada ularning turmush sharoitlari yomonlasha boraveradi”<sup>64</sup>. Kambag‘allikka berilgan mazkur ta’rifdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ijtimoiy jihatdan aholining muhtoj qatlamlariga ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’midot va ijtimoiy

---

<sup>62</sup> [www.undp.org](http://www.undp.org) ma’lumotlari asosida

<sup>63</sup> [www.un.org](http://www.un.org) /United Nations Human Rights Office of the High Commissioner For Human Rights ma’lumotlari asosida

<sup>64</sup> Измерения бедности и социальной интеграции в ЕС: достижения и дальнейшие улучшения. Рабочий документ 25. Подготовлен Евростатом. 20 января 2014 г. С. 20.

xizmatlarning uzlusiz ko‘rsatilishi ularga munosib turmush farovonligi ta’minlash imkonini vujudga keltiradi.

Jahon amaliyotida aholi ijtimoiy jihatdan muhtojligiga ko‘ra uch guruhga ajratiladi (1-rasm) va ushbu guruh vakillari mamlakatlarda maqsadli, tegishli tekshiruvlar asosida ijtimoiy nafaqalarni olish imkonini qo‘lga kiritadilar.



1-rasm. **Ijtimoiy jihatdan muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlarining guruhlanishi**<sup>65</sup>

Kambag‘allik riski holatidagi kishilar mamlakatda o‘rnatilgan kambag‘allik darajasidan past daromadga ega bo‘lgan aholi qatlamlari hisoblanib, ularga nisbatan ijtimoiy nafaqalar tayinlanishi orqali ularning daromadlari mamlakatdagi o‘rtacha daromadning 60 foizi miqdoriga tenglashtiriladi.

*Kambag‘allik holatida yashayotgan aholi qatlamlari quyidagi to‘qqiz holatdan kamida to‘rttasidan mahrum bo‘lgan kishilar hisoblanadi:*

- ijara yoki kommunal to‘lovlarni to‘lash;
- o‘z uy-joyini yetarli darajada isitish;
- tasodifiy xarajatlarni qoplash;
- go‘sht, baliq yoki ularning o‘rmini bosuvchi mahsulotlarni ikki kunda bir iste’mol qilish;
- uydan tashqarida kamida bir haftalik hordiq chiqarish;
- avtomobil;
- kir yuvish mashinasи;

<sup>65</sup> Ministry of Social Security and Labour. The Social Report 2012-2016. Vilnius, 2016. P. 162. ma’lumotlari asosida.

- rangli televizor;
- uyali aloqa yoki telefon.

Yuqorida keltirilgan to‘qqizta vaziyatdan kamida to‘rttasini bajara olmaydigan kishilar moddiy resurslarning yetishmasligi holatida yashayotgan aholi qatlamlari hisoblanib, ularga ijtimoiy muhtojlik nafaqalari tayinlanadi. Bu turdag'i kambag‘allik iqtisodiy adabiyotda nisbiy nomonetar kambag‘allik tushunchasi bilan nomланади (1-jadval).

Ma’lum bir xonodon xo‘jaligida istiqomat qilayotgan 0-59 yosh oralig‘idagi a’zolarning o‘z mehnat salohiyatining 20 foizidan kam bo‘lgan qismi hisobiga daromad topayotgan kishilar ham ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari hisoblanadi. Ular xonodon xo‘jaligida mehnat intensivligi pastligi sababli ijtimoiy muhtojlik holatiga tushib qolgan kishilar hisoblanib, ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlanadi va bandligini rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur chora-tadbirlar tizimiga imtiyozli kreditlar ajratish, malakasini oshirish, qayta tayyorlash va shu kabi dasturlarni kiritish mumkin.

*1-jadval*

#### **Nisbiy nomonetar (deprivatsiya) kambag‘allik**

<b>A. Xonadan xo‘jaliklaridagi yetishmovchiliklar</b>	<b>B. Xonodon xo‘jaliklarining xohlagan vaqtda sotib olish imkoniyatining mavjud emasligi</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- kutilmagan xarajatlarni to‘lay olmaslik</li> <li>- uzoq muddatli kreditlash dasturlarida qatnasha olmaslik (ipoteka to‘lovleri, kreditlar bo‘yicha to‘lovlar va h.k.)</li> <li>- bir hafta mehnat ta’tilini uydan tashqarida o‘tkazish</li> <li>- ovaqtlanish ratsionida hech bo‘lmaganda ikki kunda bir go‘sht, tovuq yoki baliq mahsulotlarining bo‘lishi</li> <li>- uy-joy xarajatlarini to‘lay olish imkoniyati</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Kir yuvish mashinası</li> <li>- Rangli televizor</li> <li>- Telefon</li> <li>- Shaxsiy avtomobil</li> </ul>
Respondentda qayd etib o‘tilganlarning kamida to‘rttasi bo‘lmasa uni kambag‘allik (deprivatsiya) riski mavjud aholi guruhiga kiritish uchun asos bo‘ladi	

Nisbiy nomonetar (deprivatsiya) shaklidagi kambag‘allikni baholash Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun xos bo‘lib, ushbu turdagি kambag‘allikni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi:


- eski mebel va kiyim-kechaklarni yangisiga almashtirish (sekond-xenddan tashqari);
- ikki juft poyafzal (bir juft mavsumiy poyafzaldan tashqari);
- do‘srlar, oila a’zolari (qarindoshlar bilan oyda kamida bir marta birgalikda ovqatlanish uchun uchrashib turish);
- dam olish va ko‘ngilochar tadbirlarida muntazam qatnashish;
- har haftada o‘zi uchun muayyan summadagi mablag‘ni sarflash;
- kompyuter;
- uyda internetdan shaxsiy foydalanish uchun ulanish.

Xalqaro ijtimoiy tashkilotlar tomonidan mamlakatlardagi kambag‘allik darajasini kompleks baholashda ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi va keng qamrovli kambag‘allik, yetishmovchiliklar intensivligi ko‘rsatkichlaridan foydalilanadi (2-rasm). Ushbu uslubiyot orqali mamlakatdagi kambag‘allikning kelib chiqish sabablari va ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash imkoniyati vujudga keladi.

**Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi** – yetishmovchiliklar intensivligiga qarab tuzatish kiritilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha kambag‘al aholi ulushini belgilab beruvchi indeks hisoblanib, kambag‘al odamlar va kam ta’minlangan uy xo‘jaliklari boshidan kechirayotgan yo‘qotishlarning o‘rtacha sonini ko‘rsatib beradi.<sup>66</sup>

---

<sup>66</sup> Ministry of Social Security and Labour. The Social Report 2012-2016. Vilnius, 2016. P. 162. ma’lumotlari asosida.



2-rasm. Kambag'allikni kompleks baholash amaliyoti<sup>67</sup>

**Keng qamrovli kambag'allik, yetishmovchiliklar intensivligi** – keng qamrovli kambag'allik daaraqidagi xonodon xo'jaliklari tomonidan sodir bo'layotgan yetishmovchilikning o'rtacha foizli ko'rsatkichi hisoblanadi.<sup>68</sup>

Ijtimoiy ta'minot tizimi mehnatdan keluvchi daromad kamayganda vaqtinchalik yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Ushbu tizim shaxsni qisqa muddatda ishchi kuchi qatoriga qo'shilishi va mehnat qilish imkoniyatlarini yaratishga zamin yaratadi. *Ijtimoiy ta'minot tizimidagi islohotlar quyidagi maqsadni ko'zlab amalga oshirilmoqda:*<sup>69</sup>

- kishilarni kambag'al hayot tarzidan chiqarish;
- ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liqliknini kamaytirish.

Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy ta'minot xizmati ijtimoiy yordamga haqiqatdan muhtoj kishilarga ko'rsatilishi lozim, deb o'yashadi, boshqalari esa ijtimoiy

<sup>67</sup> Ministry of Social Security and Labour. The Social Report 2012-2016. Vilnius, 2016. P. 162. ma'lumotlari asosida.

<sup>68</sup> Ministry of Social Security and Labour. The Social Report 2012-2016. Vilnius, 2016. P. 162. ma'lumotlari asosida.

<sup>69</sup> Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-168.

ta'minot barcha uchun o'z salohiyatini rivojlantirish va namoyon etish uchun teng imkoniyatlar yaratishi kerak deb ta'kidlashadi. Shu orqali insonlarning ijtimoiy ta'minotga bog'liqligi kamayadi va inson taraqqiyoti ta'minlanadi. Takomillashgan, rivojlangan ijtimoiy ta'minot tizimi esa ikkala fikrni o'zida mujassamlashtirishi lozim. Ijtimoiy ta'minot tizimi kambag'allar bo'lman jamiyatni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berishi bilan birgalikda insonni ushbu imkoniyatlardan to'liq, samarali foydalanishi va o'ziga – o'zi yordam berishi kerak.

Ijtimoiy ta'minotda kambag'allikka qarshi kurash masalasi dolzarb hisoblanadi. Kambag'allik — hayot kechirish, mehnat qilish qobiliyatini takror ishlab chiqarish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lman shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatda qabul qilingan turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodchi olim Dinitto AQShda kambag'allikni aniqlash va tushunishdagi besh xil yondashuv mavjudligini isbotlangan:<sup>70</sup> tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko'rinishdagi kambag'allik, tengsizlik ko'rinishdagi kambag'allik, madaniyat ko'rinishdagi kambag'allik, ekspluatatsiya ko'rinishdagi kambag'allik, tarkibiy ko'rinishdagi kambag'allik.

**Tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko'rinishdagi kambag'allik.** Kambag'allikni tushunishdagi ushbu yondashuv ovqatlanish, boshpana, kiyim-kechak, tibbiy yordam va boshqa hayotiy zarur, minimum yashash darajasini ta'minlovchi ne'mat-buyumlarning yetarli darajada sotib olish imkonи yo'qligini ko'zda tutadi. Kambag'allik darajasini aniqlash uchun turmush darajasining eng quyi standartlari ishlab chiqiladi. Misol uchun AQShda har yili federal hukumat kambag'allik chegarasidagi daromadlar miqdorini hisoblab chiqadi va yanvar

---

<sup>70</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-170.

oyida federal reesterda e'lon qilinadi.<sup>71</sup> 2007-yilda ushbu ko'rsatkich 48 shtat uchun bir shaxsga yiliga 10200 AQSh dollariga teng bo'lgan, to'rt kishidan iborat oila uchun esa yiliga 20650 AQSh dollariga teng bo'lgan. Mazkur miqdordan kam yillik daromadga ega bo'lgan kishi va oilalar o'zi uchun kerakli hayotiy zarur mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun zarur yashash minimumidan mahrum hisoblanadi.

Ushbu standartlar qonun yo'li bilan belgilab qo'yiladigan, aholi asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishning eng kam miqdorini ta'minlaydigan turmush darajasining normativ ko'rsatkichlaridir. Ushbu mezonlar tarkibida "iste'mol savati", tirikchilik o'tkazish uchun minimal iste'mol byudjeti muhim ahamiyatga egadir.

Iste'mol savati minimal iste'mol darajasini ta'minlaydigan 35 turdag'i hayotiy zarur mahsulotlar va xizmatlar to'plamidir. Ularning 11 tasini non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, meva, go'sht, sut va baliq mahsulotlari, tuxum, shakar va qandolat mahsulotlari, o'simlik yog'i va margarin, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Iste'mol savatiga to'rt nooziq-ovqat mahsulotlarining guruhi va xizmatlarini besh turi kiradi.

Tirikchilik o'tkazish uchun zarur iste'molning minimal miqdori - insonning jismoniy jihatdan takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar majmuasi qiymatidir.

Minimal iste'mol byudjeti – tirikchilik uchun eng kam miqdorga kiradigan, insonning ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqt ni o'tkazish uchun zarur minimal xarajatlar qo'shilgan moddiy ne'matlar va xizmatlar qiymatidir.

Ushbu yondashuv bo'yicha kambag'allik darjasini aniqlanayotganda iste'mol tovarlari bahosi indeksi va inflyatsiya darjasini hisobga olinadi. Turmush darjasini daromad miqdori va baholar darajasiga bevosita bog'liqdir.

---

<sup>71</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-170.

**Tengsizlik ko‘rinishdagi kambag‘allik.** Ushbu yondashuvda kambag‘allik daromadlarning tabaqalashuvi bilan aniqlanadi. Bunda kambag‘allikka jamiyatning turli guruh qatlamlari o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlik sifatida qaraladi. Daromadlar tengligini ta’minalash va unga erishishning eng qulay usuli bu oilalarni besh guruhga bo‘lish, ya’ni o‘rtacha shaxsiy daromadning beshdan biriga ega eng kam daromadli oiladan o‘rtacha shaxsiy daromadning besh baravariga teng bo‘lgan daromadga ega oilalarga bo‘lish hisoblanadi. Agar har bir guruh oilaga jami shaxsiy daromadning 20% to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, daromadlar tengligiga erishilgan bo‘ladi.<sup>72</sup>

Aholi daromadlari taqsimlanishida haddan tashqari keskin tabaqalanish xavfini e’tiborga olib, aholining turli ijtimoiy guruhlari daromadlari taqsimlanishidagi tabaqalashuvni tartibga solishda davlat progressiv soliqqa tortish, mulk va merosga soliq solish bilan birgalikda ijtimoiy to‘lov larning samarali tizimlaridan vosita sifatida foydalanmoqda.

**Madaniyat ko‘rinishidagi kambag‘allik.** Kambag‘allikka madaniyat ko‘rinishda qarashda kambag‘allik avloddan avlodga o‘tuvchi hayot tarzi sifatida talqin qilinadi. Kambag‘allikning mazkur konsepsiyasi daromadlarning minimal darajasi bilan birga kelajakka umidsizlik, befarqlik, jamiyatdan begonalashuv, apatiya, rag‘bat va o‘ziga nisbatan qadr-qimmatning yo‘qligi kabi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tarafдорлари kambag‘allikni kamaytirish va jamiyatda vertikal yuqorilash uchun imkoniyatlarni yaratish istiqbolsiz deb hisoblashadi va mavjud imkoniyatlardan kambag‘allar foydalanishmaydi degan g‘oyani ilgari suradilar.

**Ekspluatatsiya ko‘rinishidagi kambag‘allik.** Ushbu yondashuvda kambag‘allik ijtimoiy ta’milot va yordamning turli guruhdagi insonlarga turlicha berilishida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘rta sinf vakillariga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam ipoteka kreditlari va soliq imtiyozlari ko‘rinishida berilsa, yuqori daromadli qatlam vakillari esa soliq imtiyozlari, davlat xaridlari

---

<sup>72</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth/CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-170.

bo‘yicha shartnomalar, tadbirkorlik va biznes uchun subsidiyalar ko‘rinishida olishadi.

**Tarkibiy ko‘rinishdagi kambag‘allik.** Ushbu yondashuvga asosan kambag‘allikka institutsional va tarkibiy kamsitishlar sabab qilib ko‘rsatiladi. Masalan kambag‘al hududda joylashgan maktablar boy hududlarda joylashgan maktablarga nisbatan o‘z ta’lim dasturlarini amalga oshirish uchun oz miqdorda resurslar olishadi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirmaslik jamiyatni “raqamli bo‘linish”iga<sup>73</sup> olib keladi va bu o‘z – o‘zidan jamiyatda kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan va bo‘lmagan aholi guruhlari o‘rtasida ijtimoiy tabaqalashuvning chuqurlashuviga olib keladi, ya’ni hozirgi kunda ishchilarining band bo‘lishida ushbu yuqori texnologiyalarni bilmagan kishilar ishsiz qoladi va kelajakda kambag‘allik muammosiga duch kelishi mumkin.

Faraz qiling inson tug‘ilishidan oldin unga uchta “imkoniyat” berilgan bo‘ladi:<sup>74</sup>

- odadtagidan ortiq darajadagi tug‘ma intellekt;
- ota-onasi ajrashmagan va ular bir-biriga mehribon;
- ota-onasining hech bo‘lmaganda bittasi muntazam daromadli ishda ishlaydi va ushbu ishni bajarish malakasiga ega.

Agarda inson ushbu “imkoniyatlar”dan barchasiga ega bo‘lib tug‘ilsa, bu uning kelajakda kambag‘allik darajasiga tushmasligi va iqtisodiy afzallikka ega bo‘lishini ta’minlaydi. Biroq mazkur imkoniyatlardan biri, ikkitasi yoki uchchalasi ham bo‘lmasa kambag‘allik holatiga tushib qolish riski kuchayadi.

## **5.2. Kambag‘allik sabablari, omillari va konsepsiyalari**

Kambag‘allikning vujudga kelish sabablari turlicha bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liqdir. *Kambag‘allik sabablari quyidagi guruhlarga birlashtiriladi:*

---

<sup>73</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-171. Bu yerda jamiyat yangi texnologiyalarni qo‘llay oladigan va institutsioanlar va tarkibiy sabablargu ko‘ra ularni o‘rganmagan qismlarga bo‘linishi nazarda tutilgan.

<sup>74</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-170.

- iqtisodiy (ishsizlik, ish haqining kamligi, mehnat unumdorligining pastligi);
- ijtimoiy-tibbiy (nogironlik, qarilik, kasallanish darajasining yuqoriligi);
- demografik (to‘la bo‘lmagan oilalar, oilada boqimandalarning ko‘pligi);
- ijtimoiy-iqtisodiy (ijtimoiy kafolatlar darajasining pastligi);
- ta’lim-malaka (ta’lim darajasining pastligi, kasbiy tayyorgarlikning yetarlicha emasligi);
- siyosiy (harbiy mojarolar, majburiy migratsiya);
- mintaqaviy-geografik (mintaqalarning rivojlanishining tabaqalashuvi).

Mamlakatda kambag‘allik darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar turlicha bo‘lib, ular bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq. *Kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:*<sup>75</sup>

- iqtisodiyotning yalpi samaradorligi;
- mamlakatdagi mavjud uy xo‘jaliklarining tarkibi va ularning iqtisodiy tizimga kira olish imkoniyati;
- ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun xarajatlar miqdori;
- amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar turlari va ularning samaradorlik darjasasi.

*Jahon amaliyotida kambag‘allikni aniqlashning quyidagi konsepsiyalari mavjud:*

1. Kambag‘allikning mutlaq konsepsiysi. Ushbu konsepsiya kambag‘allik chegarasi tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Kambag‘allik chegarasi mavjud daromad, yalpi daromad yoki iste’molning shunday darajasiki, ushbu darajadan past bo‘lganda odam kambag‘al hisoblanadi. Mutlaq kambag‘allik ko‘pincha iste’mol yoki daromad darjasasi kambag‘allik chegarasidan past bo‘lgan odamlar yoki uy xo‘jaliklar soni orqali o‘lchanadi. Jahon banki mutlaq kambag‘allik chegarasi sifatida kuniga 1,90 AQSh dollari hisobiga (dollar kursi xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblanadi) kun kechirishni belgilab qo‘yan.

---

<sup>75</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-172.

2. Kambag‘allikning nisbiy konsepsiysi. Kambag‘allikning nisbiy ko‘rsatkichi kambag‘allik nisbiy chegarasini belgilaydi va aholining amaldagi daromadini ana shu darajaga nisbatan taqqoslaydi. Aholining real daromadlari ortib borayotgan sharoitda taqsimlash o‘zgarmasa, nisbiy kambag‘allik avvaldagidek saqlanib qoladi. Nisbiy kambag‘allik konsepsiyasining asoschisi, ingliz sotsiologi P.Taunsend ushbu kategoriyanı iqtisodiy resurslarning yetishmasligi oqibatida mazkur jamiyat ko‘pchilik a’zolari uchun odatdagि turmush tarzini davom ettirishning imkoniyati bo‘lmasligi sifatida ta’riflagan. U o‘zining kambag‘allikning tahlil etish usulini ko‘p o‘lchamli deprivatsiya tushunchasiga asoslagan. Bunday holatni u “shaxs, oila yoki guruhning jamiyat yoki umuman millat holatida kuzatilayotgan va asoslanadigan nochor ahvoli” sifatida tushungan. P. Taunsend tomonidan ko‘p o‘lchamli deprivatsiya usuli qo‘llanilib, unda moddiy deprivatsiyaga (ovqatlanish, kiyim-kechak, turar joy sharoitlari, uzoq muddat foydalaniladigan ashyolar, yashash joyi muhiti, mehnat sharoitlari va xususiyatlari) ijtimoiy deprivatsiya ko‘rsatkichlari (ish bilan bandlik, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, ta’lim va hokazolar xususiyatlari) qo‘shilgan (2-jadval).

2-jadval

#### Nisbiy kambag‘allik konsepsiysi

Nisbiy monetar kambag‘allik	Nisbiy nomonetar (deprivatsiya) kambag‘allik
Aholi jon boshiga hisoblangan o‘rtacha daromadlar yoki xarajatlarning mediana ko‘rsatkichiga mos kelishini baholashga asoslanadi (IHTT, EI va MDHning ayrim mamlakatlarida qo‘llaniladi)	Jamiyatda amal qilayotgan ehtiyojlar standarti darajasida zarur resurslarning yetishmasligi sifatida aniqlanadi
Nisbiy kambag‘allik chegarasi odatda milliy median daromadning 60%idan pastda belgilanadi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- daromadlarning yetishmasligi</li> <li>- birlamchi hayotiy tovarlar va xizmatlar iste’molining pastligi</li> <li>- sifatsiz ovqatlanish</li> <li>- ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi</li> <li>- normal uy-joy sharoitlarining mavjud emasligi va b.</li> </ul>

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha nisbiy kambag'allik ko'lamlari mutlaq kambag'allik ko'lamlariga mos tushmaydi. Tengsizlik jamiyatning ajralmas belgisidir. Jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarida turmush standartlari ortgan davrda ham nisbiy kambag'allik saqlanib turadi va hatto keskinlashadi.

3. Subyektiv kambag'allik. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, faqat shaxsning o'zi kambag'alligini belgilashi mumkin. Subyektiv kambag'allik darajasini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Qancha odam o'zini yoki do'stlarini kambag'al deb hisoblashi mumkinligini aniqlasa bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy fikrga asoslangan holda subyektiv kambag'allik chegarasini aniqlash, shundan so'ng uni aholi daromadlari bilan qiyosiy taqqoslash mumkin.

Aholi muayyan kategoriyalarining ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqini aniqlash uchun odatda kambag'allik darajasini belgilaydigan ko'rsatkichlardan foydalilaniladi. *Ular quyidagilardan iborat:*

1. Kambag'allikning mutlaq darajasi – bu turmush kechirishning eng quyi darajasi hisoblanib, insonning o'zining hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun birlamchi zarur oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy va hokazolar bo'yicha aniqlanadi.

2. Kambag'allikning nisbiy darajasi. Ushbu ko'rsatkich ma'lum bir davlat (mintaqada) turmush kechirishning o'rtacha darajasi uchun talab qilinadigan iste'mol savatining eng kam miqdori darajasini ko'rsatadi. Nisbiy kambag'allik jismoniy ehtiyojlar bilan birgalikda ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga oladi.

Aholini turmush kechirishning eng kam miqdori va iste'mol byudjetining eng kam miqdori asosida daromadlari darajasi bo'yicha tabaqlanish moddiy ta'minlanish darajasi turlicha bo'lgan quyidagi aholi guruhlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

■ "kambag'al" oilalar – ularda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad turmush kechirishning minimal miqdoridan past darajada yoki unga teng;

■ "kam ta'minlangan" oilalar – ularda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad turmush kechirish uchun minimal miqdor bilan minimal iste'mol byudjeti miqdori o'rtasida joylashgan;

- ▣ “ta’minlangan” oilalar – ularda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad minimal iste’mol byudjeti miqdori va oqilona iste’mol byudjeti miqdori o‘rtasida joylashgan;
- ▣ “boy” oilalar – ularda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad oqilona iste’mol byudjeti darajasidan yuqoridir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti rivojlanish dasturi 1996-yilda “Imkoniyat bo‘yicha kambag‘allik ko‘rsatkichi” g‘oyasini muomalaga kiritgan. Ushbu g‘oyaga ko‘ra, insoniy ehtiyojlar kompleksini, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan uzoq va sog‘lom hayot kechirish, ta’lim olish, munosib turmush kechirish uchun zarur resurslarga ega bo‘lish imkoniyatlarining yo‘qligi yoki yetarli emasligini kambag‘allik sifatida baholash lozim. *Imkoniyatlar bo‘yicha kambag‘allik ko‘rsatkichi quyidagi indikatorlarning o‘rtacha arifmetik yig‘indisidir:*

- tug‘ilish jarayonida malakali tibbiy xodimlar hozir bo‘lmagan bolalarning ulushi;
- 15 yosh va undan katta savodsiz ayollarning salmog‘i;
- 5 yoshgacha bo‘lgan vaznda orqada qolayotgan bolalarning ulushi.

Ushbu g‘oya 1997-yilgi global ma’ruzada yanada rivojlantirilib, aholi qashshoqligi indeksi taklif qilindi. *Aholi qashshoqligi indeksi insonni rivojlantirishning muhim sohalaridagi ko‘rsatkichlar asosida hisoblab chiqiladi:*

- uzoq va sog‘lom turmush kechirish imkoniyatidan mahrumlik;
- ta’lim olishdan mahrumlik;
- munosib turmush kechirish resurslaridan mahrumlik.

Yuqoridagilardan “imkoniyatlar bo‘yicha kambag‘allik ko‘rsatkichi” va “aholi qashshoqligi indeksi”da asosiy e’tibor inson taraqqiyotining hal qiluvchi sohalarida yetarlicha imkoniyatlarga ega bo‘lmagan odamlar ulushiga qaratilganligi ma’lum bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichlar kambag‘allik holatini to‘laroq aks ettiradi hamda u yoki bu turdagи yordamga muhtoj aholi guruhlari yoki uy xo‘jaliklarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

1997-yildan joriy etilgan ko‘p o‘lchamli kambag‘allik indeksi kambag‘allik sharoitlarida yashayotgan odamlar holatini to‘laroq aks ettirish, mamlakatlar va mintaqalar, jahon bo‘yicha qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish imkonini beradi.

Ko‘p o‘lchamli kambag‘allik indeksi ochiq va ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslanishi mumkin bo‘lgan quyidagi ma’lumotlarga asoslanadi:

- demografiya va salomatlikni tekshirish;
- YuNISEFning ko‘p indikatorli klaster tekshirishi;
- Juhon bankining salomatlikni tekshirishi.

### **5.3. Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi va maqsadli ijtimoiy dasturlar**

Kambag‘allikka qarshi kurashning zamonaviy strategiyasi kuchli bozor iqtisodiyoti va oila tizimini, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy ta’midot dasturlari, natural ko‘rinishdagi, soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar ko‘rinishdagi maqsadli davlat ijtimoiy dasturlarini o‘z ichiga oladi.<sup>76</sup>

Kambag‘allikka qarshi kurashning dastlabki sharti bu rivojlangan bozor iqtisodiyoti va oila tizimining mavjudligi bilan belgilanadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatda to‘la bandlikni ta’minlashning muhim omili bo‘lib, kambag‘allik holatidan ishchilar va ular oila a’zolarini chiqarishga yetarli bo‘lgan ish haqi bilan ta’minlash imkonini beradi.

Kambag‘allikning oldini olish strategiyasining ikkinchi qismi bu ijtimoiy sug‘urta dasturlari hisoblanadi. Ijtimoiy sug‘urta dasturlarining o‘ziga xos jihat shundaki, ular jamiyatning barcha a’zolarini, jumladan, kambag‘allarni ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi. AQShda eng keng tarqalgan ijtimoiy sug‘urta turi bu qarilik, boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik ijtimoiy sug‘urtasi hisoblanadi hamda ijtimoiy ta’midot sifatida taqdim etiladi.

---

<sup>76</sup>Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition.Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth\CHAPTER 7 Poverty, Income Assistance, and Homelessness-179.

Ijtimoiy sug‘urtaning yana bir turi bu ishsizlik bo‘yicha nafaqalar berish hisoblanadi. Ushbu tizim pensiya, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik sug‘urta dasturlari kabi ishlaydi, biroq maqsadli sug‘urta fondlariga davlat talabi asosida ishchilar emas ish beruvchilar pul o‘tkazishadi. Ushbu mablag‘lar o‘z ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmaidan holda ishdan bo‘shashga majbur bo‘lgan (masalan shtat qisqarishi) ishchilarga ishsizlik nafaqasi sifatida to‘lanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning muhim turi bu ishchilarni ish davomida olgan jarohatini yoki kasbiy kasalliklarni davolash uchun ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat va pul ko‘rinishidagi moddiy yordam – kompensatsiyadir.

Davlatning ijtimoiy yordam dasturi kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda oilasi buzilgan, ish haqi ko‘rinishidagi daromadga ega bo‘lmaganlar hamda nogironlar davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi. Ijtimoiy yordam vaqtinchalik qiynalayotgan oilalarga, umumiy yordam va qo‘shimcha ijtimoiy daromad sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu yordam mablag‘lari umumiy soliq tushumlaridan moliyalashtiriladi.


#### **5.4. Ijtimoiy ishlovchilarni kambag‘allikka qarshi kurashdagi o‘rni**

Kambag‘allika qarshi kurash strategiyasining so‘nggi yo‘nalishi bu natura va soliq imtiyozlari ko‘rinishidagi ijtimoiy yordamlar hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda 1975-yilda AQShda daromadga beriladigan soliq imtiyozlari bilan shug‘ullanuvchi dastur qabul qilingan. Ushbu dasturga ko‘ra soliq imtiyozlari daromadi 30 000 dollardan kam bo‘lgan kambag‘allikda yashovchi amerikaliklar uchun beriladi. Tahlillar ko‘rsatishicha soliq imtiyozi miqdori oiladagi farzandlar soniga qarab ham ortishi mumkin.

*Jahon amaliyotida kambag‘allik chegarasini belgilash orqali quyidagi maqsadlarga erishiladi:*

– xalqaro taqqoslash – mamlakatlar tomonidan xalqaro kelishuvlar yoki xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini bajarishi bo‘yicha majburiyatları ijrosini monitoring qilish va baholash;

- milliy darajada – mamlakatda kambag‘allik darajasini pasaytirishga qaratilgan bandlik, ish haqi, aholini ijtimoiy himoya, investitsiya va soliq sohasida olib borilayotgan siyosatni asoslash;
- ilmiy tadqiqotlar – kambag‘allik sabablari va omillarini aniqlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari ehtiyojlarini aniqlash, kambag‘allikka qarshi kurashishning milliy va mintaqaviy dasturlarini amalga oshirishning samaradorligini baholash va tegishli tavsiyalarga mosligini asoslash.



3-rasm. Milliy darajada kambag‘allik chegarasini baholash uslubi<sup>77</sup>

Mamlakatlarda kambag‘allik chegarasini yoki milliy darajada belgilashda xonodon xo’jaligi a’zolari, ularning ehtiyojlari tarkibi, daromadlari va uning turlarini inobatga olish amaliyoti keng qo’llaniladi (3-rasm).

*Jahon banki ekspertlari tomonidan kambag‘allik chegarasi quyidagicha shakllarda belgilangan:*

- 2008-yilga qadar – 1 AQSh doll.;
- 2008-2017 yillarda – 1,25 AQSh doll.;
- 2017-yildan boshlab – 1,90 AQSh doll.

*Shu bilan bir qatorda jahon banki ekspertlari kambag‘allikning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatadi:*

- qashshoqlik - 1,90 AQSh doll. dan kam;
- mo’tadil kambag‘allik – 1,90 – 3,10 AQSh doll. oralig‘i.

<sup>77</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

## Tayanch atamalar (glossariy)

**Tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko‘rinishidagi kambag‘allik** – kambag‘allikni ushbu yondashuvi ovqatlanish, boshpana, kiyim-kechak, tibbiy yordam kabi hayotiy zarur, minimum yashash darajasini ta’minlovchi mahsulot-buyumlarning yetarli darajada sotib olish imkonini yo‘qligini ko‘zda tutadi. Ushbu kambag‘allikni aniqlashdagi yondashuv to‘g‘ridan to‘g‘ri yashash minimumi ko‘rsatkichi bilan bog‘liqdir. Kambag‘allik darajasini aniqlash uchun turmush kechirishning eng quyi standartlari ishlab chiqiladi.

**Daromadlar tengsizligi ko‘rinishdagi kambag‘allik** – ushbu yondashuvda kambag‘allik daromadlarning tabaqalanishuvi bilan aniqlanadi. Bunda kambag‘allikka jamiyatning turli guruh qatlamlari o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishiga tengsizlik sifatida qaraladi. Daromadlar tengligini ta’minalash va unga erishishning eng qulay usuli ushbu oilalarni besh guruhgaga bo‘lish, ya’ni o‘rtacha shaxsiy daromadning beshdan biriga ega eng kam daromadli oiladan o‘rtacha shaxsiy daromadning besh baravariga teng bo‘lgan daromadga ega oilalarga bo‘lish.

**Kambag‘allik** – hayot kechirish, mehnat qilish qobiliyatini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

**Madaniy ko‘rinishdagi kambag‘allik** – kambag‘allikka madaniy ko‘rinishda qarashda kambag‘allik avloddan avlodga o‘tuvchi hayot tarzi sifatida talqin qilinadi. Kambag‘allikning mazkur konsepsiysi daromadlarning minimal darjasasi bilan birga kelajakka umidsizlik, befarqlik, jamiyatdan begonalashuv, apatiya, rag‘bat va o‘ziga nisbatan qadr-qimmatning yo‘qligi kabi munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

**Ekspluatatsiya ko‘rinishidagi kambag‘allik** – bu yondashuvda kambag‘allik ijtimoiy ta’minot va yordamning turli guruhdagi insonlarga turlicha berilishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘rta sinf vakillariga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam ipoteka kreditlari va soliq imtiyozlari ko‘rinishida

berilsa, yuqori daromadli qatlam vakillari esa soliq imtiyozlari, davlat xaridlari bo‘yicha shartnomalar, tadbirkorlik va biznes uchun subsidiyalar ko‘rinishida olishadi.

**Tarkibiy ko‘rinishdagi kambag‘allik** – ushbu yondashuvga asosan kambag‘allikka institutsional va tarkibiy kamsitish sabab qilib ko‘rsatiladi. Jumladan, kambag‘allar yashaydigan hududda joylashgan maktablar boy hududlarda joylashgan maktablarga nisbatan o‘z ta’lim dasturlarini amalga oshirish uchun oz miqdorda resurslar olishadi.

**Kambag‘allikning mutlaq konsepsiysi** – ushbu konsepsiya kambag‘allik chegarasi tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Kambag‘allik chegarasi mavjud daromad, yalpi daromad yoki iste’molning shunday darajasiki, ushbu darajadan past bo‘lganda odam kambag‘al hisoblanadi.

**Kambag‘allikning nisbiy konsepsiysi** – kambag‘allikning nisbiy ko‘rsatkichi kambag‘allik nisbiy chegarasini belgilaydi va aholining amaldagi daromadini ushbu darajaga nisbatan taqqoslaydi. Aholining real daromadlari ortib borayotgan sharoitda taqsimlash o‘zgarmasa, nisbiy kambag‘allik avvaldagidek saqlanib qoladi.

**Subyektiv kambag‘allik konsepsiysi** – ushbu konsepsiya ko‘ra, faqat shaxsning o‘zi kambag‘alligini belgilashi mumkin. Ijtimoiy so‘rovnoma ga asoslangan holda subyektiv kambag‘allik chegarasini aniqlash va uni aholi daromadlari bilan qiyosiy taqqoslash mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Kambag‘allikni aniqlashdagi yondashuvlar va usullar haqida tushunchalar bering?
2. Tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko‘rinishidagi kambag‘allik mohiyatini tushuntiring va aniq misollar keltiring?
3. Tarkibiy ko‘rinishdagi kambag‘allik mohiyatini yoritib, aniq misollar yordamida tushuntiring?
4. Kambag‘allikni vujudga kelish sabablari va omillari nimalardan iborat?

5. Kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlang, tahlil qiling va guruhlang?

6. Kambag‘allik konsepsiyalari mohiyatini tushuntirib bering?

7. Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi nima va uni maqsadli ijtimoiy dasturlar bilan aloqadorligini aniqlang?

8. Ijtimoiy xodimlarni kambag‘allikka qarshi kurashishdagi o‘rnini baholang va vazifalarini tushuntirib bering?

9. AQShda eng keng tarqalgan ijtimoiy sug‘urta turlarini yoritib bering va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi o‘rnini baholang?

## Testlar

**1. Kambag‘allikni aniqlashning tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko‘rinishidagi yondashuviga xos mulohazani ko‘rsating?**

- a) kambag‘allik avloddan avlodga o‘tuvchi hayot tarzi sifatida talqin qilinadi
- b) kambag‘allik yashash minimumi ko‘rsatkichi bilan bog‘liq hisoblanadi
- c) kambag‘allik daromadlarning tabaqlashuvi bilan aniqlanadi
- d) kambag‘allik institutsional va tarkibiy diskriminatsiya sabab bo‘ladi

**2. Kambag‘allikni tushunishdagi bu yondashuv ovqatlanish, boshpana, kiyim-kechak, tibbiy yordam va boshqa normal yashash darajasini ta’minlovchi narsa-buyumlarning yetarli darajada bo‘lmasligini nazarda tutadi. Gap qaysi yondashuv haqida bormoqda?**

- a) Tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko‘rinishidagi kambag‘allik
- b) Tengsizlik ko‘rinishidagi kambag‘allik
- c) Madaniyat ko‘rinishidagi kambag‘allik
- d) Ekspluatatsiya ko‘rinishidagi kambag‘allik

**3. Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi iqtisodiy sabablarni aniqlang?**

- a) ishsizlik, ish haqining kamligi, mehnat unumdarligining pastligi, tarmoqning raqobatbardosh emasligi
- b) nogironlik, qarilik, kasallanish darajasining yuqoriligi
- c) to‘la bo‘limgan oilalar, oilada boqimandalarning ko‘pligi

e) harbiy mojarolar, majburiy migratsiya

**4. Kambag‘allikning mutlaq konsepsiysi qanday tushuncha bilan bog‘liq?**

- a) kambag‘allik chegarasi
- b) kambag‘allik darajasi
- c) kambag‘allik koeffitsiyenti
- d) kambag‘allik soni

**5. Faqat shaxsning o‘zi kambag‘alligini belgilashi mumkin. Gap kambag‘allikni aniqlashning qaysi turi haqida bormoqda?**

- a) subyektiv kambag‘allik
- b) obyektiv kambag‘allik
- c) ixtiyoriy kambag‘allik
- d) individual kambag‘allik

**6. Institutsional va tarkibiy kamsitish sabab qilib ko‘rsatiladigan kambag‘allik – bu ... ?**

- a) Tarkibiy ko‘rinishdagi kambag‘allik
- b) Ekspluatatsiya ko‘rinishidagi kambag‘allik
- c) Madaniyat ko‘rinishidagi kambag‘allik
- d) Tengsizlik ko‘rinishidagi kambag‘allik

**7. Nisbiy kambag‘allik konsepsiyasining asoschisi kim?**

- a) P. Taunsend
- b) A.U. Fillips
- c) M. Lorents
- d) K. Djini

**8. Qanday oilalarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad turmush kechirishning minimal miqdoridan past darajada yoki unga teng bo‘ladi?**

- a) kambag‘al
- b) kam ta’minlangan
- c) ta’minlangan

e) boy

**9. Qanday oilalarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad minimal iste’mol byudjeti miqdori va oqilona iste’mol byudjeti miqdori o‘rtasida joylashgan bo‘ladi?**

a) kambag‘al

b) kam ta’minlangan

d) ta’minlangan

e) boy

**10. Qanday oilalarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad turmush kechirish uchun minimal miqdor bilan minimal iste’mol byudjeti miqdori o‘rtasida joylashgan bo‘ladi?**

a) kambag‘al

b) kam ta’minlangan


d) ta’minlangan

e) boy

## VI BOB. SOG'LIQNI SAQLASH

### 6.1. Sog'liqni saqlash tizimining vazifalari, tibbiy xizmat turlari va rivojlanish indikatorlari

Jahon amaliyotida sog'liqni saqlash sohasi aholiga yuqori sifatli tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan muassasalar tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim milliy iqtisodiyotda aholining sihat-salomatligini saqlash, ularga tibbiy yordam va xizmatlar ko'rsatish bilan jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini kasallikdan saqlash, davolash, reabilitatsiya qilish va sog'lom turmush kechirishini targ'ib qiluvchi tizim sifatida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Sog'liqni saqlash sohasi jamiyatning mehnat resurslarini qayta ishlab chiqarish jarayonini muntazam ravishda amal qilib turishini ta'minlovchi hamda jamiyatda ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar miqdorining o'sishi va ularning kishilar o'rtaidaadolatli qayta taqsimlashga zamin yaratuvchi iqtisodiy vazifani bajaradi.



1-rasm. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yondashuviga ko'ra inson salomatligi turlari<sup>78</sup>

Iqtisodiy adabiyotda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari tomonidan inson salomatligiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Salomatlik - organizm va uning barcha organlarida o'z funksiyalarini bajarishga to'la qodir bo'lganlik holati,

<sup>78</sup> [www.who.org](http://www.who.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

kasallikning mavjud emasligidir<sup>79</sup>”. Shu bilan bir qatorda xalqaro ekspertlar guruhi tomonidan inson salomatligini jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatlik kabi turlari ajratib ko‘rsatiladi (1-rasm).

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan mamlakatlardagi tabiiy-sanitariya statistikasini olib borish orqali aholi salomatligini baholashning shaxsiy, guruhiy, mintaqaviy va ijtimoiy salomatlik bo‘yicha guruhash amalga oshiriladi (2-rasm).

### **Tibbiy-sanitariya statistikasida quyidagilar farqlanadi**

**Shaxsiy salomatlik** – alohida insonning salomatligi

**Guruhiy salomatlik** – ijtimoiy va etnik guruhlarning salomatligi

**Mintaqaviy salomatlik** – ma’muriy hududlar aholisining salomatligi

**Ijtimoiy salomatlik** – jamiyat aholisi salomatligi

### **2-rasm. Tabiiy-sanitariya statistikasi bo‘yicha aholi salomatligini guruhanishi<sup>80</sup>**

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlari fikricha, so‘nggi o‘n yillikda inson salomatligiga turmush tarzi va sharoiti, irsiyat, tashqi muhit va tabiiy sharoitlar, mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimining holati kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi (3-rasm).


*Jahon amaliyotida aholi salomatligini baholashda quyidagi tabiiy-demografik ko‘rsatkichlar tizimidan foydalilaniladi:*

- aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlari;
- aholining mexanik harakati ko‘rsatkichlari;
- kasalliklarning tarqalishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

<sup>79</sup> [www.who.org](http://www.who.org) ma’lumotlari asosida

<sup>80</sup> [www.who.org](http://www.who.org) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

- nogironlik darajasi;
- aholining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari.



- Tur mush tarzi va sharoiti, ovqatlanish
- Irsiyat
- Tashqi muhit, tabiiy sharoitlar
- Sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli

### 3-rasm. Inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar<sup>81</sup>

Aholi tur mush darajasini oshirish bevosita aholi istiqomat qiladigan hududlarda tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va uning faoliyati bilan bog‘liqdir. Aholining sihat-salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ularning umrini va aktiv faoliyat davrini uzaytirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash – davlat o‘tkazayotgan ijtimoiy siyosatning muhim jihatidir.

Mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimining sifatini baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar guruhi 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimining holati qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar yordamida aniqlanadi: aholining mehnat va dam olish sharoitlari, tur mush farovonligi darajasidir. Ijtimoiy sharoitlar va tur mush tarzi murakkablashib borgan sari odamlarning sog‘lig‘i mustahkamlashib boradi. Sog‘liqni saqlash idoralari aholini davolash va profilaktika faoliyatini amalga oshiradilar, kasallanishni kamaytirish chora-tadbirlarini o‘tkazadilar, aholini dispanserizatsiya qiladilar, atrof-muhit va kommunal qurilmalar, sanitariyalar va oziq-ovqat mahsulotlari yaroqliliginini nazorat qiladilar.

<sup>81</sup> [www.who.org](http://www.who.org) ma’lumotlari asosida

**Sog'lijni saqlash tizimi sifatini baholashning miqdoriy ko'rsatkichlari tizimi<sup>82</sup>**

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkichning tarkibiy elementlari
<b>Sog'lijni saqlash xarajatlari</b>	<input type="checkbox"/> <i>sog'lijni saqlashning umumiy xarajatlari (aholi jon boshiga), AQSh doll.</i> <input type="checkbox"/> <i>sog'lijni saqlash uchun davlat xarajatlari (jami davlat xarajatlariga nisbatan foiz hisobida)</i>
<b>Sog'lijni saqlashning mehnat resurslari va infratuzilmasi</b>	<input type="checkbox"/> <i>vrachlar soni va vrachlar bilan ta'minlanganlik (har 10 000 kishiga)</i> <input type="checkbox"/> <i>tibbiy hamshiralari va akusherlar soni (har 10 000 kishiga)</i> <input type="checkbox"/> <i>kasalxonalaridagi koykalar soni (har 10 000 kishiga)</i>
<b>Sog'lijni saqlash xizmatlarining qamrov darajasi</b>	<input type="checkbox"/> <i>homiladorlik davrini kuzatish (foizda)</i> <input type="checkbox"/> <i>malakali mutaxassislar yordamida farzandli bo'lganlar ulushi (foizda)</i> <input type="checkbox"/> <i>operatsiya yordamida farzandli bo'lish darajasi (foizda)</i> <input type="checkbox"/> <i>1 yoshgacha bo'lgan bolalarni emlash darajasi (foizda)</i>
<b>O'lim va kasallik vaqtি</b>	<input type="checkbox"/> <i>kutilayotgan umr davomiyligi, (yil)</i> <input type="checkbox"/> <i>kutilayotgan sog'lom hayot davomiyligi (HALE), (yil)</i> <input type="checkbox"/> <i>chaqaloqlar o'limi koeffitsiyenti, (har 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan)</i> <input type="checkbox"/> <i>1 yoshgacha bolalar o'limi koeffitsiyenti, (har 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan)</i> <input type="checkbox"/> <i>5 yoshgacha bolalar o'limi koeffitsiyenti, (har 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan)</i> <input type="checkbox"/> <i>katta yoshdigilar o'limi koeffitsiyenti (har 1000 nafar 15-60 yoshdagi aholiga nisbatan)</i>
<b>Vafot etish va kasallik sabablari</b>	<p><b>Vafot etish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• onalar o'limi koeffitsiyenti (har 100 000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqlarga nisbatan)</li> <li>• muayyan sabablarga ko'ra vafot etish koeffitsiyenti, (har 100 000 nafar aholiga nisbatan)</li> <li>• 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida o'lim sabablari, (foizda)</li> </ul> <p><b>Kasallik:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• sil kasalligining tarqalishi, (har 100 000 nafar aholiga nisbatan)</li> <li>• 15-49 yoshdagi aholi o'rtasida OITSning tarqalishi, (foizda)</li> </ul>
<b>Yuqumli kasalliklar (ro'yxatga olinganlar soni)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• xolera, gripp H5N1, yapon entsefaliti, prokaza, bezgak, qizamiq, meningit, poliomielit, sil va h.k.</li> </ul>
<b>Sog'lijni saqlash tizimidagi tengsizlik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• malakali mutaxassislar yordamida tug'ilgan bolalar, (foizda)</li> <li>• bolalarni 1 yoshgacha qizamiqqa qarshi emlash qamrovi, (foizda)</li> <li>• 5 yoshgacha bolalar o'limi (har 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan)</li> </ul>
<b>Aholi statistikasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• aholi soni, kishi</li> <li>• yillik o'sish sur'ati (foizda)</li> </ul>

<sup>82</sup> [www.who.org](http://www.who.org) ma'lumotlari asosida

Sog‘liqni saqlashning ijtimoiy ahamiyati aholining barcha guruh va qatlamlari undan bir xilda foydalanishlari mumkinligidan iborat. Ambulatoriya-poliklinika va kasalxonalarining keng tarmog‘i tibbiy yordamga muhtoj barcha shaxslarga malakali yordam ko‘rsatadi. Davolash muassasalari tarmog‘i hududiy tamoyillarga asosan tashkil etilgan bo‘lib, turar-joy bo‘yicha vrachlarga murojaat qilishda aholiga qulaylik yaratilgan.

Aholi turmush farovonligini oshirish va ijtimoiy rivojlanish dasturlarida sog‘liqni saqlash muassasalarining faoliyatini yaxshilash, profilaktika yo‘nalishini kuchaytirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish ko‘zda tutiladi. Shu bilan bog‘liq holda sog‘liqni saqlashning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish; mamlakat aholisining, alohida hududlar, shahar va qishloq aholisining tibbiy personal bilan ta’minlanganligini darajasini yaxshilash, sog‘liqni saqlashning profilaktika yo‘nalishini rivojlantirish, tibbiy xizmatlardan aholining barcha ijtimoiy guruhlari birdek foydalanishini ta’minlash sog‘liqni saqlash tizimining ustuvor vazifalari bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimi holati va aholining sog‘lig‘i darajasi fuqorolarning daromadlari, etnik kelib chiqishi, jinsi, yoshi, nogironligi va qanday joyda yashayotganligi kabi bir qator ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq.

Daromadlarning yuqori bo‘lishi inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori daromadli aholi qatlami tibbiy sug‘urtaga ega bo‘lish, muntazam vaqtiga vaqt bilan tibbiy tekshiruvlardan o‘tib turish, kasalliklar boshlanishi bilan davolanish, yuqori kaloriyalı, foydali oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish, qulay sharoitga ega uyda yashash singari imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Kambag‘allar esa aksincha yuqoridagi imkoniyatlarga doimo to‘liq ega bo‘lmaydilar va ushbu holat ularning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etishi mumkin. AQSh misolida oladigan bo‘lsak, tibbiyot sug‘urtaga ega bo‘lish aholining quyidagi qatlamlari uchun murakkab jarayon hisoblanadi. Mamlakatda mehnat yoshidagi barcha a’zolari ishlaydigan oilalar ham tibbiy sug‘urtaga ega bo‘lish va tibbiy xizmatlardan foydalanishda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi. 2003

yilda AQShda tibbiy sug‘urtalanmagan har o‘nta oilaning sakkiztasi ishlaydigan oilalar bo‘lib, ularning 70 %i tibbiy sug‘urtaga asoslanmagan ish joylarida ishlagan.<sup>83</sup>

Mamlakat sog‘liqni saqlash tizimining muhim ko‘rsatkichlaridan biri aholi salomatligidir. *Aholi salomatligi holatini tavsiflash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:*

- kattalar va o‘smirlarda turli xil kasalliklar bilan kasallanish hollari soni (15 yosh va undan katta yoshdagi aholining har 100 ming nafariga nisbatan);
- 14 yoshgacha bolalarda yuqumli kasalliklarga chalinish hollari soni (14 yoshgacha bolalarning har 100 ming nafariga nisbatan);
- yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning kasallanish hollari soni (statsionarlarda tug‘ilgan har 1000 ta chaqaloqqa nisbatan);
- jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan bolalar soni (har 1000 ta o‘rtacha ro‘yxatdagi bolalarga nisbatan);
- doimiy maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar kasallanishi hollari soni (har 1000 ta o‘rtacha ro‘yxatdagi bolalarga nisbatan) va shu kabi boshqa ko‘rsatkichlar.

*Iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining kasallanishini tavsiflashda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:*

- vaqtinchalik mehnat layoqatini yo‘qotilgan holdagi kasallanishlar soni (har 100 ta ishchi va xizmatchiga nisbatan);
- vaqtinchalik mehnat layoqatini yo‘qotilgan kalendar kunlari soni (har 100 ta ishchi va xizmatchiga nisbatan).

Aholining moddiy va madaniy farovonligining o‘sishi, aholi sihat-salomatligini saqlashdagi muvaffaqiyatlar aholi o‘rtaasidagi o‘lim hollari, jumladan, bolalar o‘limi kamayishiga, ko‘plab kasalliklarni yo‘qotishga sabab bo‘ladi.

---

<sup>83</sup> Social work and social welfare. P.270.

*Aholining tibbiy yordam bilan ta'minlanganligini tavsiflovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida quyidagilar xizmat qiladi:*

- kasalxonalardagi o'rinn bilan ta'minlanganlik (har 10 ming kishiga nisbatan);
- ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati - smena davomida (shifokorlar qabulida bo'lgan shaxslar soni ming kishiga nisbatan).

*Sihat-salomatlikni to'liqroq tavsiflash uchun aholining shifokorlar va o'rta tibbiyat xodimlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:*

- aholining barcha mutaxassislikdagi shifokorlar bilan ta'minlanganligi (har 10 ming kishiga nisbatan);
- aholining alohida mutaxassislikdagi shifokorlar (terapevtlar, xirurglar, okulistlar, otolaringologlar, nevropatologlar, oftalmologlar, ginekologlar, pediatrlar va hokazo) bilan ta'minlanganligi (har 10 ming kishiga nisbatan);
- aholining o'rta tibbiyat xodimlari bilan ta'minlanganligi (har 10 ming kishiga nisbatan).

## **6.2. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish amaliyoti va rivojlanish tendensiyalari**

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish deganda aholiga tibbiy xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni taqsimlash jarayoni tushuniladi. *Sog'liqni saqlash tizimining moliyalashtirishni quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin:*

- mablag'larning shakllanish manbasiga ko'ra;
- mablag'larni taqsimlash shakliga ko'ra.

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning manbalari quyidagilardan iborat:

- barcha ko'rinish va darajadagi umumiylar soliq daromadlari;
- majburiy tibbiy sug'urtaga maqsadli badallar;
- fuqarolarning shaxsiy tibbiy sug'urtasi;
- fuqarolarning shaxsiy mablag'lari.

Sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirish amaliyotini davlat byudjetidan moliyalashtirish deb ham ataladi. Davlat byudjetidan moliyalashtirish davlat ijtimoiy siyosatining yo‘nalishi sifatida rivojlangan. Natijada davlat tibbiyat va sug‘urta muassasalariga o‘z ta’sirini, ular ustidan nazoratini kuchaytirgan. Buyuk Britaniya davlat sog‘lijni saqlash tizimi tashkilotlari tajribasi uning nisbatan past xarajatlar bilan yuqori darajada samarali tibbiy xizmatlar ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Mamlakatda mablag‘larning aksariyat qismi davlat byudjetidan ajratiladi va yuqoridan pastga vertikal boshqaruv bo‘yicha taqsimlanadi.

Sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishning majburiy sug‘urta tizimi birdamlik tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tizim ijtimoiy sug‘urta tizimi bilan chambarchas bog‘liq va yagona qonunchilik bilan tartibga solinadi. Sug‘urtalovchilar va sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta mablag‘lari ustidan nazorat o‘rnatish imkoniyati beriladi. Sug‘urtalanuvchilar tibbiy xizmatlardan foydalanishda shifokorlar va tibbiyat muassasalarini tanlash huquqiga ega bo‘ladilar.

Majburiy tibbiy sug‘urta tizimiga maqsadli badallar odatda ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondidan yoki daromadlaridan va ishchilar ish haqidan belgilangan foizlarda undiriladi.

Germaniyada ijtimoiy tibbiy sug‘urtaning rivojlangan tizimi amal qiladi. Ushbu tizimga 1883-yilda O. Bismark tomonidan asos solingan. Hozirgi vaqtida ushbu tizim aholining 90 % ini qamrab oladi (8 % - xususiy tibbiy sug‘urta, 2 % - davlat byudjeti). Ushbu tizim barcha sug‘urtalanganlarni kasallanish holatida zarur tibbiy xizmatlar bilan ta’minlaydi. Majburiy sug‘urta tizimi notijorat sug‘urta tashkilotlari (kasallik kassalari) orqali o‘z faoliyatini yuzaga chiqaradi. Ular mustaqil o‘zini-o‘zi boshqaruvchi, tarkibiy tuzilishi qonunchilik bilan belgilab beriladigan tashkilotlar hisoblanishadi.

Fransuz tibbiy sug‘urta modeli ijtimoiy sug‘urtaning barcha tizimlari bilan samarali aloqadorlikda ekanligi bilan ajralib turadi. Fransuz ijtimoiy sug‘urta tizimida yigirmadan ortiq turli xil sug‘urta shakllari mavjud, jumladan tibbiy sug‘urta tizimida – kasallik bo‘yicha, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini

yo‘qotganlik bo‘yicha, baxtsiz hodisa bo‘yicha, homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha. Sug‘urtaning qonun bilan tasdiqlangan yagona tartibi aholining 80 % ini qamrab olgan. Sug‘urta tizimi o‘z tarkibiga umummilliy tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan 90 dan ortiq sug‘urta kompaniyalarini oladi.

Yaponiya aholisi salomatligining zamonaviy holati juda yuqori ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi: kutilayotgan umr davomiyligi – 80 yil, dunyoning rivojlangan mamlakatlari uchun eng yuqori ko‘rsatkich. Bir yoshgacha bolalar o‘limi – har 1000 ta tug‘ilgan chaqaloqqa nisbatan 4.4, dunyodagi eng past ko‘rsatkich<sup>84</sup>. Ushbu ko‘rsatkichlar Yaponiyadagi milliy majburiy tibbiy sug‘urta tizimiga asoslangan tibbiy sug‘urta tashkilotlarining yuqori darajadagi samarali faoliyati bilan bog‘liq. Mamlakatdagi yuqori umr davomiyligini ta’minlashda Sog‘liqni saqlash va farovonlik vazirligini asosiy e’tibori keksa kishilar uchun uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish va g‘amxo‘rlik qilish tashkilotlariga qaratdi. Shifokorlar faqatgina dori-darmon yozib berish bilan cheklanmasdan, bemorlarni dori-darmonlar bilan ta’minlashadi. Shaxsiy tibbiy sug‘urta tizimi AQShda keng shakllangan bo‘lib, markazlashmaganligi, sug‘urta tashkilotlarining rivojlangan infratuzilmasi va davlat aralashuvining yo‘qligi bilan xarakterlanadi. AQSh aholisining ko‘pchilik qismi uchun tibbiy sug‘urta har bir kishinig shaxsiy ishi hisoblanadi. Tibbiy sug‘urtaning ixtiyoriy, shaxsiy shakli aholining 80% dan ortig‘ini qamrab oladi. AQSh da taxminan 1500 shaxsiy sug‘urta kompaniyalari mavjud. Ulardan eng yiriklari – “Moviy xoch” va “Moviy qalqon” faqat tibbiy sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanishadi. AQSh da shaxsiy sug‘urta tizimi bilan bir qatorda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ikki hukumat dasturi – “Mediker” (65 yoshdan oshgan keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida) va “Medikeyd” (ishsizlar, qashshoqlar va nogironlar uchun) mavjud.<sup>85</sup> Keksalarning majburiy ijtimoiy sug‘urta dasturi bo‘lgan Mediker dasturi 65 yoshdan oshgan barcha fuqorolarni qamrab olgan, shuning uchun ushbu dastur samarali faoliyat

---

<sup>84</sup> А.М. Дзядзько, И.И. Новик, М.Ю. Масюк, В.С. Карапник. Система здравоохранения США: взгляд белорусских специалистов //Медицинские новости. 2014. №7. С.37-50.

<sup>85</sup> Social work and social welfare. P.300.

ko'rsatmoqda. Biroq keksa bemorlar kasalxonaga joylashishning birinchi kuni uchun, shifokorlar huzuriga kirish uchun va deyarli barcha uzoq muddatli uyda ko'rsatiladigan hamshiralik xizmatlari uchun o'z hisobidan to'lashi kerak. Ushbu dasturni moliyalashtirish manbalari sifatida ish haqi fondidan soliqlar, progressiv daromad solig'i va korporatsiyalarning foyda soliqlari maydonga chiqadi<sup>86</sup>. XXI asr boshlariga kelib Mediker ijtimoiy dasturi aholi qarishi va pensionerlar ulushining ortishi bilan bog'liq jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi.

Medikeyd dasturi federal byudjet va shtatlar byudjetlarining hamkorlik dasturi bo'lib, aholining kam daromadli qatlamlariga yordam berishni maqsad qilib qo'ygan. Dastur federal hukumat va shtatlar byudjetlaridan moliyalashtiriladi. *Ushbu dastur aholiga quyidagi xizmat turlarini ko'rsatadi:*

- statsionar va ambulator davolash;
- mutaxassislar maslahati;
- keksalarga uyda g'amxo'rlik qilish va parvarishlash;
- labaratoriya diagnostikasi;
- tadqiqotlarning rentgenologik metodlari.

Medikeyd xizmatlaridan foydalanish uchun fuqaroning yoki oilaning daromadlari tasdiqlangan kambag'allik darajasidan past ekanligini isbotlash kerak bo'ladi.

*Sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish mablag'larini taqsimlash shakliga ko'ra quyidagi modellari mavjud:*

- integratsion model;
- shartnomaviy model.

Integratsion modelni moliyalashtirish, boshqarish va tibbiy yordam ko'rsatish funksiyalarining uyg'unligini aks ettiradi. Tibbiyat muassasalarining mulki davlat yoki mahalliy hokimiyat organlariga qarashli bo'ladi. Boshqaruv organlari faqatgina sohani rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini aniqlab qolmasdan, tibbiyat muassasalari faoliyatini tartibga soladi: ularning

---

<sup>86</sup> А.М. Дзядько, И.И. Новик, М.Ю. Масюк, В.С. Караник. Система здравоохранения США: взгляд белорусских специалистов //Медицинские новости. 2014. №7. С.37-50.

imkoniyatlarini aniqlaydi (kasallarga mo‘ljallangan o‘rinlar soni) sog‘liqni saqlash tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida resurslarni qayta taqsimlash to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, rahbarlarni tayinlaydi va boshqalar.

Shartnomaviy modelda moliyalashtiruvchi va tibbiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi tomonlar o‘rtasidagi boshqaruv munosabatlari iqtisodiy munosabatlar asosiga quriladi. Ushbu munosabatlarning asosini moliyalashtirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish funksiyalarining alohidalashuvi tashkil etadi. Shartnomaviy model fuqarolarga tibbiyot muassasasi va shifokorni tanlash imkoniyatini beradi. “Pul bemorlar uchun xizmat qiladi” tamoyili amal qiladi. *Amaliyotda ushbu tamoyil quyidagi usullar qo‘llanilishida amal qilishi mumkin:*

- bemor davlat kafolati dasturlarida ishtirok etuvchi tibbiyot muassalari va shifokorni mustaqil tanlaydi, moliyalashtiruvchi tomon ko‘rsatilgan tibbiy xizmat uchun to‘loymi amalga oshiradi;
- samarali faoliyat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, shifokorlarning talablari inobatga olinadigan tibbiyot muassasalari va aholi o‘rtasida shartnomalar tuziladi.

*Shartnomaviy model asosida sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda quyidagi shartlarni bajarish lozim:*

- sog‘liqni saqlash tizimini boshqaruvchi organlar tibbiyot muassasalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarmasliklari va ular bilan aniq shartnomada asosida munosabatlar o‘rnatishi kerak;
- tibbiyot muassasalari faoliyatlarini mustaqil amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak.

### **6.3. Sog‘liqni saqlash tizimini isloh etishning milliy dasturlarini amalga oshirish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlari**

XX asrning 90-yillari boshida O‘zbekiston yetarli darajada rivojlangan sog‘liqni saqlash tizimiga ega edi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari va shifoxonalarining rivojlangan tarmog‘i, profilaktika ishlarini tashkil etish, maktabgacha va muktab yoshidagi barcha bolalarni emlash yaxshi yo‘lga

qo‘yilgani, tibbiyat xodimlarini izchil tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni o‘z ichiga olgan tibbiy tizimdan barcha toifadagi fuqarolar keng foydalanish imkoniga ega edi. O‘zbekistonda aholi salomatligi ko‘rsatkichi Sobiq Ittifoq respublikalari o‘rtasida eng past darajada bo‘lib, bolalar va onalar o‘limi ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan.

Sog‘liqni saqlash tizimi mamlakatning bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimiga o‘tishiga quyidagilar sabablar tufayli tayyor emas edi:

**Birinchidan**, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish byudjet mablag‘lariga to‘liq bog‘liq edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi moliyaviy beqarorlik sog‘liqni saqlash tizimini juda yomon holatga solib qo‘ydi.

**Ikkinchidan**, tizim ko‘p xarajatli bo‘lgani bois ajratilgan byudjet mablag‘laridan samarasiz foydalanildi. Mablag‘larning ko‘p tabaqali tizim o‘rtasida taqsimlanishi ularni sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga sarflash imkonini bermas edi.

**Uchinchidan**, birlamchi sog‘liqni saqlash tizimiga, jumladan, qishloq joylarida unchalik e’tibor berilmasdi. Zarur tibbiy asbob-uskunalar bilan deyarli jihozlanmagan qishloq feldsherlik-akusherlik punktlarida aholiga tibbiy yordamni ko‘pincha shifokorlar emas, feldsherlar ko‘rsatardi. Shahar va qishloq joylarida tibbiy yordam darajasi bir-biridan keskin farq qilar, qishloqda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar past darajada edi.

**To‘rtinchidan**, ona va bolaga yordam ko‘rsatish tizimi tabiiy tug‘ilish sur’ati yuqori bo‘lgan sharoitda o‘z faoliyatida asosiy e’tiborni sog‘lom bola tug‘ilishini targ‘ib qilishga emas, balki tug‘ishga yordam berish hamda kasalliklarni davolashga qaratar edi. Ko‘p bola tug‘ish natijasida tug‘ish yoshidagi ayollarning salomatlik darajasi yomon bo‘lib, onalar o‘limi xalqaro me’yorlar bilan olib qaralganda eng yuqori ko‘rsatkichlardan biriga aylangan edi.

**Beshinchidan**, sog‘liqni saqlash tizimida asosiy e’tibor kasalliklarning oldini olishga emas, balki davolashga qaratilar edi. Aholi o‘rtasida o‘z sog‘ligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish amaliyoti keng targ‘ib qilinmas edi.

Sog‘liqni saqlash tizimi holati bozor iqtisodiyotining yangi talablariga javob bera olmas va aholi salomatligining zarur darajasini ta’minlay olmas edi. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida davlat dasturi qabul qilindi va uning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

- onalik va bolalikni himoya qilish masalalariga sog‘lom avlod tug‘ilishi va tarbiyalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yangi konseptual va amaliy yondashuv ishlab chiqildi. Islohotlarning ushbu yo‘nalishidan ko‘zlangan maqsad, onalar va bolalar o‘limi ko‘rsatkichini kamaytirishga qaratilgan qisqa muddatli samara olish uchun emas, balki kelajak avlodlar va ularning uzoq umr ko‘rishida muhim omil bo‘ladigan uzoq muddatli samaraga erishishdan iborat edi;
- sog‘liqni saqlash tizimini barpo etish, uning infratuzilmasini rivojlantirishga mutlaqo yangicha yondashuv. Islohotlarning maqsadi shahar va qishloq joylarida birlamchi tibbiy yordamdan bahramand bo‘lish uchun teng shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan;
- eski andozalardan voz kechish va sog‘liqni saqlashni moliyalash tizimi yondashuvlarni o‘zgartirish, sohaning moliyaviy manbalarini to‘ldirish, ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini, bemorlarning tibbiyot muassasalari va xodimlariga talabchanligini oshirish maqsadida pulli va xususiy sog‘liqni saqlash tizimini muayyan darajada kengaytirish;
- sohani moliyalash tizimini, birlamchi bo‘g‘in, kasallikning oldini olish va ambulatoriya-poliklinkada davolashga yo‘naltirish evaziga muvofiqlashtirish;
- aholiga barcha ma’muriy-hududiy darajada shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishning mutlaqo yangi tizimini tashkil etish;
- sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimini takomillashtirish, tarkibiy bo‘g‘inlarni qisqartirish;
- sog‘liqni saqlash tizimining me’yoriy-huquqiy assoslarini takomillashtirish.

*O‘zbekiston hukumati sog‘liqni saqlashning yangi tizimini shakllantirishda quyidagi tamoyillar va yondashuvlardan kelib chiqqan:*

- inson kapitali rivojlanishi nuqtai nazaridan aholining barcha qatlamlari sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlaridan bahramand bo‘lishi kerak;
- inson salohiyatining rivojlanishiga uning qishloqda yashashi salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Qishloq joylarida tibbiy yordam sifatini oshirish yangi turdagи tibbiyot muassasalari – qishloq tibbiyot punktlari (QVP) tashkil etilayotgani hisobidan erishilmoqda;
- birlamchi tibbiy yordamni ixtisoslashtirish, tibbiy yordam ko‘rsatishning tejamli va samarali shakllarini joriy etish, bemorlarni asosiy birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatadigan umumiy amaliyot shifokori davolashi uchun shart-sharoitlar yaratish yangi tashkil etilayotgan birlamchi sog‘liqni saqlash tizimi uchun asos qilib olindi;
- mamlakatning barcha hududlarida respublika va tuman darajasidagi statsionar sharoitlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatadigan o‘ziga xos, yaxshi jihozlangan muassasalar tarmog‘i tashkil etildi;
- hududlarda sog‘liqni saqlashni byudjet mablag‘lari bilan ta’minlash aholi jon boshi e’tiborga olingan holda asosiy sarf-xarajatlarni profilaktika tadbirlari va ambulatoriya poliklinikada davolashga yo‘naltirish;
- ixtisoslashgan klinikalar, tor ixtisoslikka oid kasallikkarni davolash bo‘yicha yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan va yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlangan ixtisoslashgan klinikalarni tashkil etishni talab etadi.

*O‘zbekistonda shakllangan tibbiyot muassasalari tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:*

**I. Bepul birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadigan muassasalar:**

- qishloq shifokorlik punktlari (QVP) tarmog‘i qishloq joylarida aholiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatmoqda;
- shahar aholisiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadigan shahar ambulatoriya-poliklinika muassasalari;
- shoshilinch tibbiy yordamning respublika, viloyat markazlari, tuman va shahar bo‘limlari;

- bolalar, tug‘ishga yordam beradigan muassasalar (tug‘ruqxonalar), tug‘ruqxonanmajmualari;

- yuqumli kasalliklar, silga qarshi, onkologiya, ruhiy kasalliklar, narkologiya, endokrinologiya davolash muassasalari.

## ***II. Aralash moliyaviy asosda tibbiy yordam ko‘rsatadigan muassasalar:***

- umumiylar ixtisosdagi statsionar shifoxona muassasalari;

- ixtisoslashgan shifoxona muassasalari;

- idoraviy ambulatoriya-poliklinika va statsionar shifoxona muassasalari.

## ***III. Asosan pulli tibbiy yordam ko‘rsatadigan muassasalar:***

- stomatologiya poliklinikalari;

- xususiy tibbiyot muassasalari.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tavsiyasiga muvofiq respublikada statsionar davolash tizimi jiddiy o‘zgartirildi. Bundan ko‘zlangan maqsad koyka fondidan samarali foydalanish va ushbu maqsadga ketadigan byudjet xarajatlarini oshirish edi. Shuningdek, shahar kasalxonalari, yuqumli kasalliklar, ayrim ixtisoslashgan va qishloq uchastka shifoxonalari ham tubdan qayta o‘zgartirildi, ularda ham koyka fondi 1,5-3 baravar kamaytirildi.

Mavjud tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi umumiylar shifokorlar amaliyoti tomoniga yo‘nalishini o‘zgartiradi. Qishloq shifokor punktlariga o‘qitilgan va qayta o‘qitilgan umumiylar shifokorlari va universal hamshiralari ishga olindi. *Shu tariqa respublikadagi tumanlarning qishloq joylarida ikki darajadagi sog‘liqni saqlash muassasalaridan iborat tarmoq tashkil etildi:*

– aholini barcha birlamchi xizmatlar bilan ta’minlash uchun mas’ul qishloq shifokorlik punktlari;

– mintaqa aholisini asosiy statsionar xizmatlar bilan ta’minlash uchun mas’ul markaziy tuman kasalxonalari.

Sog‘liqni saqlash muassasalari tizimini tibbiy texnika bilan jihozlash, yuqori malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash davlat byudjetidan katta xarajatlarni talab qilar edi. Shuning uchun hukumat Jahon Bankiga murojaat qildi va 1999-yildan boshlab «Salomatlik» loyihasi amalga oshirila boshlandi.

«*Salomatlik*» loyihasi maqsadi – hukumatning tibbiy xizmatlar ko‘rsatishga ajratiladigan umumiy xarajatlarini sezilarli darajada oshirmay, sog‘liqni saqlashning birlamchi darajasini kuchaytirish; qishloq tibbiyat muassasalari boshqaruvi va moliyalashtirish tizimini isloh qilish; sog‘liqni saqlash tizimi xodimlarini umumiy amaliyat sohasida o‘qitish kabilar hisobiga qishloq aholisi sihat-salomatligini yaxshilash.

«*Salomatlik*» loyihasining muhim vazifalaridan biri – qishloq joylarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini (TSYO) boshqarish va moliyalashtirish tizimini yaxshilash edi.

*Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasida amalgalash oshirilayotgan islohotlar quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:*

- sog‘lom avlodni voyaga yetkazish zarurati;
- sog‘liqni saqlash tizimi faoliyati «Sog‘lom ota-on — sog‘lom farzand» qabilidagi sog‘lom avlodni shakllantirish zanjiriga qaratilgan bo‘lishi lozim;
- sil kasalligining tarqalishiga qarshi kurashish zarurati;
- giyohvandlik tarqalishining oldini olish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurashish, giyohvand bemorlarni davolash tizimini yaratish zarurati;
- odamlar yashashi uchun qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratish zaruriyati;
- sog‘liqni saqlash tizimini kam xarajat, lekin kasalliklarning oldini olish va davolash sohasida ko‘proq samara beradigan birlamchi bo‘g‘in. Profilaktik sog‘liqni saqlash, ommaviy jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish foydasiga tarkibiy jihatdan qayta tuzish zarurati;
- sog‘liqni saqlash tizimi tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilash zarurati;
- sog‘liqni saqlash tizimi byudjetini mustahkamlash, qo‘srimcha moliyalash manbalarini jalb qilish.

**O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining joriy xarajatlari tarkibi (foiz hisobida)<sup>87</sup>**

Yo‘nalishlar/Yillar	2008	2010	2012	2014	2016
<b>jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Statsionar tibbiy yordam	46,0	45,3	44,6	44,3	44,1
Ambulator-poliklinika yordami	43,2	44,2	45,3	45,5	45,1
Profilaktika ishlari	4,9	4,9	5,1	5,2	5,3
Epidemiologiya tadbirlari	0,4	0,4	0,5	0,6	0,7
Boshqa xarajatlar	5,5	5,2	4,5	4,4	4,8

Sog‘liqni saqlash tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan va ularning maqsadi - sog‘liqni saqlash tizimida rivojlanishning ekstensiv modelidan intensiv modeliga o‘tish hisobiga aholi sog‘lig‘ini yaxshilashdir.

#### **6.4. Ijtimoiy ishlovchilarни тиббиy xizmat ko‘rsatishdagi o‘rnvi va vazifalari**

Ijtimoiy sohada islohotlar sharoitida ijtimoiy ishlovchilar turli shakldagi tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda alohida o‘rin tutmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy ish, jumladan, keksalar bilan ishlash bugungi kunda keng rivojlanayotgan professional soha hisoblanadi. AQSh da sog‘liqni saqlash tizimida band bo‘lgan ijtimoiy ishlovchilar mamlakatdagi jami ijtimoiy ishlovchilarning 14 % ini tashkil etadi.<sup>88</sup>

Bugungi kunga kelib sog‘liqni saqlash muassasalaridagi ijtimoiy ishchilar bemorga kasalxonadan chiqib ketgandan keyingi ko‘rsatiladigan g‘amxo‘rlik uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish bilan birgalikda boshqa qator vazifalarni bajarishmoqda. Ijtimoiy ishchilar ko‘pincha bemorning oilasi va tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida vositachi sifatida yuzaga chiqadi. Ular tibbiyot

<sup>87</sup> O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari asosida.

<sup>88</sup> Social work and social welfare. P.308.

muassasasi xodimlariga bemorning oilaviy muammolarini va bemorning tuzalishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni tushunishga yordam berishadi. Ular bemorga va uning oilasiga kasallik asoratlari va qayta tiklanish hamda parvarishga taalluqli savollar bo'yicha tushunchalar beradi. Ko'pincha ijtimoiy ishlovchilar bemor holati yomonlashganda yoki vafot etganda oilaga yordam berishadi.

*Tibbiyot muassasalari ijtimoiy ishlovchilari quyidagi funksiyalarini bajarishadi:*

- skrining o'tkazish va sog'liqqa ta'sir etuvchi omillarni baholash;
- bemorga va uning oila a'zolariga ijtimoiy xizmatlarni taklif qilish;
- jiddiy kasallikka chalingan va baxtsiz hodisa tufayli ilgarigi mehnat qobiliyatini yo'qotgan bemorlarga ijtimoiy xizmatlar bo'yicha shartnomा tuzishda yordam berish;
- bemor vafot etganda marhumning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash;
- tibbiyot muassasalariga bemorlar talablaridan kelib chiqib ularga tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda yordam ko'rsatish;
- tibbiy xizmatlar uchun to'lojni moliyalashtirishni tashkil qilishga yordam berish;
- keksalarga uyda g'amxo'rlik qilish va kasalxonadan chiqqan bemorlarga uyda tibbiy yordam ko'rsatish;
- tibbiy xizmat ko'rsatish guruhiga guruh a'zosi sifatida xizmat ko'rsatish va bemorning ruhiy ehtiyojlarini yoki oiladagi vaziyatni boshqalarga tushuntirishga yordam berish;
- bemorning ehtiyojlarini oilada, kasalxona va boshqa tibbiyot muassasalarida, ijtimoiy xizmat agentliklarida, maktabda, ish joyida va umuman jamiyatda himoya qilish;
- shaxslar yoki oilalarga profilaktik ta'lim va oilani rejalashtirish, ovqatlanish, tug'ruqgacha parvarishlash, inson taraqqiyoti va rivojlanishi kabi masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlarining sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda zaruriy tavsiyalar berish.

Kuchli kasbiy malakaga ega bo‘lish ijtimoiy sohadagi tibbiy xizmatchilar uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Tibbiyat muassasalaridagi ijtimoiy ishchilar tibbiy andozalar holatida ishlashlari kerak. Ijtimoiy ishchilar tibbiyat sohasida bilim va tushunchaga ega bo‘lishi ularning o‘z funksiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyat muassasalaridagi, jumladan, kasalxonalardagi ijtimoiy ishchilar har qanday kutilmagan holatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta bilishi, o‘lim va shunga o‘xhash og‘ir vaziyatlarda yuzaga keladigan kuchli bosim ostida yaxshi ishlay olishi kerak.

### **Tayanch atamalar (glossariy)**

**Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish** – aholiga tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni taqsimlash jarayoni

**Davlat byudjetidan moliyalashtirish** – sog‘liqni saqlash tizimini barcha ko‘rinishdagi va darajadagi umumiylar soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirish

**Tibbiy sug‘urta** – aholiga sog‘liqni saqlash tizimida ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishni kafolatlash bo‘yicha sug‘urta shakli

**Majburiy tibbiy sug‘urta** – ishchilarning ish haqidan sug‘urta badallari va ish beruvchilardan ijtimoiy to‘lov shaklida majburiy undiriladigan mablag‘lar hisobidan ishchi yoki uning oila a’zolari sog‘lig‘i bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashni kafolatlashga yo‘naltirilgan dalat ijtimoiy siyosat shakli

**Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta** – ishchi yoki uning oila azolari sog‘lig‘i bilan bog‘liq risklarni qoplash maqsadida ishchi yoki ish beruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda xususiy sug‘urta kompaniyalarining tibbiy sug‘urta xizmatlaridan foydalanish

**“Mediker” dasturi** – AQShda 65 yoshdan oshgan keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni moliyalashtirish maqsadida tuzilgan ijtimoiy dastur

**“Medikeyd” dasturi** – AQShda kam daromadli aholi qatlamlariga (ishsizlar, qashshoqlar va nogironlar) uzoq muddatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatishni moliyalashtirish maqsadida tuzilgan ijtimoiy dastur

**Ijtimoiy-tibbiy xodim** – kasalxonada, kasalxonadan chiqqan yoki uyda davolanayotgan bemorlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi xodim

### **Nazorat uchun savollar**

1. Mamlakatdagi sog‘lijni saqlash tizimi holati va aholining sog‘lig‘i darajasiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
2. Daromadlar darajasining inson salomatligiga ta’sirini baholang?
3. Aholining kasallanish holatini tavsiflash uchun qanday ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi?
4. Jahon amaliyotida sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishning qanday shakllari mavjud?
5. O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash tizimini isloh etish zaruriyati, amalgamoshirish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlarini sharhlab bering?
6. Sog‘lijni saqlash tizimini isloh etishning “Salomatlik I, II, III” dasturlari maqsadi va vazifalari?
7. Ijtimoiy ishlovchilar tibbiy xizmat ko‘rsatishda qanday vazifalar bajaradilar?
8. Tibbiy xizmatlar bozori va uni amal qilish dastaklarini tushuntirib bering?
9. Majburiy tibbiy sug‘urtasi aholini ijtimoiy himoya qilish shakli sifatida?
10. O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishni isloh etish zaruriyati, mohiyati va ustuvor yo‘nalishlarini tushuntirib bering?

### **Testlar**

- 1. Sog‘lijni saqlash tizimini barcha ko‘rinishdagi va darajadagi umumiy soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirish ... deb ataladi ?**
  - a) Byudjetdan moliyalashtirish
  - b) To‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish

- d) Tizimli moliyalashtirish
- e) Manzilli moliyalashtirish

**2. Quyidagi mamlakatlardan qaysi birida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning markazlashgan tizimi amal qiladi ?**

- a) Buyuk Britaniya
- b) Germaniya
- c) Yaponiya
- d) AQSh

**2. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning majburiy sug'urta tizimi qanday tamoyilga asoslanadi ?**

- a) birdamlik
- b) manzillilik
- c) ijtimoiy adolat
- d) erkinlik

**3. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning mablag'larni taqsimlash shakliga ko'ra qanday modellari mavjud?**

- a) Integratsion va shartnomaviy
- b) Davlat va xususiy
- c) To'g'ri va egri
- d) Unitar va federal

**4. Quyidagilardan qaysi biri aholining tibbiy yordam bilan ta'minlanganlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkich hisoblanmaydi?**

- a) kattalar va o'smirlarda turli xil kasalliklar bilan kasallanish hollari soni
- b) kasalxonalardagi o'rinalar soni
- c) barcha mutaxassislikdagi shifokorlar soni
- d) ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati

**5. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning shartnomaviy modeli amal qilishi uchun qanday shartlar bajarilishi kerak? Noto‘g‘ri javobni ko‘rsating?**

- a) Tibbiyot muassasalarining mulki davlat yoki mahalliy hokimiyat organlariga qarashli bo‘lishi kerak
- b) Sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari tibbiyot muassasalari bilan shartnomaviy asosda munosabatlar o‘rnatishi kerak
- c) Sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari tibbiyot muassasalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarmasliklari kerak
- d) Tibbiyot muassasalari faoliyatlarini mustaqil amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak

**6. Qaysi mamlakat tibbiy sug‘urta tizimida katolik, sotsialistik, liberal, kasbga doir, mustaqil, yordamchi umummilliy sug‘urta fondlari ittifoqi ishlaydi?**

- a) Germaniya
- b) Fransiya
- c) Belgiya
- d) Yaponiya

**7. Shaxsiy tibbiy sug‘urta tizimi qaysi mamlakatda keng shakllangan?**

- a) Buyuk Britaniya
- b) Germaniya
- c) Yaponiya
- d) AQSh

**8. Quyidagilardan qaysi tibbiyot muassasalari ijtimoiy ishlovchilari funksiyalari sirasiga kirmaydi?**

- a) kasalxonadan chiqqan bemorlarga uyda tibbiy yordam ko‘rsatish
- b) sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish
- c) bemorning ehtiyojlarini jamiyatda himoya qilish
- d) tibbiy xizmatlar uchun to‘lojni moliyalashtirishni tashkil qilishga yordam berish

**9. Quyidagilardan qaysi biri AQSh shaxsiy tibbiy sug‘urta tizimiga xos emas?**

- a) markazlashmagan
- b) sug‘urta tashkilotlari infratuzilmasi rivojlangan
- d) davlat aralashuvi yo‘q
- e) majburiy

---

## **VII BOB. QARIYA YOSHIDAGI KISHILAR: EHTIYOJLARI VA IJTIMOIY XIZMATLAR**

### **7.1. Qarish nazariyalari va ularni evolyutsiyasi**

Keksalik inson umrining so‘nggi bosqichi hisoblanib, u kishida namoyon bo‘lgan, surunkali kasalliklarga tez-tez yo‘liqadigan aholi guruhini tashkil etadi. Keksa kishi mehnatga layoqatsiz va o‘zgalar yordamiga muhtoj bo‘ladi. Inson organizmida ro‘y beradigan o‘zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta’sirlarga moslashish va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar 55-60 yosh chegarasida vujudga keladi. Keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi – 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin. So‘nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo‘yicha turli yondashuvlar vujudga keldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko‘ra, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-84 yoshdagilar – keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar – juda keksalardir. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-89 yoshdagilar – keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar – uzoq umr ko‘rvuchilar, deb hisoblanadi. Ushbu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tadbiq etib bo‘lmaydi. Chunki, har bir davlatdagi tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi turlidir. Masalan, dunyoda o‘rtacha umr davomiyligi 67 yil bo‘lsa, ushbu ko‘rsatgich Mozambikda – 40 yil, Afg‘onistonda – 43 yil, Zambiyada – 35 yil, O‘zbekistonda – 72,9 yil, Norvegiyada – 80 yil, Yaponiyaada – 82 yildan iboratdir.

Jahonda, jumladan, AQShda keksa yoshdagilarni jami aholi sonidagi ulushini ortishi va pensiya yoshidan keyin umr ko‘rish davri uzunlashuvi tendensiyasini

kuzatish mumkin. Jumladan, AQShda 1900-yilda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 47 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2017- yilga kelib 78,6 yoshga teng bo‘ldi.<sup>89</sup>

Umuman AQShda aholining yosh tarkibini tahlil etadigan bo‘lsak, 1900-yilda 4 % amerikaliklar 65 yoshdan kattalarni tashkil etgan bo‘lsa; 2004-yilda 12%, 2011-yilda 21,2 %, 2020- yilda 25,3 % va 2030 yilda esa 31, 5 % tashkil etishi kutilmoqda.<sup>90</sup>

### *1-jadval*

#### **AQShda 60 yosh va undan katta yoshdagilarning umum aholi soniga nisbati<sup>91</sup>**

<b>65 yosh va undan kattalar / yil</b>	<b>foizda</b>
2010	21,2
2020	25,3
2030	31,5
<b>75 yosh va undan kattalar / yil</b>	
2010	8,1
2020	9,0
2030	11,9
<b>85 va undan kattalar / yil</b>	
2010	2,0
2020	2,2
2030	2,6

*Keksa kishilar hayotini belgilovchi ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida quyidagi muammolar vujudga keldi:*

- hayot faoliyatining sog‘lig‘i bilan bog‘liq holda cheklanganligi (eng ko‘p tarqalgan surunkali kasalliklar – artirit, yurak-qon tomir kasalliklari, qon bosimi kasalligi, arteroskleroz, ortopedik kasallar);
- bandlik (odatda keksalarning 75%i ishlamaydi yoki qisman band bo‘ladi);
- moddiy ahvoli (pensiya miqdorining ish haqidan ancha pastligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, tibbiy xizmat ko‘rsatishning qimmatligi, ijtimoiy ta’milot tizimining cheklanganligi);

---

<sup>89</sup>SocialWelfare, Past and Present. 406 p.

<sup>90</sup>SocialWelfare, Past and Present. 406 p.

<sup>91</sup>SocialWelfare, Past and Present. 406 p.

– ruhiy salomatlik (ruhiyatdagi me'yorsizlik, ya'ni ruhiy jarayonlar harakatchanligining susayganligi).

Keksayayotgan yoshda faol mehnat faoliyatining to‘xtashi munosabati bilan turmush sharoitlari, turmush tarzida, oilaviy va ijtimoiy mavqeida o‘zgarishlar yuz beradi. Kishi keksayayotgan vaqtida ko‘pincha mustaqil turmush kechiruvchi bolalaridan ajraydi, ayrim hollarda yolg‘izlanib qoladi. Ushbu holatga yana jamiyat, yaqinlar bilan aloqalarning susayishi muammosi qo‘shiladi, do‘stlari va tanishlarini, ular vafot etganliklari munosabati bilan yo‘qotadi. Keksaygan sayin yolg‘izlanib qolishlik kuchli ruhiy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagi fuqarolarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi yolg‘iz keksa-qariyalarning ijtimoiy jihatdan ta’minlanib, tinch, farovon yashashlari, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari, uzoq umr ko‘rishlari maqsadida davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlar (siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, axborot-targ‘ibot) qaratilgan bo‘ladi. Ushbu ijtimoiy siyosat doirasiga keksa yoshdagi fuqarolar, siyosat dasturini amalga oshiruvchi muassasalar va subyektlar, barcha toifadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar kiradi.

**Qarilik nazariyalari.** Qarilik holatini baholash va jamiyatga yaxshi moslashishi maqsadida to‘xtovsizlik nazariyasi, faoliyat nazariyasi, almashinuv va rivojlanish nazariyalari ishlab chiqilgan va amal qilmoqda.

To‘xtovsizlik nazariyasi - ushbu nazariya inson hayoti boshlanishida o‘ziga xos xususiyatlarini paydo bo‘lishi bilan belgilanadi va umri mobaynida jiddiy o‘zgarmaydi. U asosan insonning ijtimoiy va yetuk shaxs sifatida rivojlantirib, uning ijtimoiy amaliyotini umr davomiyligiga qarab takomillashtirib borada va shu tariqa inson qarilik sharoitiga moslashadi.

Faoliyat nazariyasi – inson umri davomida shug‘ullanadigan faoliyat turi hisoblanadi.

Rivojlanish nazariyasi – inson umrining har bir davriga ko‘nikish va ijtimoiy hayotga moslashishi tushuniladi.<sup>92</sup>

Almashinish nazariyasi - ushbu holatda yoshlikni keksalikka, oylik ish haqini pensiyaga, ya’ni boshqaruvni boshqa shaxslarga berib o‘zлari ularga iqtisodiy muhtoj, qaram bo‘lgan davr boshlanishi tushuniladi.<sup>93</sup>

## 7.2. “Aholi qarishi” global muommosi va uni xal etish yo‘llari

So‘ngi yuz yillik davomida ijtimoiy siyosat dasturining samarali amalga oshirilishi natijasida aholining umr davomiyligi uzaydi va tug‘ilish koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari pasaydi. Natijada aholining yosh tarkibida 60 va undan katta yoshdagi aholi soni ortib bordi (1901-yilda Buyuk Britaniyada 60 va undan katta yoshdagi aholi soni qariyb 5%ni tashkil etgan holda, 1941-yilga kelib 10%ga yaqinlashdi). Ushbu holat o‘z navbatida demografik holatda aholining qarishi jarayonini vujudga keltirdi.

Aholini qarishi jahon mamlakatlarida pensiya tizimlari moliyaviy barqarorligini ta’minalash, aholi sug‘urta badallarini tartibga solish va pensionerlarga nisbatan to‘lanadigan pensiya badallarini indeksatsiyalash, ularning uzlusizligini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatdagi umr davomiyligi va pensiyaga chiqish yoshini inobatga olgan holda BMT tomonidan mamlakatdagi qarish koeffitsiyentini hisoblashning quyidagi usullari qabul qilingan:

$$W_{60} = \frac{S_{60+}}{S} * 100\%$$

$$W_{65} = \frac{S_{65+}}{S} * 100\%$$

Bu yerda:

$S_{60+}$ ,  $S_{65+}$  - aholi tarkibida 60 yoki 65 yoshdan katta bo‘lgan aholi soni;

---

<sup>92</sup> SocialWelfare, Past and Present. 409 p.

<sup>93</sup> SocialWelfare, Past and Present. 409 p.

*S* – mamlakatdagi umumiy aholi soni.

Odatda  $W_{60}$  koeffitsiyenti rivojlanayotgan, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida qo‘llaniladi. Bunga sabab ushbu mamlakatlarda iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi muammolarning borligi, aholi umr davomiyligi ko‘rsatkichi nisbatan pastligi, aholining pensiyaga chiqish yoshi erta belgilanganligi va boshqa omillar bilan izohlanadi.  $W_{65}$  esa asosan rivojlangan, aholi umr davomiyligi yuqori va aholini pensiyaga chiqish yoshi nisbatan kechroq belgilangan mamlakatlarda qo‘llaniladi.

*2-jadval*

### **J.Boje – Grane – E.Rossetlarning aholini demografik keksayish jarayonini baholash shkalasi<sup>94</sup>**

<b>Bosqichlar</b>	<b><math>S_{60+}, \%</math></b>	<b>Aholining keksayish darajasi</b>
1	<8	<b>Demografik yosh</b>
2	8-10	<b>Aholining qarishi kutilayotgan mamlakatlar</b>
3	10-12	<b>Aholining qarishi boshlanayotgan mamlakatlar</b>
4	>12	<b>Demografik keksa mamlakatlar</b>
	12-14	<i>Demografik keksayishning boshlang‘ich darajasi</i>
	14-16	<i>Demografik keksayishning o‘rta darajasi</i>
	16-18	<i>Demografik keksayishning yuqori darajasi</i>
	>18	<i>Demografik keksayishning eng yuqori darajasi</i>

Agar mamlakatda aholini qarishi koeffitsiyenti  $W_{60}$  orqali hisoblangan bo‘lsa unda mazkur mamlakatlar J.Boje – Grane – E.Rosset shkalasi bo‘yicha baholanadi. Bu turdagи guruhlash amalga oshirilganda mamlakatlar demografik yosh, qarilik kutilayotgan, keksayish boshlanayotgan va demografik keksa mamlakatlar guruqlariga ajratiladi. O‘z o‘rnida demografik keksa mamlakatlar demografik keksayishning boshlang‘ich darajasidagi mamlakatlar, keksayishning o‘rta darajasidagi, yuqori va eng yuqori daradagi mamlakatlarga ajratiladi (2-jadval).

Mamlakatlarni aholini keksayish koeffitsiyenti  $W_{65}$  orqali hisoblangan taqdirda OON shkalasi bo‘yicha mamlakatlar yosh mamlakatlar, keksayish arafasidagi va aholisi keksa mamlakatlar guruqlariga ajratiladi (3-jadval).

---

<sup>94</sup> Медков В. М. Демография. М.: Инфра-М, 2008. 688 с. ма’лумотлари асосида тузилган.

*3-jadval*

### BMTning aholini demografik keksayish darajasini baholash shkalasi<sup>95</sup>

<b>Bosqichlar</b>	<b>S<sub>65+%</sub></b>	<b>Aholining keksayish darjasি</b>
1	<4	<b>Demografik yosh aholi</b>
2	4-7	<b>Demografik keksayish arafasidagi mamlakatlar</b>
3	>7	<b>Demografik keksa mamlakatlar</b>

BMT tomonidan aholini demografik yosh tarkibi jihatdan keksayishini baholash amaliyotida yuqorida keltirilgan ikki usulni umumiy tarzda o‘zida aks ettiruvchi uslubiyotga ko‘ra, mamlakatlardagi jami aholi tarkibida 60 yosh va undan kattalarning ulushiga ko‘ra demografik yosh, keksayib borayotgan, keksa va demografik keksa mamlakatlar guruhlariga ajratiladi (4-jadval).

*4-jadval*

### Mamlakatlarning aholini keksayish darajasiga ko‘ra guruhlanishi<sup>96</sup>

	<b>Jami aholi tarkibida 60 va undan katta yoshdagilarning ulushi, %da</b>	<b>Guruhning nomi</b>
I	<i>8 foizdan kam</i>	<i>Demografik yosh</i>
II	<i>8-10</i>	<i>Keksayib borayotgan</i>
III	<i>10-12</i>	<i>Keksa</i>
IV	<i>12 foizdan yuqori</i>	<i>Demografik keksa</i>

Aholini mehnatga layoqatli va pensiya yoshidagi aholi qatlaming o‘zaro nisbati orqali demografik vaziyatlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga ta’siri baholanadi. Keksayish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda bugungi kunda demografik yukning vujudga kelishi kuzatilmoxda. Bunda mehnatga layoqatli va pensionerlar o‘rtasidagi nisbatlarning buzilishi holati ko‘zga tashlanmoqda.

Aholini demografik keksayish jarayonining mamlakat pensiya tizimiga ta’siri potensial va pensiya yuklari orqali baholanadi.

<sup>95</sup> Медков В. М. Демография. М.: Инфра-М, 2008. 688 с. ма’лумотлари асосида тузилган

<sup>96</sup> Birlashgan millatlar tashkiloti ma’lumotlariga асосан muallif tomonidan tuzilgan.

Potensial yuk odatda 15-16 yoshgacha bo‘lgan aholi sonining (mamlakatda amal qilayotgan qonunchilikka asosan mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan, yosh bo‘lgan aholi qatlami) mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan aholi soniga nisbatan aniqlanadi.

Demografik keksayishning pensiya yuki esa pensionerlar sonini mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki ko‘rsatkichlarni o‘zaro yig‘indisini hisoblagan holda mamlakatdagi demografik yuk ko‘rsatkichi aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich mehnatga layoqatli bo‘lgan aholining qay darajada bosim ostida qolganini ifodalaydi.

Keltirib o‘tilgan turli indikatorlar va ko‘rsatkichlar tizimi har bir mamlakatdagi demografik vaziyatni munosib baholash imkonini beradi. Olingan natijalar orqali esa amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish mumkin bo‘ladi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida aholining yosh tarkibida keksalarning ulushi ortib borish holati rivojlangan mamlakatlarga xos xususiyat edi. Bugungi kunda esa ushbu muammo dunyo mamlakatlarida global aholini qarishi muammosini vujudga keltirib chiqardi. Aholini global qarishi rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillar mobaynida davom etib kelayotgan bo‘lsa ham rivojlanayotgan, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa endilikda boshlandi.<sup>97</sup>

Demografik vaziyatlarda aholini keksayish jarayonini ikki turi mavjud bo‘lib, ular aholining yosh tarkibi bo‘yicha olib qaraganda keksalarning ulushini ortishiga olib kelgan sabablarga ko‘ra “quyi” va “yuqori” qatlamdan keksayish deb nomланади.<sup>98</sup>

“Quyi qatlamdan keksayish” deganda, mamlakatda tug‘ilish koeffitsiyentining avvalgi yillarga nisbatan kamayib ketishi nazarda tutiladi. Ma’lum bir mamlakatdagi demografik vaziyat o‘zgarishi kuzatilgan taqdirda,

---

<sup>97</sup> Social policy. P. 147-148.

<sup>98</sup> Медков В.М. Демография. М.: Инфра – М, 2008. С. 133-136.

ushbu mamlakatda 20-30 yildan so‘ng aholi tarkibida pensiya yoshidagi aholi va mehnat resurslari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib boradi va natijada pensiya yoshidagi aholi soni ortib borishi namoyon bo‘ladi.


“Yuqori qatlamdan keksayish” – bunda aholining umr davomiyligi ko‘rsatkichi ortib boradi. O‘z navbatida mamlakatda pensiya yoshidan keyingi davrda kutilayotgan umr davomiyligi ortib boradi. Ma’lum bir davr o‘tgandan so‘ng esa aholi tarkibida pensionerlarning ulushi ortib borishi kuzatiladi.

Demografik vaziyatning o‘zgarishi jarayonida bir fazadan boshqasiga o‘tishda aholini qarishiga sabab bo‘layotgan ikki omilni ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Bular umr davomiyligining ortishi hisobiga o‘lim darajasining kamayishi va tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishidir.

Aholi umr davomiyligi ko‘rsatkichini tahlili ko‘rsatishicha, ushu ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etganlik darajasi bilan bog‘liqdir. Ya’ni mamlakat qanchalik iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lsa, aholining umr ko‘rish davomiyligi shunchalik yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi.

Aholining qarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil mamlakatlardagi tug‘ilish koeffitsiyentidir. Ushbu umr davomiyligi ko‘rsatkichi aksariyat hollarda rivojlanish tendensiyasiga ega. Mamlakat qanchalik rivojlangan bo‘lsa, unda tug‘ilish koeffitsiyenti past, rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda esa aksincha, yuqori koeffitsiyentni qayd etadi.

Odatda amaliyotda aholini “quyi” yoki “yuqori” qatlamdan qarishini baholashni aholining yosh va jins qatlamlari o‘zaro bir tizimga keltiriladi va o‘ziga xos piramida tuziladi. Bunda tug‘ilish sonining ortishi yoki umr ko‘rish davomiyligiga qarab mazkur piramidaning shakli o‘zgarib boradi. Odatda mamlakatda aholi umr ko‘rish davomiyligi ko‘rsatkichi ortishi bilan piramida shakli kengayib boradi. Piramidaning o‘zgarishiga qarab u to‘rt fazaga ajratiladi (1-rasm).



1-rasm. **Aholining yosh va jins tarkibi piramidasining turli demografik vaziyatlarda o‘zgarishi<sup>99</sup>**

Birinchi faza shaklidagi piramidada aholining tug‘ilish soni yuqori bo‘ladi. Bunda mamlakatdagi aholi tarkibida chaqaloqlar va yoshlarning ulushi ko‘p bo‘lishi bilan izohlanadi. Keyingi yillarda esa mamlakatda mehnat resurslari soni yildan-yilga ortib borishi kuzatiladi.

Ikkinci faza esa mamlakatda tug‘ilish sonining barqaror sur’atlarda o‘sib borishi bilan ifodalanadi. Bunday vaziyat amal qilayotgan mamlakatlarda birdamlik pensiya tizimi faoliyati samarali hisoblanadi.

Uchinchi faza esa o‘z navbatida mamlakatda tug‘ilish koeffitsiyentining qisman barqarorligi va aholi umr davomiyligi uzayganligi bilan ifodalanadi.


To‘rtinchi fazada aholi umr davomiyligi yuqori bo‘lib, mamlakatda tug‘ilish sonining qisqarishi bilan ifodalanadi. Bunday vaziyatlar birdamlik pensiya tizimi amal qilayotgan mamlakatdagi pensiya fondlarining moliyaviy holatiga salbiytasir ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan to‘rt faza har bir mamlakatda amal qiladi. Mazkur fazalar demografik o‘zgarishlar oqibatida o‘zaro bir fazadan keyingi fazaga o‘tishi kuzatiladi.

1945-yilda amerikalik demograf olim Frenk Noutstayn tomonidan mamlakatlarda yuqorida keltirilgan fazalarning almashinish jarayonini “Aholini takror ishlab chiqarish jarayonining o‘zgarishi” natijasida vujudga keladi deb ta’kidlaydi va ushbu vaziyatni u o‘zining demografik o‘zgarishlar fazalari chizmasi

<sup>99</sup> Медков В.М. Демография. М.: Инфра – М, 2008. С. 133-136. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bilan isbotlaydi (2-rasm). Ushbu davrga qadar esa fazalarning almashinish jarayoni “demografik revolyutsiya” deb nomlangan edi.



2-rasm. Aholini takror ishlab chiqarish jarayonining o‘zgarishi<sup>100</sup>

F. Noutstayn birinchi faza uchun yuqori tug‘ilish va yuqori o‘lim darajalari xos deb hisoblagan. Mazkur bosqichda o‘rta va undan yuqori yoshdagilarning soni yoshlarning soniga nisbatan kam bo‘ladi. Ushbu faza Nigeriya, Uganda va Zambiya uchun xos hisoblanadi, mazkur mamlakatlarda bir onaga to‘g‘ri keladigan tug‘iladigan chaqaloqlar soni oltita bolaga tengdir.<sup>101</sup>

Ikkinchi fazada esa tibbiy xizmatlarning rivojlanishi natijasida mamlakatda o‘lim darjası qisqaradi, tug‘ilish koeffitsiyenti esa yuqoriligicha qoladi. Iroq, Gvatemala va Gana ushbu fazada hisoblanadi.<sup>102</sup>

Uchinchi bosqichda esa aholi tarkibida keksa yoshdagagi aholi sonining ortishi va ularning vafot etishi hisobiga mamlakatda o‘lim darjası nisbatan oshadi, tug‘ilish koeffitsiyenti esa avvalgi ikki fazadagi ko‘rsatkichdan ma’lum bir

<sup>100</sup> Рунова Т.Г. Демография: Учебное пособие. М.: МГИУ, 2002. С. 564.

<sup>101</sup> Щербакова Е.М. Мировой демографический барометр (электронный ресурс): ДемоскопWeekly. 2011. № 481-482. [URL: http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php](http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php) (дата обращения: 26.05.14)

<sup>102</sup> Щербакова Е.М. Мировой демографический барометр (электронный ресурс): ДемоскопWeekly. 2011. № 481-482. [URL: http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php](http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php) (дата обращения: 26.05.14)

darajada pasayadi va bir maromga kelib qoladi. Gabon, Hindiston va Malayziya mamlakatlari mazkur bosqichda hisoblanadi.<sup>103</sup>

So‘ngi to‘rtinchi fazada esa mamlakatda tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyenti bir xil ko‘rsatkichga kelib qoladi va ushbu holat orqali turli demografik vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni vujudga keltiradi. Hozirda dunyo aholisining yarmi ushbu bosqichda bo‘lgan Germaniya, Yaponiya, Braziliya va boshqa mamlakatlarda yashaydi.<sup>104</sup>

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida demografik vaziyatlarning o‘zgarishi jarayonida bir fazadan boshqasiga o‘tishda aholini qarishiga sabab bo‘layotgan ikki omilni, umr davomiyligining ortishi va tug‘ilish koeffitsiyentining pasayishini farqlash mumkin.

Aholining yosh tarkibi mamlakat aholisini yoshi bo‘yicha guruhlarga ajratib, ular o‘rtasidagi nisbatlarni tahlil qilish va prognozlashga zamin yaratadi. Ushbu aholini yosh kontingenti jihatidan turli guruhlarga ajratish mamlakatdagi ijtimoiy-demografik vaziyatlarni xarakterlaydi. 0-16 yoshgacha bo‘lgan aholi qatlami o‘z navbatida mакtab yoshidagi, mehnat qilish huquqiga ega bo‘lmagan aholi qatlami hisoblansa, undan keyingi davr ya’ni, mehnat qilish qobiliyati va huquqiga ega bo‘lgan aholini ajratib beradi. Ushbu guruhlash orqali tahlil qilishda ayrim mamlakatlarda erkaklar va ayollarni pensiyaga chiqish yoshlari turlicha belgilangan bo‘lib, bunda aholining jinsiy tarkiblarini inobatga olish zarur.

Umuman XX asr oxirlarida jahonda aholini qarish global jarayoni boshlandi bu esa o‘z navbatida har bir rivojlangan mamlakatda o‘tkir demografik muammo bo‘lib qolmoqda.

Yevropaning ko‘philik rivojlangan mamlakatlarida ikkinchi jahon urushidan keyin ushbu muammoni hal etish maqsadida yolg‘iz keksa va nogironlarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy ta’midot dasturlari ishlab chiqildi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning maxsus ixtisoslashgan tizimlari yaratildi. Buyuk Britaniyada

---

<sup>103</sup> Щербакова Е.М. Мировой демографический барометр (электронный ресурс): ДемоскопWeekly. 2011. № 481-482. [URL:demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php](http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php) (дата обращения: 26.05.14)

<sup>104</sup> Щербакова Е.М. Мировой демографический барометр (электронный ресурс): ДемоскопWeekly. 2011. № 481-482. [URL:demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php](http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php) (дата обращения: 26.05.14)

keksa va nogironlarga ijtimoiy-tibbiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar sifatida poliklinikalar, shifoxonalar, qariyalar uylari, davlat va xususiy sektordagi hamshira parvarishlash uylari, nogironlar uylari, nogiron va ruhiy kasalga chalingan kishilar uchun mehmonxona tipidagi yotoqxonalar faoliyat ko‘rsatadi. Keksa va nogironlarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlar, umumiy amaliyot shifokori, gerontolog, patronaj hamshirasi, psixolog, klinika shifokorlari, tuman tibbiyot hamshiralardan tashkil etilgan guruhrar keng tarqalgan. Ushbu guruhrar o‘z faoliyatida har bir holatga alohida yondashib, uni har tomonlama va chuqr o‘rgangan holda, mijozga uning ehtiyojlari e’tiborga olingan shaxsiy reja asosida yordam ko‘rsatadi. Buyuk Britaniyada yolg‘iz keksa va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha asosiy mas’uliyat mahalliy hokimiyatga yuklatilgan bo‘lib, moliyaviy mablag‘ning katta qismi ushbu maqsad uchun ajratiladi. Mamlakatda tibbiy yordam sohasida umumiy amaliyot shifokori faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida “hamshiralik ishi menejeri” lavozimi ta’sis etilgan. Ushbu mutaxassis yordam ko‘rsatish jarayonini muvofiqlashtiradi va zarur xizmatlar bo‘yicha maslahatlar beradi.

Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida yolg‘iz keksalarga uy sharoitida yordam ko‘rsatish tizimi tashkil qilingan. Jumladan, Vengriyada yolg‘iz qariyalar uchun maxsus kunduzgi muloqotda bo‘lish va muolaja uylari faoliyat ko‘rsatadi. Fransiyada yolg‘iz keksalar oila homiyligiga olingan, Boltiq bo‘yi mamlakatlari Litva, Latviya va Estoniyada esa yolg‘iz qariyalarga uy sharoitida yordamning patronaj xizmati rivojlangan. Ushbu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodimlar yolg‘iz keksa bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig‘ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va suhbатdosh bo‘ladi.

### **7.3. Qariyalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish**

Keksa yoshdagi kishilarning sog‘lig‘i va kasallanish xususiyatlari aholining boshqa yosh guruhraridan jiddiy farq qiladi. Jumladan, kishi keksaya borgan sari

surunkali kasalliklarning soni oshib boradi va ularning sababini aniqlash ancha qiyin bo‘ladi.

Keksa kishilar surunkali kasalliklar bilan bir qatorda, turli xildagi patologik 2-5 xil kasalliklar bilan kasallanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagagi kishilarga tibbiy yordamning maxsus shakli – geriatrik yordam ko‘rsatiladi.

*Keksa yoshdagilarga tibbiy yordam ko‘rsatish quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:*

- geriatrik yordam davolash-profilaktika choralari umumiyligining tizimining tarkibiy qismi hisoblanishi lozim;
- tibbiy yordam keksalarga maksimal darajada yaqinlashgan bo‘lib, tibbiy-ijtimoiy muassasalar va hududiy poliklinikalar huzurida geriatrik markazlar va maslahat geriatrik markazlari tashkil etilib, ularga geriatrik bemorlarni qabul qilish vaqtlanini kiritish lozim;
- uchastka terapevti geriatrik bemorlarni boshqarish jarayonida asosiy o‘rin tutishi zarur.

Geriatrik markazlar ambulatoriya-poliklinika muassasalarining yangi shakli hisoblanib, ular o‘z vazifasi va faoliyatiga hajmiga ko‘ra hududiy poliklinikalar huzurida tashkil etilgan maslahat geriatrik markazlari va geriatrik markazlarga bo‘linadi.

Maslahat geriatrik markazlar viloyat, tuman, shahar poliklinikalari, qishloq shifokorlik punktlari qoshida tashkil etiladi. Bunday markazlarning vazifasi keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish, barcha tuman poliklinikalarida davolash-maslahat yordami va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish hisoblanadi. *Markazda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:*

- geriatriya bo‘yicha uchastka shifokori va boshqa mutaxassislarning malakasini tizimli ravishda oshirish, geriatrik bemorlarni davolash bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish, qarish profilaktikasi va davolashning zamonaviy geriatrik usulini, geroformokologiyaning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish;

- shifokorlarning keksalar uchun rejali tarzda maslahatlar o‘tkazishi va tashkil etishi;
- tuman (shahar)da yashovchi keksalar ro‘yxatini tuzish, surunkali keksa bemorlarni davolash va doimiy kuzatishda bo‘lishi lozim.

Geriatric markazlar keksalarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish uchun ijtimoiy ta’midot organlari, Qizil yarim oy jamiyatni va boshqa tashkilotlar bilan tizimli aloqani amalga oshiradi, kasallikni kamaytirish bo‘ycha chora-tadbirlar ishlab chiqadi, barvaqt qarishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha aholi o‘rtasida sanitar-ma’rifiy ishlari olib boradi.

Yosh ulg‘ayib borgan sari keksa kishining umumiy zaifligi va harakatchanligining cheklanganligi ularga uy sharoitida tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishni taqozo etadi. Keksa bemorlarga uy sharoitida tibbiy yordam quyidagi masalalar: shaxsiy gigiena to‘g‘risida maslahat, to‘g‘ri ovqatlanish, davolash badan tarbiyasining harakatlantiruvchi rejimi bo‘yicha tavsiyalar berishi lozim.

Geriatric xizmat ko‘rsatishning muhim shakli – bu kunduzgi geriatric shifoxonalar hisoblanadi. Bunday shifoxonalarda geriatric bemorlarga kunduzi tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi. Bemor shifoxonaga ehtiyojiga qarab har kuni yoki belgilangan kunlari kelib ko‘rinadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, kunduzgi geriatric shifoxonalarda bemorlarni boqishga ketadigan xarajatlar miqdori odatdagi shifoxonalarga qaraganda 53 foiz kam bo‘ladi.

Bugungi kunda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida tibbiy-ijtimoiy ta’midot xizmatining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tibbiy-ijtimoiy markazlar tashkil qilingan. Ularning vazifasi keksa yoshdagи kishilar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish, keksalarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy-gigienik masalalar bo‘yicha maslahatlar tashkil qilishdir.

Keksa bemorlar va nogironlarni davolash tizimida tiklash terapiyasi – reabilitatsiya alohida o‘rin egallaydi. Bunda choralar majmuasi kasallanish davrida nogironlikning oldini olish va nogironlarga jismoniy, ruhiy, kasbiy

mukammallikka erishishga yordamlashishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Keksa yoshdagi kishilarni reabilitatsiya qilish katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, kishi qariy boshlashi bilan sog‘liqni tiklash muolajasiga ehtiyoj yosh keksaygan sari oshadi. Reabilitatsiya jarayonida keksa kishilarga xizmat ko‘rsatish tibbiy va ijtimoiy choralarini muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun reabilitatsiya bo‘limi yoki markazlari umumiyligi tipdagi shifoxonalar, geriatrik markazlar qoshida tashkil qilinadi. Ularda davolash statsionar yoki ambulatoriya sharoitida o‘tkaziladi.

AQShdagi qariyalarga xizmat ko‘rsatishning muhim bir shakli – bu qariyalar uyidir. Qariyalar uyida yashashni xohlovchi 85 va undan katta yoshdagi kishilar juda ko‘p talablarga javob berishlari kerak. Eng avvalo, kishi yolg‘iz bo‘lishi, ya’ni u bilan birga yashaydigan jufti bo‘lmasligi, davolashga jalb qilingan, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yo‘q yoki aqliy jihatdan zaif bo‘lishi kerak.

Qariyalarni ijtimoiy himoya qilish borasida Osiyo mamlakatlari tajribasi ham e’tiborga loyiqdir. Osiyoning ko‘pchilik davlatlarida qariyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning davlat, nodavlat va oilaviy yordam shakllari keng tarqalgan.

Yaponiyada davlat darajasida ijtimoiy sug‘urtalash jamg‘armalari hisobidan yolg‘iz keksa va nogironlarni kasal bo‘lgan holatlarda uy sharoitida tibbiy xizmat harajatlarini qisman kompensatsiyalash dasturi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda yolg‘iz keksalar va nogironlarni boqishda oilaga vaqtinchalik yordam beruvchi kunduzgi statsionarlar soni ham ko‘paymoqda.

Jumladan, Indoneziyada qariyalarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordam boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib, u davlat va oilaviy yordamdan tashkil topgan. Indoneziyaliklar qariyalarni, oilaning keksa a’zolarini chuqur hurmat qilishadi. Indoneziya olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, Indoneziyada qariyalar uchun asosiy daromad manbai oila hisoblanadi. Tadqiqotda qariyalarning 42 foizi farzandlaridan moliyaviy yordam olishi, 26 foizi turmush o‘rtog‘idan va oilaning qolgan a’zolaridan, 32 foizi esa ish haqidan daromad olishi aniqlangan.

Hindistonda qariyalarni mutlaq va nisbiy sonining ortishi muhim demografik muammo hisoblanadi. Mamlakat hozirgi vaqtida qariyalar soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1991-yilda mamlakatda qariyalar (60 yosh va undan yuqori) soni 55,3 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib ularning soni 75,9 mln kishiga yetgan yoki 37,2 foizga ko‘paygan. BMT demograflarining taxminiga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatda qariyalar soni 136,5 mln kishiga yetadi (jami aholining 10 %i). Bu mamlakatda ijtimoiy-demografik siyosatni shakllantirish va qariyalar uchun xizmatlarni rejalashtirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini taqozo etadi. Hindistonda muhtoj keksalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish an’anasi mavjud. Qariyalar, jumladan, kambag‘al, kasal, uysiz qariyalar davlat va turli xayriya tashkilotlaridan yordam oladi. Hindiston hukumati 1984-yilda qariyalarga xizmat ko‘rsatuvchi birinchi ko‘ngillilar tashkilotiga rasmiy mablag‘ ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. 1992-yilda mamlakatda “Aholi farovonligi” vazirligi tomonidan “Keksa yoshda bardamlik” dasturi ishlab chiqilgan. Uning maqsadi qariyalar va kunduzgi muloqotda bo‘lish uylarida ishlovchilar uchun zarur subsidiyalar olishda yordam ko‘rsatuvchi ko‘ngilli tashkilotlar faoliyatini rag‘batlantirish, qariyalar uchun bepul tibbiy xizmat ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan.

*Hozirgi vaqtida Hindistonda davlat darajasida faoliyat ko‘rsatayotgan 5 ixtiyoriy xayriya tashkilotlari mavjud:*

- Bharat Samai pensionerlar Assotsiatsiyasi;
- CARITAS Hind tashkiloti;
- Yoshi bo‘yicha pensionerlarning Hind Assotsiyasi;
- “Qariyalarga yordam” jamiyati;
- Qariyalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish jamiyati.

Jahon mamlakatlarida yolg‘iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tajribalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish orqali aholini ushbu guruhining ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xizmatlarning asosiy iste'molchilari hisoblanadi. *Keksalarni ijtimoiy himoyalashning asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:*

- keksalikda daromadlarni kafolatlash, jahonning ko‘pgina inson huquqlarini himoyalash tashkilotlarining hujjatlarida va xalqaro mehnat normalari bilan har bir shaxs keksalik chog‘ida daromadlar bilan ta’minlanganligini ko‘zda tutuvchi me’yoriy hujjatlar mavjud;
- keksalarni daromadlarini kafolatlash, ularni sog‘liqni saqlash va dori – darmonlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirilishini ta’minlashdir;
- daromadlarni kafolatlash esa, o‘z navbatida har bir bir mamlakat o‘z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatidan kelib chiqib pensiya islohotlarini olib borish.

*Fikrimizcha, O‘zbekistonda xorij tajribasidan foydalanib:*

- Buyuk Britaniya tajribasida ko‘rilgan “Ijtimoiy xodim”, “Patronaj hamshirasi” singari mutaxassis kadrlarni tibbiyat kollejlarida, “Gerontologiya” ixtisosligi bo‘yicha kadrlarni oliygohlarda tayyorlashni amaliyatga kiritish va shu bilan bog‘liq holda davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritish;
- Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi asosida, respublikamizning shahar, qishloq va ovullarida yashovchi yolg‘iz keksa va nogironlarga uy sharoitida xizmat ko‘rsatuvchi tibbiy-ijtimoiy yordam patronaj brigadalarini tashkil etish va ularning faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish;
- Fransiya tajribasi bo‘yicha yolg‘iz keksalarni oila homiyligiga olish tizimini kengaytirish;
- Yaponiya tajribasiga tayangan holda yolg‘iz keksalarga qarashda oilaga vaqtincha yordam beruvchi kunduzgi statsionarlar tashkil qilish.

### Tayanch atamalar (glossariy)

**To‘xtovsizlik nazariyasi** – ushbu nazariya inson hayoti boshlanishida o‘ziga xos xususiyatlarini paydo bo‘lishi bilan belgilanadi va hayoti mobaynida jiddiy o‘zgarmaydi.

**Faoliyat nazariyasi** – inson hayoti mobaynida shug‘ullanadigan faoliyat turi hisoblanadi.

**Rivojlanish nazariyasi** – inson umrining har bir davriga ko‘nikish va ijtimoiy hayotga moslashishi tushuniladi

**Almashinish nazariyasi** – yoshlikni keksalikka, oylik ish haqini pensiyaga, ya’ni boshqaruvni boshqa shaxslarga berib o‘zлari ularga ijtimoiy jihatdan muhtoj bo‘lgan davr boshlanishi tushuniladi

**CARITAS Hind tashkiloti** – CARITAS Xalqaro tashkiloti a’zosi bo‘lib, butun Hindiston bo‘yicha kasaba uyushmalari darajasida faoliyat ko‘rsatadi. Bu davlat darajasidagi rasmiy tashkilot bo‘lib, kasal, kambag‘al va yolg‘iz qariyalarga yordam ko‘rsatadi.

**Bharat Samai pensionerlar Assotsiatsiyasi** – pensionerlar assotsiatsiyasining Butun Hind federatsiyasidir. Bu tashkilot markaziy va davlat muassasalaridagi, yarim hukumat tashkilotlaridagi pensionerlarni birlashtiradi, tegishli organlar bilan muzokaralar o‘tkazadi va oiladagi mojarolarni hal etishda yordam ko‘rsatadi.

**“Qariyalarga yordam” jamiyatি** – muhtojlarga yordam ko‘rsatuvchi tashkilot bo‘lib, uning vazifasi yolg‘iz keksalarni boqish va ularga har tomonlama yordam ko‘rsatish, qariyalarning mehnat faoliyati to‘xtashi bilan ularning sog‘lom turmush kechirishiga ko‘maklashishdir.

**Quyi qatlamdan keksayish** – mamlakatda tug‘ilish koeffitsiyentining kamayib ketishi nazarda tutilib, ma’lum bir mamlakatdagi demografik vaziyatlar o‘zgarishi kuzatilgan taqdirda, mazkur mamlakatda 20-30 yildan so‘ng aholi tarkibida pensiya yoshidagi aholi va mehnat resurslari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib boradi va pensiya yoshidagi aholi soni ortib borishi kuzatiladi

**Yuqori qatlamdan keksayish** – bunda aholining umr davomiyligi ko‘rsatkichi ortib boradi va mamlakatda pensiya yoshidan keyingi davrda kutilayotgan umr davomiyligi ortib, ma’lum bir davr o‘tgandan so‘ng esa aholi tarkibida pensionerlarning ulushi ortib borishi kuzatiladi

**Demografik yuk ko‘rsatkichi** – pensionerlar sonining mehnat layoqatiga ega bo‘lgan aholi soniga nisbati

### **Nazorat uchun savollar**

1. Qarish nazariyalari va ularni rivojlanish evolyutsiyasini izohlang?
2. Keksa kishilar hayotining ijtimoiy shart-sharoitlarida qanday muammolar mavjudligini sanab bering?
3. “Aholi qarishi” global muammosi mohiyati nimadan iborat va uning sabablarini sharhlab bering?
4. “Aholi qarishi” global muammolarini hal etish yo‘llari nimalardan iborat?
5. Keksa yoshdagilarga tibbiy yordam ko‘rsatishning tamoyillari nimalardan iborat?
6. Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda geriatrik markazlarning o‘rni nimalardan iborat?
7. Hindistonda pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab quvvatlovchi qanday assotsiatsiyalarni bilasiz?
8. Qarilarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini sharhlab bering?
9. Demografik yuk ko‘rsatkichi nima va qanday aniqlanadi?
10. Aholini qarishi ko‘rsatkichi va uni aniqlash uslubiyotini sharhlab bering?

### **Testlar**

**1. 60-74 yoshdagilar-qariyalar, 75-84 yoshdagilar – keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar – juda keksalardir. Ushbu ko‘rsatkichlar nimani anglatadi?**

- a) keksalik davrlarini
- b) keksalikning gerontologik tasnifini
- d) keksa yoshdagi aholi qatlamini
- e) keksalikning Jahon sog‘liqni saqlash tasnifini

**2. 60-74 yoshdagilar–qariyalar, 75-89 yoshdagilar – keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar – uzoq umr ko‘rvuchilar. Ushbu yondashuv nimani anglatadi?**

- a) keksalik davrlarini
- b) keksalikning gerontologik tasnifini
- d) keksa yoshdagi aholi qatlamini
- e) keksalikning Jahon sog‘liqni saqlash tasnifini

**3. Qanday nazariya inson hayoti boshlanishida o‘ziga xos xususiyatlarini paydo bo‘lishi bilan belgilanadi va umri mobaynida jiddiy o‘zgarmaydi?**

- a) to‘xtovsizlik nazariyasi
- b) faoliyat nazariyasi
- d) rivojlanish nazariyasi
- e) almashinish nazariyasi

**4. Qanday nazariyada keksalik inson umri davomida shug‘ullanadigan faoliyat turi deb hisoblanadi?**

- a) to‘xtovsizlik nazariyasi
- b) faoliyat nazariyasi
- d) rivojlanish nazariyasi
- e) almashinish nazariyasi

**5. Qanday nazariyaga ko‘ra keksalik inson umrining har bir davriga ko‘nikish va ijtimoiy hayotga moslashishi tushuniladi?**

- a) to‘xtovsizlik nazariyasi
- b) faoliyat nazariyasi
- d) rivojlanish nazariyasi
- e) almashinish nazariyasi

**6. Qaysi nazariyada yoshlikni keksalikka, oylik ish haqini pensiyaga, ya’ni boshqaruvni boshqa shaxslarga berib o‘zlari ularga muhtoj bo‘lgan davr boshlanishi tushuniladi?**

- a) to‘xtovsizlik nazariyasi
- b) faoliyat nazariyasi

- d) rivojlanish nazariyasi
- e) almashinish nazariyasi

**7. Qanday tibbiy xizmat ko‘rsatish turida chora-tadbirlar majmuasi kasallanish davrida nogironlikning oldini olish va nogironlarga jismoniy, ruhiy, kasbiy yetuklikka erishishga yordamlashishga yo‘naltirilgan bo‘ladi?**

- a) reabilitatsiya
- b) salomatlik zonasi
- d) davolash-sog‘lomlashtirish majmuasi
- e) Geriatrik xizmat ko‘rsatish

**8. Qanday xizmat ko‘rsatish shakli kunduzgi geriatrik shifoxonalarda amalga oshiriladi?**

- a) reabilitatsiya
- b) salomatlik zonasi
- d) davolash-sog‘lomlashtirish majmuasi
- e) geriatrik xizmat ko‘rsatish

**9. Iqlim bilan davolash, badan tarbiyasi orqali davolash, mehnat terapiyasi, fizik davolash va boshqa davolash usullari nimani anglatadi?**

- a) reabilitatsiya
- b) salomatlik zonasi
- d) davolash-sog‘lomlashtirish majmuasi
- e) geriatrik xizmat ko‘rsatish

**10. Qaysi tashkilot ko‘ngilli xayr-ehson, hukumat subsidiyasi hisobidan mablag‘ bilan ta’minlash kabi ishlar bilan shug‘ullanadi?**

- a) BMT
- b) Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar assotsiatsiyasi
- d) Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti
- e) Yoshi bo‘yicha pensionerlarning Hind Assotsiatsiyasi

---

## VIII BOB. IJTIMOIY ISHNING GLOBALLASHUVI

### 8.1. Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish va globallashuv

Globallashuv xalqaro ahamiyatga ega iqtisodiy, siyosiy, madaniy va informatsion omillarning alohida davlatlardagi ijtimoiy voqelikka ta'siri jarayonidir. Hozirgi globallashuv jarayonidagi asosiy g'oya: har qanday yangi keskin texnologik o'zgarish jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini emas, balki insonning hamma turmush tarzida chuqur o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Hozirgi davrda globallashuvning uch manbai mavjud: kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar; investitsiyalardagi yangi jarayonlar; dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishini ta'minlash. Globalizatsiyaga to'g'ri yondashuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlikni ta'minlaydi, davr zarbalaridan kamroq zarar ko'rib aholi turmush darajasini oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta'minlaydi, qo'shni davlatlar bilan muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Globallashuv deganda umumbashariy taraqqiyotning shakllanish tendensiyasi tushuniladi. Ushbu tendensianing asosini hozirgi zamon kishilik jamiyatini birlashtirib turgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kommunikatsion aloqalar tashkil etadi. Ayni vaqtda umumbashariy o'zaro aloqadorlikning kuchayib borayotganligi tufayli shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning samarali yo'li deb topilgan madaniyat tiplari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayot shakllari tez tarqalib va o'zlashtirilib borilmoqda. Ushbu ehtiyoj va qadriyatlarning shakllanishi umumbashariy xarakter kasb etmoqda.

Globalizatsiya jarayonlari rivojlanib borishi sharoitida, jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish zarurati ham ortib bordi. Bunda aholi sonining ortib borishi natijasida uy-joy bozorida aholining turar joyga bo'lgan talabi ortib boradi va uysizlik muammosi vujudga keldi; mehnat bozorida yangi ish o'rinaliga bo'lgan talab ortdi va ayrim mamlakatlardla ishsizlik muammosi vujudga keldi; rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchini oqib o'tishi kuzatildi; immigrantlar

hisobiga rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot xarajatlari ko'paydi; davlat ta'lim tizimida unga nisbatan xarajatlar hajmi kengaydi va natijada oliy ta'lim aholining barcha qatlamlari uchun xizmat qila olmay qoldi; inson hayoti uchun xavfli hisoblangan kasalliklarning turlari ko'paydi va migratsiya jarayonlari ushbu kasalliklarning dunyo mamlakatlari bo'yab tarqalishiga sabab bo'ldi.; dunyo mamlakatlarida aholining ijtimoiy tabaqalashuvi kuchaydi; mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarning keskinlashuvi aholi turmush farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etayotgan ijtimoiy ish mutaxassislari faoliyati samaradorligini oshirishda ijtimoiy ishni amalga oshirishning xalqaro amaliyotini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. *Bunda ijtimoiy ish xodimidan quyidagilarni bilishi talab etiladi:*

- xalqaro ta'lim;
- xorij mamlakatlari aholisining madaniyatini chuqur bilish;
- ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon amaliyotidagi farqli jihatlarini o'rganish;
- ijtimoiy ish mutaxassislari o'rtaida xalqaro hamkorlikni o'rnatish.

Jahon amaliyotida aholi farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda quyidagi muammolarni vujudga kelishi va ularni salbiy oqibatlarini bartaraf etishi ijtimoiy ish xodimi faoliyatida namoyon bo'ladi:

- mamlakatda sodir bo'lgan turli urushlar tufayli halok bo'lganlar sonini aniqlash va vaziyatni tahlil etish;
- globalizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida jamiyat hayotida vujudga kelayotgan turli ijtimoiy muammolarning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy boshqaruvni tashkil etish;
- ijtimoiyadolatlilik;
- ayollar va bolalar huquqini ta'minlash;
- diniy, iqtisodiy va siyosiy kamsitishni yo'qotish;
- siyosiy ta'qib ostida bo'lgan immigrantlar va uy-joysizlarning haq-huquqlarini himoya qilish;

- urush, siyosiy kurash va tabiiy ofatlar sodir bo‘lgan vaziyatda aholini bir hududdan boshqa bir hududga ko‘chirib o‘tkazish;
- globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish;
- milliy boyliklarni qayta taqsimlash va qashshoqlik darajasini kamaytirish.

## **8.2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi maqsadi va tarkibi**

1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) qaroriga asosan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilingan va e’lon qilingan. Preamble inson oilasi barcha a’zolariga xos bo‘lgan qadr-qimmat hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik,adolat va yalpi tinchlikning asosi bo‘lishini; inson huquqlarini mensimaslik va oyoqosti qilish odamzod vijdonini o‘rtayotgan vahshiylarcha qilmishlarga olib kelganini hamda kishilar so‘z va fikr erkinligi sohibi bo‘lib, qo‘rquv va kambag‘allikdan holi bo‘lib yashaydigan jamiyatni yaratish odamlar faoliyatini ustuvor yo‘nalishi, deb e’lon qilinganligini; inson so‘nggi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon qilib bosh ko‘tarishga majbur bo‘lmasligining oldini olish maqsadida inson huquqlarini qonun asosida himoya etilishi zarurligini; xalqlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish zarurligini; Birlashgan Millatlarning xalqaro ustavida insonning asosiy huquqlarni, qadr-qimmati va inson shaxsning erkinligi, erkaklar va ayollarning teng huquqligiga o‘z ishonchlarini tasdiqlaganliklarini hamda teng huquq bilan ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitini yaxshilashga yordam berishga qaror qilganliklarini; a’zo bo‘lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarni hurmat qilish va rioya etishga yordamlashish majburiyatini olganliklarini e’tiborga olgan holda, jami huquqlar va erkinliklarni tushunib olish mazkur majburiyatni to‘la-to‘kis bajarilishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bosh Assambleya inson huquqlari mazkur umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishi lozim bo‘lgan vazifa sifatida e’lon

qilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki, har bir inson va jamiyat tashkiloti hamisha ushbu deklaratsiyani nazarda tutib ma’rifat va ilm yo‘lida qayd etilgan huquqlar va erkinliklarning hurmat qilinishiga yordam berishga intilishlari, milliy va xalqaro darajadagi tadbirlari bilan ushbu huquqlar va erkinliklarning Tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar xalqlari o‘rtasida va mazkur davlatlarning yurisdiktsiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o‘rtasida umumiy va samarali tan olinishi kerak.

### **8.3. Global ijtimoiy muammolarni vujudga kelish sabablari, turlari va ularni guruhanishi**

Jahonda eng nufuzli xalqaro tashkilot bo‘lmish Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 2000-yilda barcha mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston tomonidan ma’qullangan “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” (MRM) hujjatini qabul qilgan.<sup>105</sup> MRM dunyoda inson taraqqiyotini ta’minlash bo‘yicha belgilangan maqsadlar tizimidan iborat. Bu maqsadlar asosida shakllantirilgan indikatorlar 2015-yilga qadar rivojlanishning aniq yo‘nalishlarini belgilab bergan.

BMT tomonidan tasdiqlangan MRM O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda sakkizta aniq maqsadlar ko‘rinishida ishlab chiqilgan. Ushbu maqsadlar O‘zbekiston sharoitida kam ta’minlanganlikni kamaytirish, ovqatlanish sifati va madaniyatini oshirish; boshlang‘ich va ta’lim maktablarida ta’lim sifatini yaxshilash; ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish hamda ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirish; bolalar o‘limini yanada kamaytirish; onalar sog‘lig‘ini yanada yaxshilash; VCh/SPID, sil va malyariya kasalliklariga qarshi kurashish; ekologik barqarorlikni ta’minlash; rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kuchaytirish kabilardan iborat bo‘ldi (1-rasm).

Yuqorida sanab o‘tilgan MRMni amalga oshirish orqali mamlakatda har tomonlama mukammal va samarali inson taraqqiyotiga erishish nazarda tutiladi.

---

<sup>105</sup> Формирование системы мониторинга социального благополучия населения. ИСИ. Т., 2012. С. 137.  
Ўзбекистонда ахоли турмуш даражасини баркарор ўсиши. Академия. Т., 2011. 152 б.  
Бородкин Ф.М., Айвазян С.А. Социальные индикаторы. М., 2001. 205 с.

Mamlakatda inson erkinliklari, ularning tanlov qobiliyatini kengaytirish, bilim, sog‘liq va daromadlarining shakllanishida sanab o‘tilgan har bir maqsad muhim ahamiyat kasb etadi.

**O‘ta qashshoqlik va ocharchilikka qarshi kurashish** maqsadining mohiyati – yer yuzidagi barcha aholini yashashi uchun zarur bo‘lgan sifatli oziq-ovqat mahsuloti, toza ichimlik suvi, kiyim-kechak, yashash joyiga ega bo‘lishi va kishilarning tibbiy xizmatdan foydalanishida namoyon bo‘ladi.

Kuniga 1 AQSh dollaridan kam mablag‘ga kun ko‘rayotgan kishilar o‘ta qashshoq hisoblanadilar. Ular jahon bo‘yicha 1 mlrd dan ortiq aholini tashkil etadi. Masalan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat fuqarosi 1 AQSh dollariga nima sotib olishi mumkin ekanligini tasavvur qilish qiyin. Afrika va Osiyoning ayrim mamlakatlarida esa ushbu mablag‘ hisobiga butun oila bir kun yashashi kerak. Jahonda har 7 daqiqada bir bola ochlik yoki u bilan bog‘liq sabablar tufayli nobud bo‘ladi. Besh yoshgacha bo‘lgan barcha bolalarning uchdan bir qismi to‘yib ovqatlanmaslikdan azob chekadi. Har yili besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning 6 mln.dan ortig‘i to‘yib ovqatlanmaslikdan nobud bo‘ladi. 1,3 mlrd kishi, jumladan Janubiy Osiyo aholisining 522 mln qismi kuniga 1 AQSh dollaridan kam mablag‘ga kun ko‘radi. Qashshoqlarning eng ko‘p qismi Afrikaning Sahroi Kabirdan janubidagi mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Bu yerda butun mintaqaga aholisining deyarli yarmi – 46,3 % qashshoqlikda yashaydi. Jahondagi eng badavlat uch kishi ega bo‘lgan mablag‘ – eng qashshoq 48 mamlakatning jami YaIMdan oshiq.<sup>106</sup>

**Umumiy boshlang‘ich ta’limga erishish** barcha bolalar boshlang‘ich ta’lim maktablariga borish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini nazarda tutadi. Ta’lim aholi turmush darajasini oshirishning dastaklaridan biri bo‘lganligi sababli ushbu maqsad juda muhim ahamiyatga ega. Jahonda maktabga bormaydigan bolalar soni juda ko‘p bo‘lib, ularning sabablari ham turlicha bo‘lishiga qaramay buning

---

<sup>106</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

natijasi doimo bir xil, ya’ni kelajakda ta’lim olmagan bolalarning bolalari ham qashshoq bo‘lib qoladilar.

## **Global Mingyillik Rivojlanishning xalqaro maqsadlari**

### **1-maqsad**



O‘ta qashshoqlik va ocharchilikka qarshi kurashish

### **2-maqsad**




Umumiy boshlang‘ich ta’limga erishish

### **3-maqsad**



Ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish va ayollarning huquq, imkoniyatlarini kengaytirish

### **4-maqsad**



Bolalar o‘limini kamaytirish

### **5-maqsad**



Onalar salomatligini yaxshilash

### **6-maqsad**



OIV/OITS, bezgak va boshqa kasallikkarga qarshi kurash

### **7-maqsad**



Ekologik barqarorlikni ta’minalash

### **8-maqsad**



Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni shakllantirish

## **O‘zbekistonda Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari**

### **1-maqsad**



Kam ta’minlanganlikni va qoniqarsiz ovqatlanishni qisqartirish

### **2-maqsad**



Boshlang‘ich va o‘rta maktablarda ta’lim sifatini oshirish

### **3-maqsad**



Ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish va ayollarning huquq, imkoniyatlarini kengaytirish

### **4-maqsad**



Bolalar o‘limini kamaytirish

### **5-maqsad**




Onalar salomatligini yaxshilash

### **6-maqsad**



OIV/OITS, sil kasalligi va bezgakka qarshi kurash

### **7-maqsad**



Ekologik barqarorlikni ta’minalash

### **8-maqsad**



O‘zbekiston va rivojlanish maqsadida global hamkorlikni shakllantirish

1-rasm. **Global mingyillik rivojlanishning xalqaro va milliy maqsadlari<sup>107</sup>**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda 140 mlndan ziyod bolalar maktablarga umuman qatnamaganlar. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning qishloq joylarida yashovchi bolalarning 33 % maktablarga qatnamaydi. 130 mln bolalarning

<sup>107</sup> BMTning xalqaro inson taraqqiyoti dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi. Inson taraqqiyoti ma’ruzasi, 2010 yil, BMTning O‘zbekistondagi taraqqiyot dasturi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

boshlang‘ich ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash uchun ta’lim sohasiga 10 yil davomida har yili qo‘sishimcha 7 mldr AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritish talab etiladi. Dunyoda 250 mlnga yaqin bola yashash uchun ishlashga majbur.<sup>108</sup>

**Ayollar va erkaklarning tengligini rag‘batlantirish va ayollarning huquq, imkoniyatlarini kengaytirish** – ayollar uchun erkaklar bilan teng huquqlilikni ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim olish uchun teng imkoniyatlarni yaratishda o‘z aksini topadi. MRMda gender tengsizligini bartaraf etilishi mutanosib rivojlanishning muhim shartlaridan ekanligi nazarda tutiladi. Shuning uchun yuqorida sanab o‘tilgan sakkiz maqsadning har biri u yoki bu darajada gender masalalari bilan bog‘liqdir.

Jahonda 876 mln katta yoshli savodsizlarning 75%ini ayollar tashkil etadi. Ayollardagi bandlik darajasi erkaklar bandligi ko‘rsatkichining uchdan ikki qismiga to‘g‘ri keladi. O‘ta qashshoq yashayotgan 1,3 mldr kishilarning 70%ini ayollar tashkil etadi. Maktabga qatnamayotgan bolalarning taxminan 60%ini qizlar tashkil etadi.<sup>109</sup>

**Bolalar o‘limini kamaytirish** maqsadini amalga oshirish yo‘nalishlari bolalarning go‘dakligida va kichikligida kam nobud bo‘lishlariga erishish; ularni turli xil bolalar kasalliklaridan himoya qilish uchun emlash; bolalarni sifatli ovqatlanishi, sog‘lom o‘sish va rivojlanishlari uchun ularni toza suv va sanitariya sharoitlari bilan ta’minlash; ularning onalari ham qoniqarli ovqatlanishi, homiladorligida parvarish qilinishi va emizikli go‘dagiga to‘la g‘amxo‘rlik qila olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Dunyo mamlakatlarida har yili 11 mlnga yaqin bola, ya’ni har minutda 20 ta yoki har kuni 30 ming bola besh yoshga yetmasdan nobud bo‘ladi. Ulardan 4 mlnga yaqini hayotining dastlabki 28 kunida dunyodan o‘tadi. O‘lim bilan bog‘liq holatning aksariyat qismi kam va o‘rta daromadli mamlakatlar, jumladan, Sahroi

---

<sup>108</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>109</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Kabirdan janubda va Janubiy Osiyoda joylashgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Ota-onalar o‘z bolalarini zarur darajada parvarishlash imkoniyatiga ega bo‘limganliklari sababli kambag‘al mamlakatlarda ko‘plab chaqaloqlar va go‘daklar nobud bo‘lishmoqda.<sup>110</sup>

**Onalar salomatligini yaxshilash** farzand kutayotgan ayollar sifatli tibbiy yordam olishlari, ular bola tug‘ilganidan keyin xuddi homiladorlik davridagi kabi sog‘lom bo‘lishlari, ularning bolalari sog‘lom tug‘ilishini ta’minlashga qaratilgan maqsaddir.

Ayollar homiladorlik davrida turli o‘zgarishlarni boshlaridan kechiradilar va ushbu o‘zgarishlar ba’zan turli kasalliklarga olib keladi. Ayollar sifatli ovqatlanishsa, tibbiy xizmat va zururiy dori-darmonlarga ega bo‘lsalar, ko‘pgina muammolar vujudga kelmasligi mumkin edi. Jahonda har yili 500 mingga yaqin ayol homiladorlik yoki tug‘ish davrida vafot etadi. Bunday holatlarning 99% rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz beradi. Tug‘ish davrida vafot etgan har bir ayolga yana turli lat yegan, yuqumli va boshqa kasalliklardan azob chekadigan 20 ta ayol to‘g‘ri keladi. Yiliga 15 mlnga yaqin ayol ushbu muammoni chetlab o‘tolmaydi. Hayot uchun xavfli sharoitlarda qilingan abortlar oqibatida vafot etgan ayollar onalar o‘limining umumiyligi ko‘rsatkichida 13%ni tashkil etadi. Dunyo mamlakatlarida har yili 80 mlnga yaqin istalmagan homiladorlik holati qayd etiladi. Shundan 46 mln tasida homila oldirib tashlanadi, 19 mln homilani oldirib tashlash holati ona hayoti uchun xavfli bo‘lgan sharoitlarda amalga oshiriladi.<sup>111</sup>

**OIV/OITS, bezgak va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurash.** Yuqumli kasalliklar kishidan-kishiga o‘tib, tez tarqalgani uchun juda xavflidir. Ushbu kasalliklarni ayrimlari bezgak, sil, OIV/OITS qashshoq mamlakatlarda nisbatan ko‘p tarqalgan. Ular og‘ir kasalliklar bo‘lib, ko‘plab kishilar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu kasalliklar ertaga bugungi kun kabi insonlar

---

<sup>110</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>111</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

umriga zomin bo‘lmasligini ta’minlash ushbu maqsadning muhim vazifasi hisoblanadi.

OITS dastavval XX asrning 80-90 yillarida aniqlangan bo‘lib, hozirgacha mazkur kasallikdan vafot etganlar soni 25 mln dan ortib ketdi. Har kuni 15 ming kishi yangidan OIVni yuqtiradi. OITS bilan bog‘liq kasallikkardan kuniga 8 ming odam vafot etadi. Ushbu kasallik tufayli har yili 3 mlnga yaqin inson hayotdan ko‘z yummoqda. Dunyo mamlakatlarida yangidan OIVni yuqtirganlarning 50%ga yaqini yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Har yili 8,8 mln kishida sil kasalligi aniqlanadi. Jahonda sil tufayli har kuni 5,5 ming kishi vafot etadi va ushbu ko‘rsatkich yiliga 1 mln kishidan ortib ketadi. Bunday holatlarning 80% rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bezgak kasalligi bilan og‘rish holatlari har yili 500 mln kishini qamrab oladi. Shundan 1 mlndan ortiq holatlar o‘lim bilan yakun topmoqda. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limining asosiy sababi bo‘lgan bezgak xastaligining 90%ga yaqini tropik Afrikaga to‘g‘ri keladi.<sup>112</sup>

**Ekologik barqarorlikni ta’minlash** – qayta tiklanmaydigan zaxiralardan, jumladan yoqilg‘i va minerallarning qazib olinadigan turlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, iste’mol darajasiga qarab yangilash mumkin bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dov-daraxt, toza suv va havoni tiklab borish demakdir.

Ekologik vaziyat bo‘yicha dunyo mamlakatlaridagi holatlarga nazar tashlasak: 1,1 mlrd kishi ichimlik suvidan yetarli darajada bahramand emas; 2,4 mlrd kishi zaruriy sanitariya sharoitiga ega emas; 3,4 mln kishi, asosan qashshoq kishilar va bolalar ichish uchun yaroqsiz suvni iste’mol qilish yoki toza ichimlik suvi yetishmasligi tufayli halok bo‘lmoqda; har yili havoning ifloslanishi natijasida 1,6 mln kishi hayotdan ko‘z yummoqda; yer yuzida har minutda 20 ta futbol maydoniga teng yashil maydonlar kesib tashlanmoqda; jahonda har kuni 6 mln tonnaga yaqin maishiy chiqindi chiqadi.<sup>113</sup>

---

<sup>112</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>113</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi 2015-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijalari va 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan kongress ma’lumotlari asosida hisoblangan.

**Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni shakllantirish** – yuqorida sanab o‘tilgan yetti maqsadga erishish yo‘lida birlashish va barchaning birgalikda harakat qilishi zarurligini bildiradi.

O‘zbekistonda bosqichma – bosqich va ijtimoiy yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi, birinchi navbatda aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar va aholi turmush darajasining muntazam oshib borayotganida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mamlakatimiz aholisi 32,7 mln kishiga yetdi va 2017-yilga nisbatan 1,7% o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. Jumladan, shahar aholisi 16,53 mln kishini (50,6%), qishloq aholisi esa 16,17 mln kishini (49,4%) tashkil etdi. Band aholi soni 295,1 ming kishiga ortdi (yoki 1,7%ga) va 2018-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 13,52 mln kishini tashkil etdi.<sup>114</sup>

#### **8.4. BMTning global ming yillik rivojlanish maqsadlari**

BMT tomonidan tasdiqlangan MRMda O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda sakkizta aniq maqsadlar ishlab chiqilgan. *Ushbu maqsadlar quyidagilardan iborat:*

- birinchi maqsad – ijtimoiy jihatdan kam ta’milanganlikni kamaytirish, ovqatlanish sifati va madaniyatini oshirish;
- ikkinchi maqsad – boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini yaxshilash;
- uchinchi maqsad – ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish hamda ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirish;
- to‘rtinchi maqsad – bolalar o‘limini yanada kamaytirish;
- beshinchi maqsad – onalar sog‘ligini yanada yaxshilash;
- oltinchi – VCh/SPID, sil va malyariya kasalliklariga qarshi kurashish;
- yettinchi – ekologik barqarorlikni ta’minalash;
- sakkizinchi – rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kuchaytirish.

---

<sup>114</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2000-2015 yillar mobaynida O‘zbekiston milliy MRMni bajarish bo‘yicha olgan majburiyatlarini deyarli barcha ko‘zda tutilgan vazifalarini (indikatorlar) amalga oshirdi. Erishilgan yuqori iqtisodiy o‘sish natijasida kam ta’minlanganlar darajasi 27,5 foizdan 13,7 foizga, ya’ni 2 martadan ortiq kamaydi. O‘n ikki yillik majburiy ta’lim tizimiga o‘tish natijasida o‘quvchilarni qamrab olish 99,8%ga yetdi. Kollej va litseylardagi qamrov 2002 yildagi 31,2 foizdan 2014 yilda 99,6 foizga ortdi. Onalar va bolalar o‘limi mustaqillik yillari davomida 3 martadan oshiq kamaydi.

Milliy MRM ma’lum darajada mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda yuqorida ko‘rib o‘tilgan maqsadlar va natijalarda to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko‘zda tutilganligini ham e’tirof etish lozim. Bu o‘rinda BMT 2015-yil sentyabr oyida barcha mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston tomonidan ma’qullangan “2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasida kun tartibi – Dunyoni o‘zgartiramiz” hujjatini alohida ta’kidlash lozim.<sup>115</sup> Ushbu qabul qilingan barqaror rivojlanish dasturi 17 ta aniq maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi (1-jadval).

## **8.5. Ijtimoiy ishlovchilarining global muammolarini hal etishdagi o‘rni**

Xalqaro hamjamiyat tomonidan aniqlab berilgan barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari amalga oshirilayotgan tadqiqot obyekti, maqsad va vazifalariga deyarli mos keladi. Shuningdek, 1-jadvalda qayd etilgan maqsadlar: qashshoqlikni tugatish, sog‘lom turmush tarzini ta’minalash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, samarali bandlikni ta’minalash maqsadida yangi ish joylarini tashkil qilish, qishloq joylarda noqishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirish va industrilashtirish jarayonlarini faollashtirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarini tashkil etish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi choralarini ishlab chiqish, aholi yashash joylarini barqaror rivojlantirish, yerlarni

---

<sup>115</sup> Преобразование нашего мира. Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. ООН. 2015. Сентябрь.

yomonlashuvi jarayonlariga qarshi kurashish, cho'llashuvni oldini olish, bioxilma-xillikni ta'minlash va boshqalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo'shami.

*1-jadval*

### **2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari va vazifalari<sup>116</sup>**

<b>Maqsadlar tartibi</b>	<b>Maqsadlar natijalari</b>
<b>Maqsad № 1</b>	Jahonda qashshoqlikni barcha turlarini tugatish
<b>Maqsad № 2</b>	Ocharchilikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishiga ko'maklashish
<b>Maqsad № 3</b>	Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagilarni farovonligini oshirishga yordam berish
<b>Maqsad № 4</b>	Barchani qamrab olgan sifatlari ta'limni amalgaga oshirish
<b>Maqsad № 5</b>	Gender tengligiga erishish, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kengaytirish
<b>Maqsad № 6</b>	Suv resurslaridan samarali foydalanish va sanitariyaga rioya qilish
<b>Maqsad № 7</b>	Qulay, barqaror va hozirgi zamon energiya ta'minotiga bo'lgan talabni qondirish
<b>Maqsad № 8</b>	Doimiy, har taraflama barqaror iqtisodiy o'sish, to'la va samarali bandlikni va ish joylarini ta'minlash
<b>Maqsad № 9</b>	Infratuzilmani tashkil etish, barqaror sanoatlashuvga ko'maklashish, innovatsiyani qo'llab-quvvatlash
<b>Maqsad № 10</b>	Mamlakatlar hududida va o'zaro tabaqalashuvni kamaytirish
<b>Maqsad № 11</b>	Shaharlar va aholi yashash joylarini xavfsizligi va barqarorligiga erishish
<b>Maqsad № 12</b>	Iste'mol va ishlab chiqarishni barqarorlashtirish modellarini ta'minlash
<b>Maqsad № 13</b>	Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish
<b>Maqsad № 14</b>	Okeanlar, daryolar hamda ularning resurslaridan barqaror rivojlanish maqsadida oqilona foydalanish
<b>Maqsad № 15</b>	Quruqlikda ekotizimni tiklash va o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llashuvga qarshi kurashish, yerlarni yomonlashuv jarayonlarini to'xtatish, bioxilma-xillikni ta'minlash
<b>Maqsad № 16</b>	Ijtimoiy to'siqlardan xolis va ozod jamoalarni tashkil etish, huquqiy himoya qilishga keng va samarali ishtiroy etishga tashkilotlarni jalg qilish
<b>Maqsad № 17</b>	Barqaror rivojlanish maqsadida global hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish va faollashtirish

<sup>116</sup> BMTning 2015-yil sentyabr oyidagi barqaror rivojlanirish bo'yicha qabul qilgan xujjati.

Umuman, barqaror rivojlanish dasturiga asosan, mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlash to'rt o'zaro bog'liq yo'nalishni va maqsadlarni amalga oshirishi lozim. Jumladan, davlat va mintaqalar miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional vazifalarni o'zaro mutanosiblikda hal qilish zarur.

## **8.6. Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi maqsadi va tarkibi**

Dunyo mamlakatlarida globalizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida ijtimoiy muammolarning ko'lami kengayib borishi sababli, 1956-yilda Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi tashkil etildi. *Mazkur Federatsiya faoliyatidan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:*

- dunyo mamlakatlarida ijtimoiy ish kasbi standartlari va unga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, mamlakatlararo ijtimoiy ishlovchilar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- har bir mamlakatda milliy ijtimoiy ishlovchilar muassasalarini tashkil etish;
- ijtimoiy ish mutaxassislarini mamlakatda ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqishdagi faol ishtirokini ta'minlash.

*Yuqoridaq maqsadlardan kelib chiqqan holda Federatsiya quyidagi vazifalarni o'z zimmasiga oladi:*

- ijtimoiy ishlovchilarning mamlakatlararo hamkorligini kuchaytirish;
- xalqaro darajada ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ijtimoiy muammolarni hal etishga oid turli anjumanlarni tashkillashtirish va ularni amalga oshirilishini ta'minlash;
- aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy ishlovchilarning ilmiy asoslangan fikrlari va ularning ushbu sohadagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

*Federatsyaning quyidagi mintaqaviy vakolatxonalari mavjud:*

- Afrika;
- Osiyo va Tinch okeani ko'rfazi;
- Yevropa;
- Lotin Amerikasi va Karib ko'rfazi;

– Shimoliy Amerika.

Federatsiya Xalqaro inson huquqlarini himoyalash tashkiloti, Yevropa Ittifoqi tashkiloti, Xalqaro ijtimoiy ta'minot kengashi, Xalqaro ijtimoiy ish maktabi assotsiatsiyasi, BMT, BMTning bolalar fondi (YuNISEF) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

### **Tayanch atamalar (glossariy)**

**Globallashuv** – xalqaro ahamiyatga ega iqtisodiy, siyosiy, madaniy va informatsion omillarning alohida davlatlardagi ijtimoiy voqelikka ta'siri jarayoni

**Immigratsiya** – mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududiga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi

**Emigratsiya** – mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi.

**Migratsion qoldiq** – immigratsiya va emigratsiya miqdori o'rtasidagi farq.

**Aqlning oqib o'tishi** – yuqori malakali mutaxassislarning mamlakatlararo migratsiyasi.

**Reemigratsiya** – emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlari.

**Immigrantlarni kasbiy tayyorlash dasturlari** – immigrantlarning ma'lum kasbiy tayyorgarlikdan o'tganlaridan so'ng vatanlariga qaytishlariga turtki bo'luvchi choralar.

**Reemigratsiyani rag'batlantiruvchi dasturlar** – noqonuniy ravishda kirib kelgan immigrantlarni mamlakatdan majburiy chiqarib yuborishdan tortib vatanlariga qaytishni xohlaydigan immitrantlarga moddiy yordam berish bilan bog'liq choralar

**BMTning ming yillik rivojlanish maqsadlari** – dunyoda inson taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha belgilangan maqsadlar tizimidan iborat. Ushbu maqsadlar asosida shakllantirilgan indikatorlar 2015-yilga qadar rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergen

**2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari** – ushbu maqsadlarga 2015-yildan 2030-yilgacha erishish rejalashtirilgan. “Dunyoning o‘zgarishi: 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish uchun kun tartibi” yakuniy hujjati 17 ta global maqsad va 169 ta vazifalarni o‘z ichiga oladi.

**Jahonning global ijtimoiy muammolarini** – global ijtimoiy muammolar jamiyat rivojlanishining obyektiv omili sifatida vujudga keladi va ularni hal etish uchun butun insoniyatning birgalikdagi harakati talab etiladi. Global ijtimoiy muammolar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Jalon ahonisini ijtimoiy himoya qilish va unga globallashuv jarayonlarining ta’sirini tushuntirib bering?
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining maqsadi nima?
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi o‘z tarkibiga nimalarni qamrab oladi?
4. Global ijtimoiy muammolar va ularni vujudga kelish sabablarini izohlab bering?
5. Global ijtimoiy muammolarning qanday turlari mavjud?
6. BMTning global ming yillik rivojlanish maqsadlari tarkibini sharhlab bering?
7. Ijtimoiy ish xodimlarini global muammolarni hal etishdagi vazifalarini tushuntirib bering?
8. Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi maqsadi va tarkibini tushuntirib bering?
9. 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarini sanab bering?
10. Global ijtimoiy muammolarni hal etishda xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy tashkilotlarning vazifalarini izohlang?

## Testlar

**1. Xalqaro ahamiyatga ega iqtisodiy, siyosiy, madaniy va informatsion omillarning alohida davlatlardagi ijtimoiy voqelikka ta'siri?**

- a) modernizatsiya
- b) tarkibiy o‘zgarishlar
- d) globalizatsiya
- e) ijtimoiy siyosat

**2. Jahon ijtimoiy globallashuvning nechta manbalari mavjud?**

- a) 2
- b) 3
- d) 4
- e) 5

**3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?**

- a) 1948-yil 10-dekabr
- b) 1948-yil 10-yanvar
- d) 1950-yil 10-dekabr
- e) 1960-yil 10-dekabr

**4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi nechta moddadan iborat?**

- a) 15
- b) 30
- d) 45
- e) 60

**5. BMT 2000 yildagi qabul qilingan ming yillik rivojlanish maqsadlari soni?**

- a) 7
- b) 8
- d) 17
- e) 30

**6. 2015 yil sentyabr oyida “2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasida kun tartibi – Dunyoni o‘zgartiramiz” dasturida nechta rivojlanish maqsadlari belgilangan?**

- a) 7
- b) 8
- d) 17
- e) 30

**7. Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi qachon tashkil topgan?**

- a) 1945 y.
- b) 1951 y.
- d) 1956 y.
- e) 1965 y.

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2012. 46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909 sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 19 martdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 10.08.2015 yildagi 327-sun qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 7 iyundagi №165-sunli “Ijtimoiy nafaqalar tayinlash tartibini yanada takomillashtirish hamda oilalarning jami daromadlari yanada to‘liq hisobga olinishini ta’minlash to‘g‘risida”gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2015 yil 14 apreldagi PF-4715-sun farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sunli farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sun qarori.

9. O‘zbekistonda "Davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etish konsepsiysi" loyihasi [http://pfru.uz/uz\\_Cyril/page/518/davlat-pensiya-taminoti-tizimini-islo-etish-koncepciyasi-loyiasi](http://pfru.uz/uz_Cyril/page/518/davlat-pensiya-taminoti-tizimini-islo-etish-koncepciyasi-loyiasi)

10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. T.: O‘zbekiston, 2010. 56 b.

11. Mirziyoev Sh.M., O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O‘zbekiston, 2018. 80 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14 yanvar. T.: Uzbekiston, 2017. 104 b.

13. Human Development Report 2016. Human Development for Everyone. UNDP. Canada, 2016. 286 p.

14. Ehrenberg, Ronald G. Modern labor economics : theory and public policy / Ronald G. Ehrenberg, Robert S. Smith. Eleventh ed. USA, 2012. 682 p.

15. World Social Protection Report 2014/15: Building economic recovery, inclusive development and social justice International Labour Office – Geneva: ILO, 2014. 364 p.

16. Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK, 2013. 376 p.

17. The Student’s Companion to Social Policy. Fourth Edition. Edited by Pete Alcock, Margaret May, and Sharon Wright. / UK 2012. John Wiley & Sons Ltd. 496 p.

18. Understanding theories and concepts in social policy/ Ruth Lister/The policy press/UK, 2010. 328 p.

19. Ministry of Social Security and Labour. The Social Report 2012-2016. Vilnius, 2016. 162 p.
20. Social Work and Social Welfare: An Introduction, Sixth Edition. Rosalie Ambrosino, Robert Ambrosino, Joseph Heffernan, and Guy Shuttlesworth 2008. 360 p.
21. World Social Protection Report 2014/15: Building economic recovery, inclusive development and social justice International Labour Office – Geneva: ILO, 2014. 364 p.
22. Introduction to Social Work in the South African context / Paul Mbedzi, Lulama Qalinge, Peter Schultz, Johannah Sekudu, Mimie Sesoko / Oxford University Press/ Southern Africa, 2015. 218 p.
23. Социальная политика: Учебник для бакалавров/ Под ред. Э.И.Холостовой. М.: Юрайт, 2012. 367 с.
24. Маргулян Я.А. Социальная политика: Учебник. Санкт-Петербург., 2011. 236 с.
25. Women at Work: Trends 2016 International Labour Office – Geneva: ILO, 2016. 138 p.
26. World Employment and Social Outlook 2016: Transforming jobs to end poverty International Labour Office – Geneva: ILO, 2016. 192r.
27. Социальная политика: долгосрочные тенденции и изменения последних лет. Краткая версия доклада: док. К ХВИ апр. Междунар. науч. конф. по проблемам развития экономики и общества. М., 2015. 7-10 апр. / Отв. ред. Я.И. Кузминов, Л.Н. Овчарова, Л.И. Якобсон. Нац. исслед. ун-т Высшая школа экономики. М.: Высшая школа экономики, 2015. 51, [1] с.
28. Uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati faoliyatini tashkil etish metodik qo'llanmasi/ M. Karmanyan, M. Xasanbaev, M. Aminov. Т.: Baktria press, 2014. 100 b.
29. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti: Darslik/ Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. Т.: Iqtisodiyot, 2013. 418 b.

30. Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli: Monografiya. T.: Universitet, 2017. 128 b.

31. Vaxabov A.V. Qishloq aholisini turmush darajasini oshirishda bank tizimining o‘rni / “Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: Moliya, 2009. B. 15-23.

32. Vaxabov A.V. Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta’siri / “Ijtimoiy hamkorlik – iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Asosiy qism. T., 2014. B. 20-31.

33. Vaxabov A.V. Xajibakiev Sh.X. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat bozori holati va aholi bandligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari / “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi bandligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. I qism. T., 2015. B. 3-14.

34. Vaxabov A.V. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya tizimini modernizatsiyalash istiqbollari / “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: Universitet, 2014. B. 28-38.

35. Vaxabov A.V. O‘zbekistonda pensiya ta’minotini moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari / “Pensiya tizimini moliyalashtirish: xorij tajribasi va uni takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: Universitet, 2016. B. 15-21.

36. Vaxabov A.V. Xajibakiev Sh.X. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi bandligini oshirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili sifatida / “Iqtisodiy islohotlarni hozirgi bosqichida aholi turmush darjasini va sifatini oshirish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Termiz, 2016. B. 5-11.

37. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari / “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’mnoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı tezislar to‘plami. T.: Iqtisod-Moliya, 2017. B. 10-18.
38. Vaxabov A.V. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash muammolari / “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: Universitet, 2017. B. 4-11.
39. Vaxabov A.V. Baxtiyorov B.B. Inson kapitalini investitsion samaradorligini baholashning uslubiy asoslari / “Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida oliv ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni baholash va prognozlashtirish” mavzusida ilmiy maqolalar to‘plami. T., 2017. B. 5-12.
40. Vaxabov A.V. Xajibakiev Sh.X. Aholini ijtimoiy himoya qilishning tarkibi va manzillilagini kuchaytirish muammolari: xalqaro tajriba va milliy xususiyatlar / “Ijtimoiy sohani modernizatsiyalash va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T., 2018. B. 14-24.
41. Baxtiyorov B.B. Zakirxodjaeva Sh. O‘zbekiston milliy pensiya tizimining keksa aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishdagi ahamiyati / O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’mnoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. T. 2017. B. 151-155.
42. Baxtiyorov B.B. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini manzillilagini kuchaytirish yo‘nalishlari. / “Ijtimoiy sohani modernizatsiyalash va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T. 2018. B. 175-179.
43. Доклад о социальной защите в мире 2014/15: обеспечение экономического восстановления, инклюзивного развития и социальной справедливости / Группа технической поддержки по вопросам достойного

труда и Бюро МОТ для стран Восточной Европы и Центральной Азии. М.: МОТ, 2015. 436 с.

44. Доклад по целям развития тысячелетия Узбекистана 2015 / Под ред. Г.К. Сайдовой. Т.: Центр экономических исследований, 2015. 100 с.

45. Здоровье и здравоохранение в Нидерландах/ Под ред. А.П.Шрийверса. К.: Сфера, 1998. 324 с.

46. Медков В.М. Демография. М.: Инфра М., 2008. 138 с.

47. Щербакова Э.М. Мировой демографический барометр (электронный ресурс): Демоскоп Weekly. 2011. № 481-482.  
URL:<http://demoscope.ru/weekly/2011/0481/barom01.php> (дата обращения: 26.05.14)

48. Рунова Т.Г. Демография: Учебное пособие. М.: МГИУ, 2002. 564 с.

49. А.М. Дзядзко, И.И. Новик, М.Ю. Масюк, В.С. Караник. Система здравоохранения США: взгляд белорусских специалистов // Медицинские новости. 2014. №7. С. 37-50.

50. Измерения бедности и социальной интеграции в ЭС: достижения и дальнейшие улучшения. Рабочий документ 25. Подготовлен Евростатом. 20 января 2014. 20 с.

### **Internet saytlar**

51. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

52. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

53. [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz)

54. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)

55. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

56. [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz)

57. [www.undp.org](http://www.undp.org)

58. [www.ilo.org](http://www.ilo.org)

59. [www.who.org](http://www.who.org)

60. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

61. [www.unstats.un.org](http://www.unstats.un.org)

62. [www.oecd.org](http://www.oecd.org)

**QAYDLAR UCHUN**

**QAYDLAR UCHUN**

**A.V. VAXABOV, SH.SH. ZAXIDOVA, B.B. BAXTIYOROV,  
D.SH. ODINAYEV, J.N. FAYZULLAYEV**

**IJTIMOIY ISH VA IJTIMOIY TA'MINOTGA KIRISH**

**DARSLIK**

Muharrir: **Sh. Bazarova**

Badiiy muharrir-sahifalovchi: **K. Boyxo'jayev**

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.

Bosishga ruxsat 13.08.2018-yilda berildi. Bichimi 60x84/<sub>16</sub>.

Ofset qog'oz. «New Times Roman» garniturasi.

Shartli b.t. 9,7. Nashr hisob t. 10,0

Adadi 200 dona. 31-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>“A”</sup>.

“MEHRIDARYO” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
100128, Toshkent, Labzak, 13.